Bir Tomon o'z hududida boshqa Tomonning noqonuniy yashayotgan fuqarolarini readmissiya qilish bo'yicha hamkorlik yomonlashganini qayd etganda yoki diplomatik pasportlarni berish shartlarida mazkur Bitim imzolangan sanaga nisbatan o'zgarish yuz berganda, u mazkur Bitimning qo'llanishini to'liq yoki qisman to'xtatishi mumkin. Bir Tomon yuqorida qayd etilgan holat natijasida Bitimning qo'llanishini to'xtatganidan keyin, ushbu yomonlashuv va o'zgarishni tuzatish maqsadida qisqa muddatlarda boshqa Tomon bilan muloqot boshlaydi.

Bitim qo'llanishining to'xtatilishi va ushbu choraning bekor qilinishi to'g'risida diplomatik kanallar orqali xabar qilinadi.

6-modda

Nizolarni hal qilish

Mazkur Bitimni talqin qilish yoki amalga oshirish bilan bog'liq nizolar yuzaga kelgan hollarda, Tomonlar ularni diplomatik kanallar orqali muzokaralar va maslahatlashuvlar yo'li bilan hal qilishga intiladilar.

7-modda

Bitimga o'zgartirish kiritish

Mazkur Bitimga, Tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan, uning ajralmas qismi hisoblanadigan alohida bayonnomalar shaklida o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Ushbu bayonnomalar mazkur Bitimning 9-moddasiga muvofiq kuchga kiradi.

8-modda

Bitimning boshqa xalqaro shartnomalar bilan munosabati

Mazkur Bitim o'z davlatlari a'zo bo'lgan Tomonlarning boshqa xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

9-modda

Bitimning kuchga kirishi va amal qilish muddati

1. Mazkur Bitim besh (5) yil muddatga tuziladi hamda Tomonlar uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan ichki jarayonlarini amalga oshirgani haqida bir-birini xabardor qiluvchi ikkita yozma xabarnomaning oxirgisi olingan sanadan keyingi ikkinchi oyning birinchi kunida kuchga kiradi. Bitim uning amal qilish muddati tugashidan uch (3) oy avval muddatda verbal nota almashish yo'li bilan rasman uzaytirilishi mumkin.

2. Har bir Tomon istalgan vaqtda diplomatik kanallar orqali boshqa Tomonga

mazkur Bitimni tugatish maqsadida to‘qson (90) kun avval shu haqida yozma ravishda xabarnoma yuborish orqali uni tugatishi mumkin.

Parij shahrida, 2025-yil 12-mart kuni, ikki (2) asl nusxada, o‘zbek va fransuz tillarida tuzildi, bunda ikkala matn bir xil kuchga ega.

(imzolar)

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Bahrayn Podshohligi
Hukumati o'rtasida diplomatik pasport egalarini viza talablaridan
o'zaro ozod etish to'g'risida
BITIM**

Manama, 2025-yil 20-avgust

*Mazkur Bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil
2-fevraldagi "Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida" PQ-36-son
qarori bilan tasdiqlangan*

(O'zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 7-martdan kuchga kirgan)

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Bahrayn Podshohligi Hukumati (keyingi o'rinlarda alohida "Tomon" va birgalikda "Tomonlar" deb ataluvchilar),

Ikki mamlakat o'rtasida mavjud bo'lgan ikki tomonlama munosabatlar va hamkorlikni yanada rivojlantirishni rag'batlantirish istagini bildirib;

O'z davlatlari hududiga amaldagi diplomatik pasport egalari bo'lgan fuqarolarining kirishini yengillashtirish maqsadida,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

Amaldagi diplomatik pasportga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hamda Bahrayn Podshohligi fuqarolari Tomonlar davlati hududiga ilk kirgan sanadan boshlab istalgan bir yuz sakson (180) kun ichida to'qson (90) kundan oshmagan muddatda ko'p martalik viza rasmiylashtirish majburiyatidan ozod qilingan holda ushbu Tomon davlati hududiga kirish, chiqish, tranzit o'tish hamda vaqtinchalik bo'lish mumkin.

2-modda

Har bir Tomonning amaldagi diplomatik pasportiga ega bo'lgan, boshqa Tomon hududidagi diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi xodimlari sifatida tayinlangan fuqarolari, shu jumladan, ularning oila a'zolari boshqa Tomon hududiga kirishdan oldin ushbu davlatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq viza olishlari lozim.

3-modda

Har bir Tomonning amaldagi diplomatik pasporti bo'lgan fuqarolari boshqa Tomon davlati hududiga xalqaro tashish uchun mo'ljallangan istalgan chegara o'tkazish punktlari orqali kirishlari mumkin.

4-modda

Tomonlar fuqarolari tomonidan taqdim etilgan pasportlarning amal qilish

muddati boshqa Tomon davlati hududiga kirgan sanada kamida olti (6) oyni tashkil etishi lozim.

5-modda

Tomonlar diplomatik kanallar orqali mazkur Bitim kuchga kirgunga qadar (30) kundan kechiktirmay o'zlarining amaldagi diplomatik pasportlari namunalarini almashadilar.

Basharti Tomonlardan biri pasportning yangi namunasini joriy etgan yoki almashtirilgan pasportlarni o'zgartirgan taqdirda, boshqa Tomon yangi yoki o'zgartirilgan pasportlar kuchga kirgan sanadan o'ttiz (30) kun oldin diplomatik kanallar orqali bunday o'zgartirishlar to'g'risida xabardor qilinadi. Xabarnoma yangi yoki o'zgartirilgan hujjatlarning namunasini va ularning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

6-modda

Har bir Tomon davlatlarining diplomatik pasport egalari bo'lgan fuqarolari boshqa Tomon davlat hududida bo'lib turish davomida ushbu Tomon davlatining amaldagi qonunchiligiga rioya qiladilar.

7-modda

Diplomatik pasport boshqa Tomon davlati hududida yo'qolgan yoki shikastlangan taqdirda, jabrlangan diplomatik pasport egasi o'z mamlakatining diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga, vakolatxona esa ushbu Tomonning vakolatli organlariga xabar beradi. Tegishli diplomatik vakolatxona yoki konsullik muassasasi o'z fuqarosiga yangi pasport yoki vaqtinchalik sayohat hujjatini beradi va bu haqda qabul qiluvchi davlat organlarini xabardor qiladi.

8-modda

Har bir Tomon istalmagan deb hisoblashi mumkin bo'lgan amaldagi diplomatik pasportga ega bo'lgan boshqa Tomon davlatining fuqarolariga o'z davlati hududiga kirishini rad etish yoki bo'lib turish muddatini qisqartirish yoxud tugatish huquqini o'zida saqlab qoladi.

9-modda

Diplomatik pasportga ega bo'lgan har bir Tomon davlatining fuqarolariga ushbu faoliyatga tegishli har ikki davlatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq talab qilinadigan vizani olmasdan turib boshqa Davlatda biron bir kasbiy yoki tijorat faoliyati bilan shug'ullanishi yoki o'qishni amalga oshirishi mumkin emas.

10-modda

Mazkur Bitimning amalga oshirilishi har qanday Tomon tarafidan jamoat

tartibi, jamoat xavfsizligi yoki jamoat salomatligi sabablariga ko'ra qisman yoki to'liq vaqtincha to'xtatilishi mumkin. Mazkur Bitimning amal qilishini to'xtatib qo'ygan Tomon boshqa Tomonni to'xtatib turishdan (48) soat oldin diplomatik kanallar orqali yozma ravishda xabardor qiladi.

Mazkur Bitimning amal qilishini to'xtatib turish boshqa Tomonning hududiga uning amal qilishini to'xtatib turishdan oldin allaqachon kirib kelgan fuqarolarning huquqlariga daxl qilmaydi.

11-modda

Mazkur Bitim Tomonlarning ular ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalar va konvensiyalardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

12-modda

Mazkur Bitimni talqin qilish yoki amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasida diplomatik kanallar orqali maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan do'stona hal qilinadi.

13-modda

Tomonlarning o'zaro yozma roziligi bilan mazkur Bitimga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Har qanday o'zgartirish ushbu Bitimning ajralmas qismini tashkil etuvchi bayonnoma shaklida kiritiladi. Bunday o'zgartirishlar ushbu Bitimning 14-moddasi qoidalariga muvofiq kuchga kiradi.

14-modda

Mazkur Bitim Tomonlar diplomatik kanallar orqali uning kuchga kirishi uchun o'zlarining milliy qonunchiligida nazarda tutilgan barcha ichki davlat tartib-taomillarni yakunlaganliklari to'g'risida oxirgi yozma xabarnoma olingan sanadan boshlab o'ttizinchi (30) kunda kuchga kiradi.

Mazkur Bitim nomuayyan muddatga tuziladi va har bir Tomon ushbu Bitimni diplomatik kanallar orqali yozma xabarnoma yuborish orqali tugatishi mumkin, bunday xabarnoma olingan kundan o'ttiz (30) kun o'tgach kuchga kiradi. Tugatish boshqa Tomon davlati hududiga oldin kirgan fuqarolarning huquqlariga daxl qilmaydi.

Manama shahrida, 2025-yil 20-avgustda, ikki (2) asl nusxada, har biri o'zbek, arab va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir.

Talqin qilishda tafovut yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Sloveniya
Respublikasi Hukumati o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat
sohalarida hamkorlik to'g'risida
BITIM**

*[O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari davlat reyestrída
2025-yil 30-mayda ro'yxatga olindi, ro'yxat raqami 4593-SI-2025-H]*

Lyublyana, 2025-yil 22-may

*Mazkur Bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-yanvardagi
“Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida” PQ–10-sonli qarori bilan
tasdiqlangan*

(O'zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 13-apreldan kuchga kiradi)

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Sloveniya Respublikasi Hukumati, keyingi o'rinlarda “Tomonlar” deb ataluvchilar,

Mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlash, xalqlarni bog'lovchi aloqalarni chuqurlashtirish hamda ta'lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirish istagida,

Ikki mamlakat o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish o'z mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishiga ishonch hosil qilgan holda,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

Tomonlar tenglik va o'zaro manfaatdorlik prinsiplariga asoslanib ta'lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni rag'batlantiradilar hamda hamkorlik uchun zarur sharoitlarni yaratishga intiladilar, xususan:

ilmiy, madaniy va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, o'qituvchilar va olimlarning almashinuvini rag'batlantirish;

oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari o'rtasida ilmiy, texnikaviy va ma'muriy sohalarida tajriba va bilim almashinishni osonlashtirish;

har ikki Tomonning imkoniyatlariga muvofiq, mobillik dasturlari, stipendiyalar va qo'shma tadqiqot faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini o'rganib chiqish;

ikkala mamlakatning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi akademik hamkorlikni kengaytirish;

ta'lim tizimlari haqida ma'lumot almashish;

mobillik dasturlarida ishtirok etayotgan qatnashchilarga ularning chet eldagi tajribalarini boyitish maqsadida yordam berish tizimlarini amalga oshirish, shu jumladan, yo'naltirish, til o'qitish va murabbiylik imkoniyatlarini taqdim etish;

badiiy san'at (musiq, teatr, raqs), adabiyot, amaliy va tasviriy san'at,

fotografiya, arxitektura, jamoat kolleksiyalari (muzeylar, kutubxonalar, arxivlar) va boshqa san'at turlari hamda ijodiy guruhlar o'rtasidagi aloqalarni va almashinuvlarni rag'batlantirish:

kutubxonalar va arxivlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri hamkorlikni rag'batlantirish;

o'z mamlakatlaridagi ta'lim va madaniy muassasalarda ta'lim, fan va madaniyat sohalarida tadbirlar, shu jumladan, seminarlar, ma'ruzalar, kitob ko'rgazmalari va yarmarkalar hamda boshqa shakllarda ikkala mamlakatning yutuqlarini taqdim etish uchun tadbirlar o'tkazishni rag'batlantirish;

ta'lim, fan va madaniyat sohalarida Tomonlar o'rtasida kelishilgan boshqa hamkorlik shakllarini qo'llab-quvvatlash.

2-modda

1. Tomonlar turli madaniy va badiiy faoliyatlarni rivojlantirish va rag'batlantirish, shuningdek, o'z imkoniyatlari doirasida ularni amalga oshirishga, xususan, quyidagilar orqali ko'maklashishga kelishib oladilar.:

madaniyat sohasining turli yo'nalishlarida hamkorlik, amaliyot o'tash va tajriba almashish maqsadida vakillarning o'zaro tashriflarini qo'llab-quvvatlash;

yakkaxon san'atkorlar va badiiy jamoalarning xorij safarlari, konsertlar, spektakllar, ko'rgazmalar va boshqa madaniy tadbirlarni rag'batlantirish;

o'z mamlakatlarida manfaatdor tomonlar tarafidan tashkil etiladigan festivallar va boshqa xalqaro tadbirlarga taklifnomalarni yuborish.

2. Tomonlar o'z mamlakatlarida ta'lim, ilmiy tadqiqot va madaniy faoliyatlarga oid kitoblar, risolalar, davriy nashrlar, hujjatlar, filmlar hamda boshqa materiallar va manbalarni almashishni rag'batlantiradilar.

3-modda

Tomonlar o'z davlatlarining milliy qonunchiligiga muvofiq, qo'lyozmalar, arxivlar va tarixiy hujjatlardan foydalanishni osonlashtiradilar hamda o'z mamlakatlarida arxeologiya va madaniy meros sohalarida hamkorlik qiladilar. Tomonlar, shuningdek, ushbu sohalarda mutaxassislar almashinuvini qo'llab-quvvatlaydilar.

4-modda

Tomonlar o'z davlatlarining mashhur adabiy asarlarini tarjima qilish va nashr etishni rag'batlantiradilar.

5-modda

Tomonlar Sloveniya Respublikasida o'zbek tilini va O'zbekiston Respublikasida sloven tilini o'rganishni, shuningdek, tegishli o'quv-uslubiy adabiyotlarni tarjima qilish va nashr etishni rag'batlantiradilar.

6-modda

Tomonlar ikki davlatning ta'lim, ilmiy va madaniy muassasalari o'rtasida hamkorlik bo'yicha bitimlar tuzilishini rag'batlantiradilar.

7-modda

Zarurat hollarda, Tomonlar ushbu Bitimni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar va loyihalarni nazarda tutuvchi ijro dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, imkon qadar ushbu Bitim va uning ijro dasturlari doirasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun moliyaviy va boshqa tashkiliy shartlarni belgilash maqsadida o'z vakillari o'rtasida maslahatlashuvlar o'tkazishlari mumkin.

8-modda

Mazkur Bitim Tomonlarning tegishli davlatlari ishtirokchi bo'lgan boshqa shartnomalar doirasidagi huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

9-modda

Mazkur Bitimni talqin qilish yoki amalga oshirishdan kelib chiqadigan har qanday nizolar Tomonlar o'rtasida diplomatik kanallar orqali muzokaralar va maslahatlashuvlar yo'li bilan hal qilinadi

10-modda

Mazkur Bitimga istalgan vaqtda Tomonlarning o'zaro yozma roziligi bilan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunday o'zgartirishlar 11-moddaning 1-bandiga muvofiq kuchga kiradi.

11-modda

1. Mazkur Bitim Tomonlar uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan tegishli ichki huquqiy tartib-taomillar bajarilganligi to'g'risida bir-birlarini diplomatik kanallar orqali xabardor qiladigan oxirgi yozma bildirishnoma olingan sanadan so'ng o'ttizinchi (30) kundan boshlab kuchga kiradi. U besh (5) yil muddatga amal qiladi va keyingi besh (5) yillik muddatlarga o'z-o'zidan uzayaveradi.

2. Har bir Tomon boshqa Tomonni diplomatik kanallar orqali olti (6) oy oldin yozma ravishda xabardor qilish orqali istalgan vaqtda ushbu Bitimni tugatishi mumkin.

Lyublyana shahrida, 2025-yil 22-mayda, ikki asl nusxada o'zbek, sloven va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir. Talqin qilishda kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

**Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Туркменистон
Ҳукумати ўртасида фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш
ва уларнинг оқибатларини бартараф этиш соҳасида ҳамкорлик
тўғрисида битимга қўшимча киритиш ҳақида
БАЁННОМА**

Тошкент, 2025 йил 17 ноябрь

*Мазкур Баённома Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 6 апрелдаги «Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида»
ПҚ–126-сонли қарори билан тасдиқланган*

(Ўзбекистон Республикаси учун 2026 йил 15 апрелдан кучга кирган)

Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати ва Туркменистон Ҳукумати, кейинги ўринларда «Томонлар» деб аталувчилар,

2013 йил 25 ноябрда имзоланган Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Туркменистон Ҳукумати ўртасида фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларнинг оқибатларини бартараф этиш соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги Битимнинг (кейинги ўринларда — Битим) 16-моддасига мувофиқ,

икки давлат ўртасида фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш соҳасидаги ҳамкорликни янада ривожлантириш истагини билдирган ҳолда,

қуйидагилар тўғрисида келишиб олдилар:

1-модда

Томонлар Битимни унга илова ҳисобланадиган Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг Фавқулодда вазиятларда бошқарув миллий маркази билан Туркменистон Мудофаа вазирлигининг Фуқаро мудофааси ва қутқарув ишлари Бош бошқармасининг Фавқулодда вазиятлар ва қутқарув ишлари бошқармаси ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик ҳамда ахборот алмашинуви бўйича Йўриқнома билан тўлдиришга келишиб олдилар.

2-модда

Мазкур Баённома Битимнинг ажралмас қисми ҳисобланади ҳамда Битимнинг 17-моддасида назарда тутилган тартибда кучга киради.

Мазкур Баённома Битимнинг амал қилиши тўхтатилган пайтдан бошлаб ўз кучини йўқотади.

Тошкент шаҳрида 2025 йил 17 ноябрда икки асл нусхада, ҳар бири ўзбек, туркман ва рус тилларида тузилди, бунда барча матнлар бир хил кучга эга.

Мазкур Баённома қоидаларини талқин қилишда келишмовчиликлар юзга келган тақдирда, Томонлар рус тилидаги матнга мурожаат қиладилар.

(имзолар)

Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва
уларни бартараф этиш соҳасида ҳамкорлик
тўғрисида Битимга қўшимча киритиш
хақидаги Баённомага
ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар
вазирлигининг Фавқулодда вазиятларда бошқарув миллий
маркази билан Туркменистон Мудофаа вазирлиги Фуқаро
мудофааси ва қутқарув ишлари Бош бошқармасининг
Фавқулодда вазиятлар ва қутқарув ишлари бошқармаси
ўртасида ўзаро ҳамкорлик ва ахборот алмашинуви бўйича
ЙЎРИҚНОМА**

1. Умумий қоидалар

1.1. Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг Фавқулодда вазиятларда бошқарув миллий маркази (кейинги ўринларда — Ўзбекистон Республикаси ФВВ ФВБММ) билан Туркменистон Мудофаа вазирлигининг Фуқаро муҳофазаси ва қутқарув ишлари Бош бошқармасининг Фавқулодда вазиятлар ва қутқарув ишлари бошқармаси (кейинги ўринларда — Туркменистон МВ ФМҚИББФВҚИБ) ўртасида ўзаро ҳамкорлик ва ахборот алмашинувини ташкил этиш бўйича Йўриқнома трансчегаравий ҳудудларда фавқулодда вазиятлар хавфида ёки улар юзага келганда ахборот алмашинуви ва ўзаро ҳамкорлик қилиш тартибини белгилашни ташкил этиш, шунингдек, уларга биргаликда тезкор жавоб қайтариш мақсадида ишлаб чиқилган.

1.2. Туркменистон МВ ФМҚИББФВҚИБ ва Ўзбекистон Республикаси ФВВ ФВБММ навбатчи сменалари (кейинги ўринларда — НС) ўртасидаги ўзаро ахборот ҳамкорлигининг асосий шакллари Томонлар давлатларининг чегара олди ҳудудларида табиий, техноген ва экологик характердаги фавқулодда вазиятлар хавфи ёки уларнинг юзага келиши тўғрисидаги тезкор ахборотларни узатиш ҳамда қабул қилиш ҳисобланади.

2. Ахборот алмашиш тартиби

2.1. Ахборот алмашинуви Ўзбекистон Республикаси ФВВ ФВБММ ва Туркменистон МВ ФМҚИББФВҚИБ ўртасида амалга оширилади.

2.2. НС Ўзбекистон Республикаси ва Туркменистон ҳудудида фавқулодда вазиятларнинг юзага келганлиги (юзага келиш хавфи) тўғрисида (ривожланиш жараёни, уларни бартараф этиш бўйича кўрилаётган чора-тадбирлар ҳақида) қуйидаги масалалар борасида ахборот алмашадилар:

қўшни давлат ҳудудига хавфли моддалар чиқарилганлиги;

радиациявий авария ҳолати, шунингдек, ядровий, радиациявий материални ташиш (эксплуатация қилиш) вақтида ёки уни сақлаш чоғида юз берган ҳодисалар тўғрисида;

куруқлик (тупроқ, ер ости бойликлари) ҳолати, атмосфера (ҳаво муҳити) таркиби ва хоссалари, гидросфера ҳолати (сув омборлари, сув оқимлари, ер усти ва ер ости сувларининг юқори даражада ифлосланиши, сизот сувлари сатҳининг кўтарилиши) ўзгаришининг салбий оқибатлари юзага келганлиги ёки юзага келиши хавфи тўғрисида;

ўзининг ёки чегарадош давлат ҳудудидаги табиий экотизимларда ёнғинлар юзага келганлиги тўғрисида;

давлатларнинг ўз ҳудудида ёки бошқа давлат ҳудудида бедарак йўқолган фуқаролари тўғрисида (аниқ маълумотлар);

фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйича ҳаракатларга тайёргарлик кўриш, авария-қутқарув ишларини ва уларни тугатиш бўйича бошқа ишларни амалга ошириш, шунингдек, жабрланган аҳолининг ҳаётини биринчи навбатда таъминлаш тўғрисида;

авария-қутқарув ишларини ўтказиш учун тезкорлик билан жалб этилиши мумкин бўлган кучлар ва воситаларнинг тайёрлиги тўғрисида (тегишли сўровнома олинганда);

бошқа фавқулодда вазиятлар ва ҳодисалар тўғрисида (келишувга кўра).

2.3. НСнинг ўзаро ҳамкорлик кўникмаларини ошириш йўналишларидан бири ҳудудий НСни жалб қилган ҳолда ўтказиладиган қўшма машғулотларда иштирок этиш ҳисобланади.

2.4. 2.2. бандда кўрсатилган маълумотлар олинганда дарҳол НС ўзаро хабардор қилинади.

НСнинг узатиладиган ахбороти тегишли равишда мазкур идора раҳбарияти билан олдиндан келишиб олинади.

3. Ахборот алмашишни ташкил этишга доир асосий талаблар

3.1. Фавқулодда вазиятлар (ҳодисалар) бўйича ахборот алмашиш ва юзага келаётган вазиятга аниқлик киритиш мавжуд ахборот-коммуникация ресурслари ва алоқа каналларидан (телефон, факс, электрон почта, телеграммалар, видеоконференцалоқа (ВКА) ва бошқалар) фойдаланган ҳолда, шунингдек, умумий фойдаланишдаги Интернет тармоғи орқали кеча-кундуз рус тилида амалга оширилади.

3.2. НС ўртасида ахборот алмашиш тартиби, маълумотларни узатиш усули ва шакли ўзгарганда, ахборот узатишни таъминлаш ва уни ҳимоя қилиш усуллари бўйича қарорлар тегишли техник мутахассислар томонидан ишчи тартибда келишилади ва мазкур Йўриқномага қўшимча билан тасдиқланади.

4. Тезкор бошқарув органларининг реквизитлари

4.1. Сўралган зарур хизмат маълумотларига нисбатан барча зарур ва ишончли маълумотларни энг қисқа муддатларда олиш имконини берувчи ахборот ҳамкорлиги қуйидагилар томонидан амалга оширилади:

Туркменистон томонидан — Туркменистон МВ ФМҚИББФВҚИБ (744000, Ашхобод ш., Галкыныш кўчаси, 4-уй) тезкор навбатчи — телефон:

+99312409911, +99312409912; факс: +99312409525; e-mail: cdrod.tkm@gmail.com;

Ўзбекистон томонидан — Ўзбекистон Республикаси ФВВ ФВБММ (100084, Тошкент ш., Кичик ҳалқа йўли кўчаси, 4-уй) тезкор навбатчи — телефон: +998712348720, +998712391685; факс: +998711506299; e-mail: odcuks(@fvv.uz.

Ўзбекистон Республикаси ФВВ ФВБММ ва Туркменистон МВ ФМҚИБ-БФВҚИБ ўзгаришлар юзага келишига қараб, масъул вакиллар, ўзаро ҳам-корликни амалга ошириш бўйича алоқада бўлган шахслар ва ВКА ташкил этиш бўйича техник мутахассислар рўйхатларини алмашадилар.

ПРОТОКОЛ
между Правительством Республики Узбекистан и
Правительством Туркменистана о внесении дополнения в
Соглашение о сотрудничестве в области предупреждения
чрезвычайных ситуаций и ликвидации их последствий

Ташкент, 17 ноября 2025 года

*Настоящее Соглашение утверждено постановлением
Президента Республики Узбекистан от 6 апреля 2026 года № ПП-126
«Об утверждении международного договора»*

(Вступил в силу для Республики Узбекистан с 15 апреля 2026 года)

Правительство Республики Узбекистана и Правительство Туркменистана, в дальнейшем именуемые Сторонами,
в соответствии со статьей 16 Соглашения между Правительством Республики Узбекистан и Правительством Туркменистана о сотрудничестве в области предупреждения чрезвычайных ситуаций и ликвидации их последствий от 25 ноября 2013 года (далее — Соглашение),
выражая стремление к дальнейшему развитию сотрудничества в области предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций между двумя государствами,

согласились о нижеследующем:

Статья 1

Стороны договорились дополнить Соглашение Инструкцией по взаимодействию и обмену информацией между Национальным центром управления при чрезвычайных ситуациях Министерства по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан и Управлением по чрезвычайным ситуациям и спасательных работ Главного управления гражданской обороны и спасательных работ Министерства обороны Туркменистана, которая является приложением к настоящему Протоколу.

Статья 2

Настоящий Протокол является неотъемлемой частью Соглашения и вступает в силу в порядке, предусмотренном статьей 17 Соглашения.

Настоящий Протокол прекращает свое действие с момента прекращения действия Соглашения.

Совершено в городе Ташкент 17 ноября 2025 года в двух экземплярах, каждый на узбекском, туркменском и русском языках, причем все тексты имеют одинаковую силу.

В случае возникновения разногласий в толковании положений настоящего Протокола Стороны будут обращаться к тексту на русском языке.

(подписи)

ПРИЛОЖЕНИЕ
к Протоколу о внесении дополнения
в Соглашение о сотрудничестве в области
предупреждения и ликвидации
чрезвычайных ситуаций

ИНСТРУКЦИЯ
по взаимодействию и обмену информацией между
Национальным центром управления при чрезвычайных
ситуациях Министерства по чрезвычайным ситуациям
Республики Узбекистан и Управлением по чрезвычайным
ситуациям и спасательных работ Главного управления
гражданской обороны и спасательных работ Министерства
обороны Туркменистана

1. Общие положения

1.1. Инструкция организации взаимодействия и обмена информацией между Национальным центром управления при чрезвычайных ситуациях Министерства по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан (далее — НЦУЧС МЧС Республики Узбекистан) и Управлением по чрезвычайным ситуациям и спасательных работ Главного управления гражданской обороны и спасательных работ Министерства обороны Туркменистана (далее — УЧСиСРГУГОиСРМО Туркменистана) разработана в целях организации определения порядка обмена информацией и взаимодействия в случае угрозы или возникновения чрезвычайных ситуаций на трансграничных территориях, а также в целях совместного оперативного реагирования на них.

1.2. Основными формами информационного взаимодействия дежурных смен НЦУЧС МЧС Республики Узбекистан и УЧСиСРГУГОиСРМО Туркменистана (далее — ДС) являются передача и прием оперативной информации об угрозе или возникновении чрезвычайных ситуациях природного, техногенного и экологического характера на приграничных территориях государств Сторон.

2. Порядок информационного обмена

2.1. Обмен информацией осуществляется между НЦУЧС МЧС Республики Узбекистан и УЧСиСРГУГОиСРМО Туркменистана.

2.2. ДС обмениваются информацией о возникновении (угрозе возникновения) чрезвычайных ситуаций (о ходе их развития, принимаемых мерах по ликвидации) на территории Республики Узбекистан и Туркменистана:

- о выбросе опасных веществ на территорию сопредельного государства;
- о радиационной аварийной ситуации, а также инцидентах, происходящих во время перевозки (эксплуатации) ядерного, радиационного материала или в случае его хранения;

- о возникновении или угрозе возникновения негативных последствий изменений состояния суши (почвы, недр), состава и свойств атмосферы (воз-

душной среды), состояния гидросферы (водохранилищ, водотоков, высокое загрязнение поверхности и подземных вод, повышение уровня грунтовых вод);

о возникновении пожаров в природных экосистемах на своей или на территории сопредельного государства;

о гражданах государств (установочные сведения), которые пропали без вести на своей или на территории другого государства;

о подготовке к действиям по предупреждению чрезвычайных ситуаций, проведении аварийно-спасательных и других работ по их ликвидации, а также первоочередному жизнеобеспечению пострадавшего населения;

о готовности сил и средств, которые могут оперативно привлекаться для проведения аварийно-спасательных работ (при получении соответствующего запроса);

о других чрезвычайных ситуациях и происшествиях (по согласованию).

2.3. Одним из направлений по повышению навыков взаимодействия ДС является участие в проводимых совместных учениях с привлечением территориальных ДС.

2.4. При получении информации, указанной в пункте 2.2. немедленно обоюдно информируются ДС.

Передаваемая информация ДС, соответственно предварительно согласуется с руководством ведомства.

3. Основные требования к организации информационного обмена

3.1. Обмен информацией и уточнение складывающейся обстановки по чрезвычайным ситуациям (происшествиям) осуществляются в круглосуточном режиме на русском языке, с использованием действующих информационно-коммуникационных ресурсов и каналов связи (телефон, факс, электронная почта, телеграмм, видеоконференцсвязь (ВКС) и др.), а также по сети общего пользования Интернет.

3.2. При изменении порядка информационного обмена между ДС, способа и формата передачи данных, решения по обеспечению передачи информации и способам ее защиты согласовываются соответствующими техническими специалистами в рабочем порядке, утверждаются дополнением к данной Инструкции.

4. Реквизиты органов оперативного управления

4.1. Информационное взаимодействие, позволяющее в минимальные сроки получать все необходимые и достоверные сведения в отношении запрашиваемой необходимой служебной информации осуществляется:

От Туркменской стороны — УЧСиСРГУГОиСРМО Туркменистана (744000, г. Ашхабад, ул. Галкыныш, оперативный дежурный-телефоны:

+99312409911, +99312409912; факс: +99312409525; e-mail: cdrod.tkm@gmail.com;

От Узбекской стороны — НЦУЧС МЧС Республики Узбекистан (100084, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, оперативный дежурный-телефоны: +998712348720, +998712391685; факс: +998711506299; e-mail: odcuks@fvv.uz.

4.2. НЦУЧС МЧС Республики Узбекистан и УЧСиСРГУГОиСРМО Туркменистана по мере возникновения изменений, обмениваются списками ответственных представителей, контактных лиц по осуществлению взаимодействия и технических специалистов по организации ВКС.

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Iordaniya Hoshimiylar
Podshohligi Hukumati o‘rtasidagi investitsiyalarni o‘zaro
rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida
BITIM**

Samarqand, 2025-yil 26-avgust

*Mazkur Bitim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-martdagi
«Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ–93-sonli qaroriga muvofiq
tasdiqlangan*

(O‘zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 15-apreldan kuchga kirgan)

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Hukumati, keyingi o‘rinlarda “Ahdlashuvchi Tomonlar” deb ataluvchilar,

o‘zaro manfaatli shartlarda investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish bo‘yicha ikki mamlakat o‘rtasida keng iqtisodiy hamkorlikka ko‘maklashish istagida,

ushbu Bitim asosida investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish sarmoya va texnologiyalar kirib kelishiga turtki bo‘lishi hamda o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga ko‘mak berishini tan olgan holda,

investitsiyalarga nisbatan adolatli va teng huquqli rejim ular uchun barqaror muhitni ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lib, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga hissa qo‘shishi va turmush darajasini yaxshilashini tasdiqlagan holda,

bu maqsadlarga sog‘liqni saqlash, xavfsizlik va atrof-muhit bo‘yicha umumiy qo‘llaniladigan choralarga, shuningdek, xalqaro tan olingan mehnat huquqlariga daxl qilmagan holda erishish mumkinligiga ishonch bildirib,

investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida bitim tuzishga qaror qilgan holda,

quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

1-modda

Ta’riflar

Mazkur Bitim maqsadlarida:

1. “Investitsiya” atamasi Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida davomiy iqtisodiy aloqalar o‘rnatish maqsadida uning qonunchiligiga muvofiq qo‘lga kiritilgan va investitsiya xususiyatlariga ega bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq har qanday turdagi aktivni anglatadi hamda quyidagilarni o‘z ichiga oladi, biroq bu bilan cheklanib qolmaydi:

(a) ko‘char va ko‘chmas mulk, shuningdek, ipoteka, lizing, garov hamda hududida mulk joylashgan Ahdlashuvchi Tomon davlati qonunchiligiga muvofiq belgilangan shunga o‘xshash har qanday boshqa huquqlar;

(b) reinvestitsiya qilingan daromadlar;

(c) pul mablag‘lari yoki investitsiyalar bilan bog‘liq iqtisodiy qiymatga ega har qanday boshqa huquqlar bo‘yicha talablar;

(d) ulushlar, qimmatli qog'ozlar yoki kompaniyalarda ishtirok etishning har qanday boshqa shakllari;

(e) sanoat va intellektual mulk huquqlari, shu jumladan, patentlar, sanoat namunalari, texnik jarayonlar, tovar belgilari, ishchanlik nufuzi (gudvill) va nou-xau;

(f) har bir Ahdlashuvchi Tomon davlatining qonunchiligiga muvofiq yoki shartnoma asosida qo'lga kiritilgan tadbirkorlik konsessiyalari imtiyozlari, shu jumladan, tabiiy resurslar bilan bog'liq konsessiyalar imtiyozlar.

Qo'shimcha aniqlik uchun, mazkur Bitim maqsadlarida investitsiya faqatgina bir Ahdlashuvchi Tomon davlati hududidan boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga tovarlar sotish yoki xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tijorat shartnomalari yuzasidan kelib chiqadigan pul mablag'lariga doir da'volarni yoxud Ahdlashuvchi Tomonga yoki davlat korxonasiga beriladigan qarzni, bank akkreditividan yoki savdoni moliyalashtirish kabi tijorat faoliyati bilan bog'liq kreditni kengaytirishdan kelib chiqadigan pul mablag'lariga nisbatan talablar hisoblanadigan aktivlarni o'z ichiga olmaydi.

Qo'shimcha aniqlik uchun, mazkur Bitim maqsadlarida "investitsiya" tushunchasi" quyidagi aktivlarni o'z ichiga olmaydi: bir Ahdlashuvchi Tomon davlati hududidan boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga tovarlar savdosi yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tijorat shartnomalari yuzasidan kelib chiqadigan pul mablag'lariga doir da'volar; Ahdlashuvchi Tomonga yoki davlat korxonasiga berilgan qarz; bank akkreditivi yoki tijorat operatsiyalari bilan bog'liq kredit

Mazkur Bitim doirasida investitsiya sifatida tavsiflanishi uchun aktivlar sarmoya yoki boshqa resurslarni sarflash majburiyati, foyda yoki daromad olishni kutish, tavakkalchilik qilish, qabul qiluvchi Ahdlashuvchi Tomon taraqqiyoti uchun ahamiyatga ega bo'lish kabi investitsiya xususiyatlarini o'zida aks ettirishi lozim.

2. "Investor" atamasi boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga investitsiya qilgan quyidagi shaxslarni anglatadi:

(a) bir Ahdlashuvchi Tomon davlatining qonunchiligiga muvofiq uning fuqarosi bo'lgan jismoniy shaxs;

(b) bir Ahdlashuvchi Tomon davlatining qonunchiligiga muvofiq tuzilgan yoki ta'sis etilgan hamda uning hududida joylashgan va tijorat faoliyatining sezilarli qismi ushbu Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida bo'lgan yuridik shaxs.

3. "Daromadlar" atamasi investitsiya yoki reinvestitsiyadan olingan mablag'larni, shu jumladan, foyda, foizlar, sarmoyalarning o'sishidan keladigan foyda, royalti, mukofotlar va dividendlarni anglatadi, biroq bu bilan cheklanib qolmaydi.

4. "Hudud" quyidagilarni anglatadi:

(a) O'zbekiston Respublikasiga nisbatan, hudud, shu jumladan, quruqlikdagi hudud, ichki suvlar, hududiy dengiz va ular ustidagi samoviy hudud, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq va o'z milliy qonunchiligiga muvofiq dengiz tubi, yer osti va dengiz usti suv resurslarini tadqiq qilish va ekspluatatsiya qilish uchun suveren huquqlarga ega bo'lgan hududiy dengizdan tashqaridagi har qanday hudud.

(b) Iordaniya Hoshimiylar Podshohligiga nisbatan, hudud, shu jumladan, quruqlikdagi hudud, ichki suvlar va hududiy dengiz, shuningdek ular ustidagi havo bo'shlig'i, shuningdek uning hududiy dengizidan tashqaridagi har qanday hudud, uning doirasida Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi xalqaro huquq va uning milliy qonunchiligiga muvofiq dengiz tubi va uning yer osti boyliklarini, shuningdek tegishli suv resurslarini qidirish va ulardan foydalanish bo'yicha suveren huquqlarga ega.

5. "Har bir Ahdlashuvchi Tomon davlatining qonunchiligi" har bir Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida yuridik majburiy xususiyatga ega bo'lgan qonunlar, nizomlar, qoidalar, farmon va qarorlarni anglatadi.

2-modda

Qo'llanilish sohasi

Mazkur Bitim bir Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga uning qonunchiligiga muvofiq, boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlari tarafidan mazkur Bitim kuchga kirgunga qadar yoki undan keyin amalga oshirilgan investitsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Biroq, ushbu Bitim uning kuchga kirish sanasidan oldin vujudga kelgan har qanday investitsiyalarga oid nizolarga yoki sodir bo'lgan har qanday harakat yoxud faktga yoki ungacha yakunlangan har qanday holatga nisbatan qo'llanilmaydi.

3-modda

Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z qonunchiligiga muvofiq o'z davlati hududida boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlari investitsiyalarini imkon qadar rag'batlantiradi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z davlati hududida boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlari amalga oshirgan investitsiyalarga nisbatan o'z qonunchiligiga muvofiq to'liq himoya va xavfsizlikni hamda adolatli va teng huquqli rejim taqdim etilishini ta'minlaydi. Hech bir Ahdlashuvchi Tomon o'z davlati hududida boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlarining investitsiyalarini boshqarish, saqlash, ulardan foydalanish, ularni amalga oshirish, kengaytirish, sotish, tugatish yoki tasarruf etishga kamsituvchi choralar ko'rish orqali biror bir tarzda to'sqinlik qilmaydi.

4-modda

Investitsiyalar rejimi

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z qonunchiligi doirasida investitsiyalarni har qanday uchinchi davlat investorlarining investitsiyalariga shu kabi vaziyatlarda taqdim qilingandan kam bo'lmagan qulay asoslarda o'z davlati hududiga kiritadi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomon ushbu kiritilgan investitsiyalarga ularni boshqarish, saqlash, ulardan foydalanish, ularni yuritish, ishlatish, kengaytirish, sotish, tugatish yoki tasarruf etishga nisbatan o'z investorlarining yoki har

qanday uchinchi davlat investorlarining investitsiyalariga shu kabi vaziyatlarda taqdim qilingan rejimlardan qay biri eng qulay bo'lsa, undan kam bo'lmagan qulay rejimni taqdim etadi.

3. (a) Mazkur modda qoidalari Ahdlashuvchi Tomonlardan biriga soliqqa tortishga to'liq yoki qisman taalluqli bo'lgan xalqaro shartnoma yoki kelishuvlarga muvofiq, beriladigan har qanday rejim, preferensiya va imtiyozlarni boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlariga nisbatan tatbiq qilish bo'yicha majburiyat yuklaydi deb talqin qilinmasligi lozim.

(b) Mazkur Bitimning kamsitmaslik, milliy rejim va eng qulay rejim to'g'risidagi qoidalari Ahdlashuvchi Tomonlarning bojxona ittifoqi, iqtisodiy yoki valyuta ittifoqi, umumiy bozor yoxud erkin savdo zonasiga a'zoligidan yoki ular bilan bog'liqligi tufayli kelib chiqadigan hamda o'zining yoxud bunday ittifoqlar, umumiy bozor yoki erkin savdo zonasiga a'zo-davlatlarning fuqarolari va kompaniyalariga taqdim qilinadigan barcha amaldagi yoki kelgusidagi afzalliklarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(c) Mazkur Bitimning eng qulay rejim to'g'risidagi qoidalari bir Ahdlashuvchi Tomon bilan boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlari o'rtasidagi nizolarni hal etishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(d) Mazkur Bitimning 3- va 4-moddalari qoidalari bir Ahdlashuvchi Tomonga o'z investorlarining investitsiyalariga nisbatan yer va ko'chmas mulkka egalik qilish hamda ularga bo'lgan ashyoviy huquqlar yuzasidan taqdim etiladigan rejimni boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlari investitsiyalariga bir xilda taqdim qilish majburiyatini yuklamaydi.

5-modda

Umumiy istisnalar

1. Mazkur Bitimdagi hech bir qoida biror Ahdlashuvchi Tomonning kamsitishni nazarda tutmaydigan har qanday huquqiy choralarni qabul qilishi, qo'llab-quvvatlashi yoki tatbiq etishiga to'sqinlik qiladigan tarzda talqin qilinmasligi lozim, basharti ular:

(a) inson, hayvonot yoki o'simliklar hayoti va sog'lig'i yoxud atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan bo'lsa;

(b) jonli va jonsiz tugaydigan tabiiy resurslarni saqlash bilan bog'liq bo'lsa.

2. Mazkur Bitimda hech bir qoida quyidagicha talqin qilinmasligi lozim:

(a) bir Ahdlashuvchi Tomondan u oshkor qilish o'zining muhim xavfsizlik manfaatlariga zid deb hisoblagan har qanday ma'lumotlarni taqdim etishni yoki ularga ega bo'lishga ruxsat berishni talab qilish;

(b) bir Ahdlashuvchi Tomonga u o'zining muhim xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur deb hisoblagan har qanday harakatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilish, basharti bunday harakatlar:

(i) qurollar, o'q-dorilar va urush vositalarining noqonuniy muomalasiga hamda harbiy yoki xavfsizlik tuzilmalarini bevosita yoki bilvosita ta'minlash maqsadida bajarilayotgan boshqa tovarlar, materiallar, xizmatlar va texnologiyalarning noqonuniy muomalasi va operatsiyalariga nisbatan amalga oshirilayotgan bo'lsa;

(ii) xalqaro munosabatlarda urush yoki boshqa favqulodda vaziyatlar vaqtida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

(iii) yadroviy qurollar yoki boshqa yadroviy portlovchi qurilmalarni tarqatmaslik bo'yicha milliy siyosat yoxud xalqaro bitimlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa;

(iv) noqonuniy faoliyatga nisbatan amalga oshirilayotgan bo'lsa;

(c) bir Ahdlashuvchi Tomonni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi doirasidagi majburiyatlari bo'yicha harakatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan sifatida.

3. Bunday choralarni qabul qilish, qo'llab-quvvatlash yoki tatbiq etish asossiz tarzda amalga oshirilmasligi yoxud boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlarining investitsiyalariga nisbatan yashirin cheklovdan iborat bo'lmisligi lozim.

6-modda

Ekspropriatsiya va kompensatsiya

1. Investitsiyalar ekspropriatsiya qilinmaydi, davlat mulkiga aylantirilmaydi yoki o'xshash oqibatlariga olib keladigan boshqa choralar (keyingi o'rinlarda — "ekspropriatsiya") ularga nisbatan bevosita yoxud bilvosita qo'llanilmaydi, kamsitilmaydigan tarzda tezkor, mutanosib va samarali kompensatsiya to'lovini amalga oshirgan holda qonunda belgilangan tartibda va ushbu Bitimning moddasida ko'rsatilgan rejimlarning umumiy tamoyillariga muvofiq jamoat maqsadlarida amalga oshiriladigan choralar bundan mustasno.

2. Sog'liqni saqlash, xavfsizlik va atrof-muhit kabi jamoat farovonligi qonuniy maqsadlarini himoya qilish uchun ishlab chiqiladigan va qo'llaniladigan kamsituvchi bo'lmagan huquqiy choralar bilvosita ekspropriatsiya deb hisoblanmaydi.

3. Kompensatsiya to'lovi investitsiyaning ekspropriatsiya qilinishidan yoki bu haqda ommaga ma'lum bo'lishidan oldin belgilangan bozor qiymatiga teng bo'lishi lozim. Kompensatsiya to'lovi o'z vaqtida amalga oshirilishi va 8-moddaning 2-bandida belgilangan tartibda o'tkazish uchun erkin bo'lishi lozim.

4. Kompensatsiya to'lovi erkin ayirboshlanadigan valyutada to'lanishi kerak va kompensatsiya to'lash kechiktirilgan taqdirda, ekspropriatsiya qilingan kundan boshlab to'lov sanasigacha bo'lgan tijorat nuqtai nazaridan oqilona foiz stavkasini o'z ichiga oladi.

7-modda

Zararlarni qoplash

1. Bir Ahdlashuvchi Tomon investorlariga ularning investitsiyalari boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida ro'y bergan urush yoki qurolli to'qnashuv, inqilob, qo'zg'alon, ommaviy tartibsizlik yoxud shu kabi boshqa vaziyatlar oqibatida zarar ko'rgan taqdirda, mazkur zararlarni yuzasidan ushbu boshqa Ahdlashuvchi Tomon qabul qiladigan har qanday choralarga nisbatan o'z investorlariga yoki uchinchi davlat investorlariga taqdim qilingan rejimlardan qay biri eng qulay bo'lsa, undan kam bo'lmagan qulay rejim taqdim etiladi.

2. Mazkur moddaning 1-bandiga daxl qilmagan holda, bir Ahdlashuvchi

Tomon investorlari yuqorida ko'rsatilgan bandda belgilangan vaziyatlardan birida boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida:

(a) uning qurolli kuchlari yoki organlari tomonidan mulklari rekvizitsiya qilinishi oqibatida zarar ko'rsa;

(b) uning qurolli kuchlari yoki organlari tomonidan mulklarining yo'q qilinishi natijasida zarar ko'rsa va bu harbiy harakatlarda sodir bo'lmasa yoki vaziyat taqozosi bilan talab etilgan bo'lmasa;

investorlarga tezkor, mutanosib va samarali restitutsiya yoki kompensatsiya ta'minlanadi. Amalga oshiriladigan to'lovlar erkin ayirboshlanadigan bo'lishi lozim.

8-modda

Repatriatsiya va pul o'tkazmalari

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z davlati qonunchiligiga muvofiq tegishli soliq va yig'imgarlik to'lovi amalga oshirilgandan so'ng boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlariga o'z davlati hududida va undan tashqariga investitsiyalar bilan bog'liq barcha pul o'tkazmalarini erkin va o'z vaqtida amalga oshirilishini vijdonan kafolatlaydi. Bunday o'tkazmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

(a) investitsiyani saqlash yoki ko'paytirish uchun boshlang'ich va qo'shimcha sarmoyalar;

(b) ushbu Bitimning 1-moddasi 3-bandida belgilangan Daromadlar;

(c) investitsiyaning to'liq yoki bir qismini sotishdan yoxud likvidatsiya qilishdan olinadigan tushumlar;

(d) ushbu Bitimning 6- va 7-moddalariga muvofiq kompensatsiya to'lovlari;

(e) investitsiyalar bilan bog'liq qarzlardan kelib chiqadigan xarajatlarni qoplash va foiz to'lovlari;

(f) bir Ahdlashuvchi Tomon davlatining boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga kiritilgan investitsiyalar bilan bog'liq faoliyatlarga jalb etilgan va ushbu davlat hududida tegishli ish ruxsatnomalariga ega bo'lgan fuqarolari oladigan oylik maoshi, ish haqi va boshqa to'lovlar.

2. Pul o'tkazmalari dastlab kiritilgan investitsiyaning ayirboshlanadigan valyutasida yoki basharti investor bilan qabul qiluvchi Ahdlashuvchi Tomon o'rtasida boshqacha kelishuvga erishilmagan bo'lsa, pul o'tkazish sanasida amalda bo'lgan ayirboshlash kursi bo'yicha har qanday boshqa ayirboshlanadigan valyutada amalga oshirilishi lozim.

3. Yuqoridagi 1- va 2-bandlardan qat'i nazar, bir Ahdlashuvchi Tomon quyidagilar bilan bog'liq o'z davlati qonunchiligini odilona, kamsitmagan holda va vijdonan qo'llash orqali pul o'tkazmalarini kechiktirishi yoxud to'xtatishi mumkin:

(a) bankrotlik, to'lovga qobiliyatsizlik yoki kreditorlar huquqlarini himoya qilish;

(b) qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish, ularning savdosi yoki ular bilan shug'ullanish;

(c) jinoyat va javobgarlikka tortiladigan qilmishlar;

(d) sud muhokamasi jarayonlarida sud buyruqlari yoki qarorlariga rioya etilishini ta'minlash.

9-modda **Subrogatsiya**

1. Basharti Ahdlashuvchi Tomonlardan biri o'z investorlarining investitsiyalarini notijorat xavflardan himoya qilish maqsadida umumiy sug'urta yoki kafolat tizimiga ega bo'lsa hamda ushbu Ahdlashuvchi Tomon investori unga qo'shilgan bo'lsa, mazkur investor va sug'urtalovchi o'rtasidagi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga tegishli har qanday subrogatsiya boshqa Ahdlashuvchi Tomon tarafidan tan olinishi lozim.

2. Sug'urtalovchi subrogatsiya asosida investor huquqlarini amalga oshirish va talablarining bajarilishini ta'minlash vakolatiga ega bo'ladi hamda investitsiyalar bilan bog'liq majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Subrogatsiya asosida taqdim qilingan huquq yoki talablar investorning dastlabki huquq yoki talablaridan oshib ketmasligi lozim.

3. Ahdlashuvchi Tomon va sug'urtalovchi o'rtasidagi nizolar ushbu Bitimning 10-moddasi qoidalariga muvofiq hal etiladi.

10-modda **Bir Ahdlashuvchi Tomon bilan boshqa Ahdlashuvchi Tomon** **investorlari o'rtasidagi nizolarni hal qilish**

1. Mazkur modda bir Ahdlashuvchi Tomon bilan boshqa Ahdlashuvchi Tomon investorlari o'rtasida investorning birinchi Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga kiritgan investitsiyasiga oid nizolarga, shu jumladan, investor yoki uning investitsiyasiga yo'qotish yoki zarar keltirishga sabab bo'ladigan mazkur Ahdlashuvchi Tomonning ushbu Bitim doirasidagi o'z majburiyatlarini bajarmasligi bilan bog'liq nizolar, shuningdek, ushbu Bitimning 6- va 7-moddalariga muvofiq kompensatsiya to'lovi miqdori, shartlari yoki tartibi hamda ushbu Bitimning 8-moddasida nazarda tutilgan pul o'tkazmalari bilan bog'liq nizolarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Mazkur modda nizolashuvchi investor investitsiya kiritilgan Ahdlashuvchi Tomon davlati fuqaroligiga ega bo'lgan holatlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

3. Bir Ahdlashuvchi Tomon bilan boshqa Ahdlashuvchi Tomon investori o'rtasida uning investitsiyalariga oid nizolar haqida investor tomonidan batafsil ma'lumotlar keltirilgan holda investitsiyani qabul qiluvchi Ahdlashuvchi Tomonga yozma shaklda xabar qilinishi lozim. Investor va manfaatdor Ahdlashuvchi Tomon bunday nizolarni maslahatlashuv va muzokaralar yo'li bilan imkon qadar va vijdonan hal etishga intilishlari lozim.

4. Basharti ushbu nizolarni 3-bandda nazarda tutilgan yozma xabarnoma sanasidan so'ng olti (6) oy davomida muzokaralar bilan hal etishning imkoni bo'lmasa, nizolar investorning tanloviga ko'ra quyidagilardan biriga topshiriladi:

(a) o'z hududida investitsiya amalga oshirilgan Ahdlashuvchi Tomon davlatining vakolatli sudiga;

(b) Davlatlar bilan boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari o'rtasidagi investitsiyaga doir nizolarni hal qilish bo'yicha Konvensiyaga muvofiq

ta'sis etilgan Investitsiyaga oid nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro markazga (ICSID);

(c) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) Arbitraj qoidalariga muvofiq tuzilgan "ad hoc" arbitraj tribunaliga;

(d) nizolashuvchi tomonlar o'rtasida kelishuvga erishilgan taqdirda, har qanday boshqa arbitraj institutiga yoki arbitraj qoidalariga.

5. Qabul qiluvchi Ahdlashuvchi Tomon nizolashuvchi investordan nizoni xalqaro arbitrajga topshirishdan oldin ushbu Ahdlashuvchi Tomon davlati qonunchiligida belgilangan ichki ma'muriy ko'rib chiqish protseduralariga murojaat etishni talab qilish huquqiga ega. Har qanday holatda bu mazkur ko'rib chiqish protseduralari tugallangan yoki tugallanmaganligidan qat'i nazar, nizolashuvchi investorga ushbu moddaning 4-bandida nazarda tutilgan sudlardan biriga murojaat qilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Basharti nizo 4-bandga muvofiq Ahdlashuvchi Tomon davlatining vakolatli sudiga topshirilgan bo'lsa, investor bir vaqtning o'zida xalqaro arbitrajga murojaat qilishga haqli emas.

6. Investor mazkur moddaning 4-bandida ko'rsatilgan nizolarni hal qilish sudlaridan biriga yoki boshqasiga nizoni topshirgandan so'ng ushbu sudlardan birini tanlash yakuniy hisoblanadi.

7. Basharti investor nizoni keltirib chiqargan vaziyatlar haqida birinchi marotaba bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan sanadan besh (5) yil o'tgan bo'lsa, nizo xalqaro arbitrajga topshirilishi mumkin emas.

8. Faqatgina qabul qiluvchi Ahdlashuvchi Tomon davlati qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilgan va samarali boshlangan investitsiyadan bevosita kelib chiqadigan nizolar ICSID yoki mazkur moddaning 4-bandi doirasida kelishilgan har qanday boshqa xalqaro nizolarni hal etish mexanizmi yurisdiksiyasiga taalluqli bo'ladi.

9. Arbitraj tribunali o'z qarorlarini ushbu Bitim qoidalariga, hududiga investitsiya kiritilgan nizoda ishtirok etuvchi Ahdlashuvchi Tomon davlatining qonunchiligiga (shu jumladan, uning qonunlar kolliziyasiga oid qoidalariga) hamda ikkala Ahdlashuvchi Tomonlar tan olgan xalqaro huquqning tegishli prinsiplariga muvofiq qabul qiladi.

10. Arbitraj qarorlari nizoda ishtirok etuvchi barcha tomonlar uchun yakuniy va majburiy hisoblanadi. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z davlati milliy qonunchiligiga muvofiq mazkur qarorni ijro etishi shart.

11. Investor bilan qabul qiluvchi Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida davlat ulushi kam miqdorda bo'lgan yuridik shaxs o'rtasidagi har qanday nizo mazkur moddaning 4-bandida ko'rsatilgan vakolatli organlar tomonidan xalqaro huquqqa muvofiq davlat immuniteti prinsipi asosida ko'rib chiqiladi.

11-modda

Imtiyozlarni rad etish

1. Bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomonning kompaniyasi

hisoblanadigan investoriga va uning investitsiyalariga nisbatan ushbu Bitimda belgilangan imtiyozlarni berishda rad etishi mumkin, basharti Ahdlashuvchi Tomon hisoblanmaydigan davlat shaxslari bevosita yoki bilvosita ushbu kompaniyaga egalik qilsa yoki uni nazorat qilsa hamda rad etuvchi Ahdlashuvchi Tomon ushbu Ahdlashuvchi Tomon hisoblanmaydigan davlatga yoki uning shaxslariga nisbatan kompaniya bilan bitimlar tuzishni taqiqlovchi yoki ushbu Bitim imtiyozlari kompaniya yoki uning investitsiyalariga berilgan taqdirda buzilishi yoki chetlab o'tilishi mumkin bo'lgan choralarni qabul qilgan yoki qo'llab turgan bo'lsa.

2. Rad etuvchi Ahdlashuvchi Tomon imtiyozlarni berishda rad etishdan oldin boshqa Ahdlashuvchi Tomonni imkon qadar xabardor etishi lozim.

12-modda

Ahdlashuvchi Tomonlari o'rtasidagi nizolarni hal etish

1. Ahdlashuvchi Tomonlar mazkur Bitimni talqin etish yoki qo'llash bilan bog'liq nizolarni vijdonan va hamkorlik ruhida tez va odilona hal etishga intiladilar. Shu munosabat bilan, Ahdlashuvchi Tomonlar bu tarzda hal qilishga erishish uchun bevosita va konstruktiv muzokaralar o'tkazishga kelishib oldilar. Basharti Ahdlashuvchi Tomonlar bir-birlari o'rtasidagi nizolar boshlangan vaqtdan so'ng olti (6) oy mabaynida yuqorida belgilangan protseduralar orqali kelishuvga erisha olmasalar, nizolar Ahdlashuvchi Tomonlardan birining talabi asosida uchta a'zodan iborat bo'lgan arbitraj tribunaliga topshirilishi mumkin.

2. Talab qabul qilingandan boshlab ikki (2) oy mobaynida har bir Ahdlashuvchi Tomon bittadan hakam tayinlaydi. Basharti Ahdlashuvchi Tomonlardan biri belgilangan muddat ichida hakamni tayinlay olmasa, boshqa Ahdlashuvchi Tomon Xalqaro sud Prezidentidan ushbu tayinlovni amalga oshirishni so'rashi mumkin.

3. Ushbu ikki hakam Rais sifatida uchinchi davlat fuqarosi bo'lgan uchinchi hakamni tayinlaydilar. Basharti ikkala hakam ular tayinlanganidan so'ng ikki (2) oy mobaynida Raisni tayinlash bo'yicha kelishuvga erisha olmasalar, Rais Ahdlashuvchi Tomonlardan birining so'roviga muvofiq Xalqaro sud Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

4. Agar ushbu moddaning 2- va 3-bandlarida nazarda tutilgan holatlarda Xalqaro sud Prezidenti ushbu vazifani bajarish imkoniga ega bo'lmasa yoki u Ahdlashuvchi Tomonlardan birining fuqarosi bo'lsa, Xalqaro sud Vitse-prezidenti tayinlovni amalga oshiradi, basharti Vitse-prezident ham ushbu vazifani bajarish imkoniga ega bo'lmasa yoki u Ahdlashuvchi Tomonlardan birining fuqarosi bo'lsa, tayinlov Ahdlashuvchi Tomonlarning fuqarosi bo'lmagan Xalqaro sudning eng katta a'zosi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Tribunal Rais tayinlanganidan boshlab uch (3) oy mobaynida ushbu Bitim qoidalariga muvofiq bo'lgan tartib-qoidalarni kelishib oladi. Bunday kelishuv mavjud bo'lmasa, tribunal xalqaro arbitraj protseduralarining umum tan olingan qoidalarini hisobga olgan holda tartib-qoidalarni ishlab chiqishni so'rab Xalqaro sud Prezidentiga murojaat qiladi.

6. Agar boshqacha tarzda kelishilmagan bo'lsa, hujjatlarni topshirish va ishni ko'rib chiqish Rais tayinlangan sanadan boshlab sakkiz (8) oy mobaynida yakunlanishi lozim hamda tribunal qay biri keyinroq bo'lishiga qarab, oxirgi hujjat topshirilganidan yoki ishni ko'rish yakunlanganidan boshlab ikki (2) oy mobaynida o'z qarorini qabul qiladi. Arbitraj tribunali qarorlari yakuniy va majburiy hisoblanib, ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Arbitraj tribunali o'z qarorlarini mazkur Bitim va Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida qo'llaniladigan xalqaro huquq normalariga muvofiq qabul qiladi.

7. Rais va boshqa hakamlar tomonidan amalga oshirilgan sarf-xarajatlar hamda sud jarayonlari bilan bog'liq boshqa chiqimlar Ahdlashuvchi Tomonlar tarafidan teng tarzda qoplanadi. Biroq, tribunal lozim topgan taqdirda, xarajatlarning ko'proq qismini Ahdlashuvchi Tomonlardan biri tarafidan to'lanishi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

8. Basharti aynan bir xil masala yuzasidan nizo 10-modda qoidalariga muvofiq xalqaro arbitraj tribunaliga topshirilgan va hali ham tribunalda ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, nizo boshqa xalqaro arbitraj tribunaliga topshirilmaydi. Mazkur qoida Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida bevosita va konstruktiv muzokaralar o'tkazishga dahl qilmaydi.

13-modda

Bitimning kuchga kirishi

1. Mazkur Bitim Ahdlashuvchi Tomonlar uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan tegishli ichki tartib-taomillar yakunlaganliklari to'g'risida yozma ravishda diplomatik kanallar orqali so'nggi xabarnoma olingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

2. Mazkur Bitim o'n (10) yillik muddat davomida amalda bo'ladi va undan so'ng mazkur moddaning 5-bandiga muvofiq tugatilguniga qadar amal qilishda davom etadi.

3. Mazkur Bitimga Ahdlashuvchi Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra istalgan vaqtda yozma bayonnomalar orqali o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. O'zgartish va qo'shimchalar mazkur moddaning 1-bandida nazarda tutilgan aynan bir xil huquqiy protseduralarga muvofiq kuchga kiradi.

4. Ahdlashuvchi Tomonlardan biri Bitimning dastlabki o'n yillik muddati yakunlanishi bilan yoki undan so'ng istalgan vaqtda boshqa Ahdlashuvchi Tomonga bir yil oldin yozma xabarnoma berish orqali ushbu Bitimning amal qilishini tugatishi mumkin.

5. Mazkur Bitimning amal qilishi to'xtatilgan sanadan oldin amalga oshirilgan yoki sotib olingan va mazkur Bitim boshqa munosabatlarda qo'llaniladigan investitsiyalarga nisbatan mazkur Bitimning boshqa barcha moddalari qoidalari bunday to'xtatish sanasidan boshlab qo'shimcha o'n (10) yil davomida amal qilishda davom etadi.

USHBUNI TASDIQLAGAN HOLDA, quyida imzo chekkan vakillar, o'zlarining tegishli Hukumatlari tomonidan lozim tarzda vakolatlangan holda, mazkur Bitimni imzoladilar.

Samarqand shahrida 2025-yil 26-avgust kuni, ikki asl nusxada, har biri o'zbek, arab va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir.

Talqin qilishda ixtiloflar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston
Hukumati o'rtasida o'zbek — turkman chegaraoldi savdo
zonasi faoliyati to'g'risida
SHARTNOMA**

Toshkent, 2025-yil 17-noyabr

*Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 21-aprelda
"Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-155-son qarori bilan
tasdiqlangan*

(O'zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 27-apreldan kuchga kirgan)

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkmaniston Hukumati, keyingi o'rinlarda Tomonlar deb ataluvchilar,

O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasida tovar aylanmasini oshirish uchun hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida,

2021-yil 5-oktabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o'rtasida O'zbek — Turkman chegaraoldi savdo zonasi — Savdo markazi faoliyatini tashkil etish va tartibga solish to'g'risidagi Bitimga (keyingi o'rinlarda — Bitim) asoslangan holda,

yaqin qo'shniçilik aloqalarini hamda chegaraoldi savdo sohasida Tomon davlatlarning chegaraoldi hududlaridagi korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish istagida,

quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishdilar:

1-modda

Mazkur Shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

savdo markazi — ikki davlat tutash chegaraoldi hududlarida joylashgan, chegaraoldi savdo rejimiga ega bo'lgan o'zbek va turkman qismlaridan tashkil topgan O'zbek — Turkman chegaraoldi savdo zonasi;

tovar — O'zbekiston Respublikasi va Turkmanistonda ishlab chiqarilgan, muomaladan chiqarilmagan, Tomon davlatlar qonunchiligiga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan mahsulot;

nazorat-o'tkazish punkti (NO'P) — Tomon davlatlar qonunchiligiga muvofiq chegara, bojxona va boshqa nazorat turlari amalga oshiriladigan davlat chegarasi chizig'i kesishmasida maxsus tashkil etilgan joy;

xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlash organlari — o'z davlatlarining qonunchiligiga hamda o'z davlatlari a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalarga muvofiq, xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlash, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazuvchi jinoyatlar hamda boshqa xatti-harakatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish vazifalarini amalga oshiruvchi davlat organlari;

jismoniy shaxslar (shaxslar) — Tomon davlatlarning fuqarolari, shuningdek, Tomon davlatlarda qonuniy yashayotgan, Savdo markazi hududida bo'lib turgan yoki harakatlanayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

2-modda

Savdo markazining qurilishi, faoliyatini tartibga solish va boshqarish mazkur Shartnomaning predmeti hisoblanadi.

3-modda

1. Savdo markazining qurilishi Tomonlar tarafidan kelishilgan bosh rejalar va eskizlarga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Transport infratuzilmasi, suv ta'minoti, elektr ta'minoti, telekommunikatsiya, boshqa muhandislik kommunikatsiyalari, maxsus o'tish joyi (yo'lak) obyektlari, NO'P, ma'muriy va boshqa binolarni loyihalashtirish, qurish va ta'mirlash, shuningdek, Savdo markazining har bir qismi hududini o'rash ishlari har bir Tomon tarafidan mustaqil ravishda moliyalashtiriladi.

3. Savdo markazi Tomonlar davlatlarning chegaraoldi hududlarida, davlat chegarasi chizig'ining har ikki tomonida, bevosita "Shovot-avtoyo'l" (O'zbekiston Respublikasi) va "Dashoguz-avtoyo'l" (Turkmaniston) o'tkazish punktlari yaqinida joylashadi.

4. Savdo markazining o'zbek va turkman qismlari davlat chegarasi chizig'idan kamida 10 (o'n) metr masofada joylashgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasidagi davlat chegarasi orqali o'tadigan maxsus o'tish joyi (keyingi o'rinlarda — yo'lak) bilan bog'lanadi. Savdo markazini boshqarish yopiqlik sharoitida amalga oshiriladi, har bir Tomon uni o'rab olish choralari ko'radi.

5. Savdo markazining umumiy maydoni 6 gektardan iborat bo'lib, shundan Turkmaniston qismining maydoni 3 gektardan, O'zbekiston qismining maydoni 3 gektarni tashkil etadi, zarur hollarda, Tomonlar Savdo markazi maydonini alohida xalqaro shartnoma bilan kengaytirishlari mumkin.

6. Savdo markazining o'zbek va turkman qismlari o'rtasidagi qatnov yo'lak orqali amalga oshiriladi. Davlat chegarasi orqali o'tadigan yo'lakni saqlash Tomon davlatlarning tegishli organlari tarafidan birgalikda amalga oshiriladi.

7. Yo'lak bo'ylab o'tadigan va davlat chegarasi chizig'i bilan mos keluvchi chiziq Tomonlar davlatlari uchun yo'lakni qurish, uni boshqarish va saqlash uchun ajratuvchi chiziq hisoblanadi.

8. Tomonlar Savdo markazining o'zbek va turkman qismlarida shaxslar, transport vositalari va tovarlarni nazorat qilish uchun chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, fitosanitariya va nazoratning boshqa turlari xizmatlari, vakolatli kredit tashkilotlari (muassasalari) bo'limlari joylashadigan nazorat-o'tkazish punktlarini o'z davlatlari qonunchiligiga muvofiq tashkil etadilar.

9. Savdo markazi hududining geografik koordinatalari, joylashuv chizmasi va chegaralari mazkur Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovada keltirilgan.

4-modda

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar Savdo markazi hududida Tomon davlatlar

qonunchiligi bilan taqiqlanmagan savdo-iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Savdo markazi hududida faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomon davlatlarning vakolatli organlari o'zaro maslahatlashuvlar o'tkazadilar.

Tomonlar Savdo markazi faoliyatining asosiy yo'nalishlari 2021-yil 5-oktabrdagi Bitimning 2 va 4-moddalari bilan tartibga solinganligini tasdiqlaydilar.

2. Savdo markazi hududida faqat O'zbekiston Respublikasi va Turkmanistonda ishlab chiqarilgan tovarlarni olib kirish va ular bilan savdo qilish rejimi o'rnatiladi.

3. Tomonlar Savdo markazi faoliyatini ta'minlash maqsadida ishchi uchrashuvlari va qo'shma chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishning doimiy va samarali mexanizmini ishlab chiqadilar.

5-modda

1. Savdo markazi hududida soliq solish Tomon davlatlarning qonunchiligiga va ular o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Savdo markazida jismoniy shaxslar tomonidan xarid qilingan vazni 60 kg gacha bo'lgan tovarlaridan bojxona to'lovlari undirilmaydi. Ushbu cheklovlar og'irligi 60 kg va undan ortiq bo'lgan yakka tartibdagi tovarlarga, shu jumladan, maishiy texnika, mebel va shu kabilarga nisbatan qo'llanilmaydi.

6-modda

1. Savdo markazining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun obyektlar:

Savdo majmuasi (chakana savdo do'konlari);

vakolatli kredit tashkilotlari (muassasalari) va sug'urta kompaniyalari bo'linmalari, ma'muriy binolar va ofislar, savdo va turizm vakolatxonalari;

tezkor javob beruvchi ixtisoslashtirilgan punktlari (tibbiy yordam, yong'inga qarshi punkt, huquq-tartibot punktlari);

Savdo markazi faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa obyektlar.

2. Tovarlarini Savdo markaziga olib o'tish va undan olib chiqish Tomonlar davlatlarning qonunchiligiga va ikki davlat a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Savdo markaziga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan bojxona tartib-taomillarini o'tkazish har kuni amalga oshiriladi (Tomonlarning kelishuviga ko'ra, bir oyda bir marotaba sanitariya kuni belgilanadi).

3. Savdo markazi hududi doirasida shaxslar, tovarlar (yuklar) va transport vositalari erkin harakatlanadi. Savdo markazining o'zbek va turkman qismlarining ish tartibi har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha etib belgilangan.

Savdo markaziga kirish va undan chiqish "Shovot-avtoyo'l" (O'zbekiston Respublikasi) va "Toshovuz-avtoyo'l" (Turkmaniston) o'tkazish punktlarining rejim zonalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Tomonlar tarafidan tan olingan haqiqiy hujjatlar asosida ikki davlat fuqarolari va ushbu davlatlarda qonuniy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslari o'zbek va

turkman qismlari ish vaqti davomida vizasiz tartibda Savdo markaziga kirishlari va undan chiqishlari mumkin.

4. Turkmaniston fuqarolari Savdo markaziga Turkmaniston hududidan Turkmaniston fuqarolarining shaxsini tasdiqlovchi quyidagi amaldagi hujjatlardan biri asosida kirishlari mumkin:

Turkmaniston fuqarosining diplomatik pasporti;

Turkmaniston fuqarosining xizmat pasporti;

Turkmaniston fuqarosining Turkmanistondan chiqish va Turkmanistonga kirish pasporti;

Turkmaniston fuqarosi pasporti.

5. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Savdo markaziga O'zbekiston hududidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsini tasdiqlovchi quyidagi amaldagi hujjatlardan biri asosida kirishlari mumkin:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik diplomatik pasporti;

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti;

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti (2030-yil 31-dekabrgacha);

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi.

6. Bir Tomon davlatining boshqa Tomon davlati hududida qonuniy bo'lib turgan fuqarolari Savdo markazi hududiga xalqaro safarlar uchun amaldagi hujjatlardan biri asosida kirishlari mumkin.

7. Tomon davlatlarning fuqarolari hamda Tomon davlatlarda qonuniy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning Savdo markazi hududidan qaytarib yuborish ular kelgan punkt orqali amalga oshiriladi.

Tomonlar davlatlari fuqarolarini va Tomonlar davlatlarida qonuniy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni qaytarish, Savdo markazi hududidan faqat ular kelgan punkt orqali amalga oshiriladi.

8. Tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar va epizootiyalar, karantin va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simliklar va begona o'tlar kasalliklari tarqalgan taqdirda, shuningdek, huquqbuzarliklar va jinoyatlarni tergov qilishda, Tomonlar Savdo markazining qismlari o'rtasida vaqtinchalik nazoratni joriy etish yoki qatnovni to'xtatish uchun zarur inshootlarni o'rnatadilar.

9. Savdo markazi hududida shaxsni tasdiqlovchi hujjat yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda, shaxs qabul qiluvchi davlatning vakolatli organlariga murojaat qilishi kerak, ular zarurat bo'lganda boshqa Tomon davlatining vakolatli organlari bilan hamkorlikda uning shaxsini va Savdo markazi hududiga qonuniy kirganligini tasdiqlaydilar.

Savdo markazining tegishli qismi hududida yo'lovchilar va tovarlar (yuklar) ni tashish Tomonlar davlatlarining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Tomon davlatlarning chegara-nazorat xizmatlari o'rtasidagi ishchi hamkorlik uchrashuvlar va muzokaralar orqali amalga oshiriladi.

7-modda

Bojxona organlari Savdo markazi hududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlar (yuklar), shaxslarning bojxona nazoratini o'z davlatlarining

qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar. Zarur hollarda, Tomonlar o'zaro manfaatli hamkorlik uchun tovarlarni Savdo markazi hududiga olib kirish va olib chiqish bo'yicha tegishli talablarni ishlab chiqadilar.

8-modda

1. Savdo markazining o'zbek va turkman qismlari hududida har bir Tomon davlati qonunchiligiga muvofiq, valyuta ayirboshlash xizmatlari ko'rsatiladi.

2. Savdo markazining o'zbek va turkman qismlari hududida tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar to'lov amalga oshirilayotgan Tomon davlatining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

9-modda

Savdo markazi hududida sodir etilgan huquqbuzarliklar ular sodir etilgan davlat qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi va Tomonlar ko'rsatilgan huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rishda hamkorlik qiladilar.

10-modda

1. Tomonlar o'z davlatlarining qonunchiligiga muvofiq, Savdo markazi hududidagi maxsus jihozlangan joylarda tovarlar (yuklar), shaxslarga nisbatan, shuningdek, jamoat va boshqa xizmatlar sohalarida sanitariya, karantin va veterinariya nazoratining tegishli turlarini amalga oshiradilar.

2. Bir Tomon davlatining tegishli davlat organlari tarafidan Fitosanitariya, veterinariya talablari va sanitariya-epidemiologiya me'yorlariga mos kelmaydigan tovar aniqlansa, ushbu tovar eksport qiluvchi tomon tarafidan Savdo markazi hududidan darhol qaytarib yuborilishi lozim.

3. Savdo markazi hududida Tomonlar davlatlari qonunchiligi bilan taqiqlangan tovarlarni sotishga yo'l qo'yilmaydi.

Tomonlar davlatlarining vakolatli organlari o'z davlatlari hududida amaldagi cheklovlar asosida Savdo markazi hududiga olib kirish va sotish taqiqlangan tovarlar ro'yxatini diplomatik kanallar orqali almashadilar.

Tovarlar ro'yxati o'zgargan taqdirda, Tomonlar davlatlarning vakolatli organlari bu haqda bir-birlarini diplomatik kanallar orqali xabardor qiladilar.

4. Savdo markazi hududida o'simliklar karantini va veterinariya inspektorlari uchun xizmat xonalari, shuningdek, fitosanitariya va veterinariya laboratoriyalari, namunalarni saqlash xonalari tashkil etilishi mumkin.

Savdo markazi hududida qo'shimcha ravishda fumigatsiya kameralari, dezinfeksiya to'siqlari va karantin fitosanitariya va veterinariya-sanitariya nazorat turlarini ta'minlashda zarur bo'lgan boshqa vositalari joylashtirilishi mumkin.

Tomon davlatlarning tegishli organlari yuqumli kasalliklarni nazorat qilish, o'simliklar va hayvonlar karantini sohasida hamkorlikni amalga oshiradilar, shuningdek, epizootik va fitosanitar holat, epidemiologik vaziyat to'g'risida o'zaro bir-birlarini xabardor qiladilar.

11-modda

Mazkur Shartnomani talqin qilish va qo'llashda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar.

12-modda

Tomonlar kelishuviga ko'ra, mazkur Shartnomaga uning ajralmas qismi hisoblanadigan alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Tomonlar davlatlarning vakolatli organlari bir yilda kamida bir marotaba mazkur Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqadilar.

13-modda

1. Mazkur Shartnoma nomuayyan muddatga tuziladi va Tomonlar uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan davlat ichki protseduralarini bajarganliklari to'g'risida diplomatik kanallar orqali so'nggi yozma xabarnoma olingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

2. Har bir Tomon boshqa Tomonni diplomatik kanallar orqali yozma ravishda xabardor qilgan holda, mazkur Shartnomaning amal qilishini tugatishi mumkin. Ushbu hollarda mazkur Shartnomaning amal qilishi bunday xabarnoma olingan sanadan boshlab olti oy o'tgach tugatiladi.

Toshkent shahrida 2025-yil 17-noyabrda, ikki asl nusxada har biri o'zbek, turkman va rus tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega.

Mazkur Shartnoma matnlari o'rtasida tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar rus tilidagi matnga murojaat qiladilar.

(imzolar)

ДОГОВОР
между Правительством Республики Узбекистан и Правительством
Туркменистана о функционировании Узбекско — Туркменской
зоны приграничной торговли

Ташкент, 17 ноября 2025 года

*Настоящий Договор утверждено в соответствии с постановлением
Президента Республики Узбекистан от 21 апреля 2026 года № ПП–155
«Об утверждении международных договоров».*

(Вступило в силу для Республики Узбекистан с 27 апреля 2026 года)

Правительство Республики Узбекистан и Правительство Туркменистана, именуемые в дальнейшем Сторонами,

в целях дальнейшего развития сотрудничества для увеличения товарооборота между Республикой Узбекистан и Туркменистаном,

руководствуясь Соглашением между Правительством Республики Узбекистан и Правительством Туркменистана о создании и регулировании деятельности Узбекско — Туркменской зоны приграничной торговли — Торговый центр от 5 октября 2021 года (далее — Соглашение),

исходя из намерения развивать добрососедские связи и сотрудничество между предприятиями и организациями, расположенными в приграничных районах государств Сторон в области приграничной торговли,

договорились о нижеследующем:

Статья 1

В настоящем Договоре применяются следующие определения:

торговый центр — Узбекско — Туркменская зона приграничной торговли, состоящая из узбекской и туркменской частей, расположенных на приграничных сопредельных территориях двух государств, с режимом приграничной торговли;

товар — произведенный в Республике Узбекистан и Туркменистане, не изъятый из оборота продукт, предназначенный для продажи в соответствии с законодательством государств Сторон;

контрольно-пропускной пункт (КПП) — специально организованное место на пересечении линии государственной границы, в котором в соответствии с законодательством государств Сторон осуществляется пограничный, таможенный, и другие виды контроля.

органы обеспечения безопасности и охраны общественного порядка — государственные органы, осуществляющие функции по обеспечению безопасности и охране общественного порядка, предупреждению и пресечению преступлений и иных действий, наносящих ущерб правам и свободам человека, интересам общества и государства, в соответствии с законодательством своих государств и международными договорами, участниками которых являются их государства;

физические лица (лица) — граждане государств Сторон, а также лица без гражданства, законно проживающие в государствах Сторон, пребывающие или перемещающиеся на/с территории Торгового центра.

Статья 2

Предметом настоящего Договора является строительство, регулирование и управление деятельностью Торгового центра.

Статья 3

1. Строительство Торгового центра осуществляется в соответствии с согласованными Сторонами генеральными планами и эскизами.

2. Работы по проектированию, строительству и ремонту транспортной инфраструктуры, объектов водоснабжения, электроснабжения, телекоммуникаций, других инженерных коммуникаций, специального перехода (коридора), КПП, административных и других зданий, а также ограждение территории каждой части Торгового центра финансируются каждой Стороной самостоятельно.

3. Торговый центр располагается на приграничных территориях государств Сторон по обе стороны линии государственной границы, непосредственно рядом с пунктами пропуска «Шават-автодорожный» (Республика Узбекистан) и «Дашогуз-автодорожный» (Туркменистан).

4. Узбекская и туркменская части Торгового центра находятся на расстоянии не менее 10 (десять) метров от линии государственной границы и соединяются специальным переходом (далее — коридор), проходящим через государственную границу между Республикой Узбекистан и Туркменистаном. Управление Торговым центром осуществляется в условиях замкнутости, каждая Сторона примет меры для его ограждения.

5. Общая площадь Торгового центра составляет 6 га, из них площадь туркменской части составляет 3 га, площадь узбекской части — 3 га, при необходимости Стороны могут увеличить площадь Торгового центра отдельным международным договором.

6. Сообщение между узбекской и туркменской частями Торгового центра осуществляется через коридор. Содержание коридора, проходящего через государственную границу, осуществляется совместно соответствующими органами государств Сторон.

7. Линия, проходящая по коридору и совпадающая с линией государственной границы, является разделительной линией для государств Сторон при строительстве, управлении и содержании коридора.

8. Стороны в узбекской и туркменской частях Торгового центра создают КПП для контроля лиц, транспортных средств и товаров, где будут размещены службы пограничного, таможенного, санитарно-карантинного, ветеринарного, фитосанитарного и других видов контроля, отделения уполномоченных кредитных организаций (учреждений) в соответствии с законодательством своих государств.

9. Географические координаты, схема размещения и границы территории Торгового центра приведены в приложении, которое является неотъемлемой частью настоящего Договора.

Статья 4

1. На территории Торгового центра хозяйствующие субъекты могут осуществлять торгово-экономическую деятельность, не запрещенную законодательством государств Сторон.

В случае возникновения разногласий в вопросах, связанных с осуществлением деятельности на территории Торгового центра, компетентные органы государств Сторон проводят взаимные консультации.

Стороны подтверждают, что основные направления деятельности Торгового центра регламентированы статьями 2 и 4 Соглашения от 5 октября 2021 года.

2. На территории Торгового центра устанавливается режим ввоза и торговли исключительно товарами, произведенными в Республике Узбекистан и Туркменистане.

3. Стороны создают постоянный и эффективный механизм рабочих встреч и координации совместных мер с целью обеспечения деятельности Торгового центра.

Статья 5

1. Налогообложение на территории Торгового центра осуществляется в соответствии с законодательством государств Сторон и заключенными между ними международными договорами.

2. Товары, приобретенные физическими лицами в Торговом центре весом до 60 кг не подлежат обложению таможенными платежами. Данные ограничения не применяются на единичные товары весом 60 кг и более, в том числе бытовую технику, мебель и т.п.

Статья 6

1. Объекты для полноценного функционирования и развития Торгового центра:

Торговый комплекс (магазины розничной торговли);

отделения уполномоченных кредитных организаций (учреждений) и страховых компаний, административные помещения и офисы, торговые и туристские представительства;

специализированные пункты быстрого реагирования (медицинская помощь, противопожарный пункт, пункты правопорядка);

другие объекты, соответствующие деятельности Торгового центра.

2. Перемещение товаров в/из Торгового центра осуществляется в соответствии с законодательством государств Сторон и международными договорами, участниками которых являются их государства.

Проведение таможенных процедур в отношении товаров, перемещаемых в/из Торгового центра, осуществляется на ежедневной основе (по договоренности Сторон раз в месяце устанавливается один санитарный день).

3. В пределах территории Торгового центра лица, товары (грузы) и транспортные средства перемещаются свободно. Режим работы узбекской и туркменской частей Торгового центра ежедневно с 9:00 до 18:00.

Вход в Торговый центр и выход из него осуществляется с учетом режимных зон пункта пропуска «Шават-автодорожный» (Республика Узбекистан) и «Дашогуз-автодорожный» (Туркменистан).

Гражданам государств Сторон, и лицам без гражданства, законно проживающим в государствах Сторон, разрешается въезжать и выезжать в или из Торгового центра без оформления виз в период режима работы узбекской и туркменской частей Торгового центра на основании действительных документов, признанных государством Сторон.

4. Граждане Туркменистана могут въезжать в Торговый центр с территории Туркменистана на основании одного из следующих действительных документов, удостоверяющих личности граждан Туркменистана:

дипломатический паспорт гражданина Туркменистана;

служебный паспорт гражданина Туркменистана;

паспорт гражданина Туркменистана для выезда из Туркменистана и въезда в Туркменистан;

паспорт гражданина Туркменистана.

5. Граждане Республики Узбекистан могут въезжать на территорию Торгового центра с территории Узбекистана на основании одного из следующих действительных документов, удостоверяющих личности граждан Республики Узбекистан:

биометрический дипломатический паспорт гражданина Республики Узбекистан;

биометрический паспорт гражданина Республики Узбекистан для выезда за границу;

биометрический паспорт гражданина Республики Узбекистан (до 31 декабря 2030 года);

идентификационная ID-карта гражданина Республики Узбекистан.

6. Граждане государства одной Стороны, законно пребывающие на территории государства другой Стороны, могут въезжать на территорию Торгового центра на основании одного из действительных документов для международных поездок.

7. Возвращение граждан государств Сторон, и лиц без гражданства, законно проживающих в государствах Сторон, с территории Торгового центра разрешается только через тот пункт, через который они прибыли.

8. При возникновении стихийных бедствий, чрезвычайных ситуаций, распространении эпидемий и эпизоотий, карантинных и других опасных вредителей, болезней растений и сорняков, а также расследовании правонарушений и преступлений, Стороны установят необходимые сооружения

для временного введения контроля или приостановления сообщения между частями Торгового центра.

9. Компетентные органы государств Сторон на пропускных пунктах Торгового центра ведут проверку и регистрацию лиц, транспортных средств и товаров. В случае утраты или порчи документа, удостоверяющего личность на территории Торгового центра, лицо должно обращаться к компетентным органам государства пребывания, которые, при необходимости, во взаимодействии с компетентными органами государства другой Стороны подтверждают его личность и факт законного входа на территорию Торгового центра.

Перевозки пассажиров и товаров (грузов) на территории соответствующей части Торгового центра осуществляются в соответствии с законодательством государств Сторон.

10. Рабочие связи между погранично-контрольными службами государств Сторон осуществляются путем проведения встреч и переговоров.

Статья 7

Таможенные органы осуществляют таможенный контроль перемещаемых на/с территории Торгового центра товаров (грузов), лиц в соответствии с законодательством своих государств. При необходимости Стороны для взаимовыгодного сотрудничества разработают соответствующие требования по перемещению товаров на/с территории Торгового центра.

Статья 8

1. На территории узбекской и туркменской частей Торгового центра предоставляются услуги по обмену валют в соответствии с законодательством государства каждой из Сторон.

2. На территории узбекской и туркменской частей Торгового центра расчеты за товары и услуги осуществляются в соответствии с законодательством государств Сторон, на территории которого осуществляется платеж.

Статья 9

Правонарушения, совершенные на территории Торгового центра, рассматриваются в соответствии с законодательством того государства, на территории которого они совершены и Стороны будут взаимодействовать в принятии мер по предотвращению указанных правонарушений.

Статья 10

1. Стороны на специально оборудованных местах на территории Торгового центра в отношении товаров (грузов), лиц, а также в сферах общественных и других услуг осуществляют соответствующие виды санитарного, карантинного и ветеринарного контроля в соответствии с законодательством своих государств.

2. Выявленный соответствующими органами государства одной из Сторон товар, несоответствующий фитосанитарным, ветеринарным требованиям и санитарно-эпидемиологическим нормам, подлежит незамедлительному возврату стороной-экспортером с территории Торгового центра.

3. На территории Торгового центра не допускается реализация товаров, запрещенных законодательством государств Сторон.

Компетентные органы государств Сторон по дипломатическим каналам будут обмениваться перечнем товаров, ввоз и реализация которых запрещены на территории Торгового центра на основании действующих ограничений на территории своих государств.

В случае изменения в перечне товаров компетентные органы государств Сторон уведомляют друг друга об этом по дипломатическим каналам.

4. На территории Торгового центра предусматриваются служебные помещения для инспекторов по карантину растений и ветеринарии, а также помещения для фитосанитарной и ветеринарной лабораторий, хранения образцов.

На территории Торгового центра дополнительно предусматривается размещение фумигационных камер, дезинфекционных барьеров и других средств, необходимых для обеспечения карантинного фитосанитарного и ветеринарно-санитарного видов контроля.

Соответствующие органы государств Сторон осуществляют сотрудничество в области контроля за инфекционными заболеваниями, карантина растений и животных, а также взаимно информируют об эпизоотическом и фитосанитарном состоянии, эпидемиологической обстановке.

Статья 11

В случае возникновения разногласий при толковании и применении настоящего Договора, Стороны разрешают их путем консультаций и переговоров.

Статья 12

По договоренности Сторон в настоящий Договор могут вноситься изменения и дополнения, которые оформляются отдельными протоколами, являющимися неотъемлемыми частями настоящего Договора. Компетентные органы государств Сторон не реже одного раза в год рассматривают вопрос о целесообразности внесения изменений и дополнений в настоящий Договор.

Статья 13

1. Настоящий Договор заключается на неопределенный срок и вступает в силу с даты получения по дипломатическим каналам последнего письменного уведомления о выполнении Сторонами внутригосударственных процедур, необходимых для его вступления в силу.

2. Каждая из Сторон может прекратить действие настоящего Договора, уведомив об этом другую Сторону в письменной форме по дипломатическим

каналам. В таком случае действие настоящего Договора прекращается по истечении шести месяцев с даты получения такого уведомления.

Совершено в городе Ташкент, 17 ноября 2025 года, в двух экземплярах, каждый на узбекском, туркменском и русском языках, причем все тексты имеют одинаковую силу.

В случае расхождения между текстами настоящего Договора, Стороны будут обращаться к тексту на русском языке.

(подписи)

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Serbiya Respublikasi
Hukumati o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida
BITIM**

Toshkent, 2025-yil 28-oktabr

*[O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari davlat reyestrda
2025-yil 4-noyabrda ro‘yxatga olindi, ro‘yxat raqami 4606-RS-2025-H]*

*Mazkur Bitim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-martda
“Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–113-son qarori bilan
tasdiqlangan*

(O‘zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 29-apreldan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Serbiya Respublikasi Hukumati (keyingi o‘rinlarda “Ahdlashuvchi Tomonlar” deb ataluvchilar),

o‘z davlatlari va xalqlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni tasdiqlab,
o‘zaro manfaatli sohalarida tenglik, o‘zaro foyda va o‘zarolik tamoyillari
asosida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish istagida,

savdo hajmining ortishi natijasida yuzaga keladigan o‘zaro foydalarni hamda
savdo, iqtisodiy aloqalar va yaqin hamkorlik munosabatlari orqali ikki tomonlama
aloqalarni yanada mustahkamlash istagini inobatga olib, va

o‘z davlatlarining xalqaro shartnomalar doirasidagi majburiyatlarini hisobga
olgan holda,

quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

1-modda

1. Ahdlashuvchi Tomonlar o‘zlarining milliy qonunchiliklari doirasida va
xalqaro majburiyatlarini e‘tiborga olgan holda, o‘zaro manfaat va foyda keltiradigan
barcha sohalarida iqtisodiy hamkorlikni eng keng ko‘lamda rivojlantirish va
mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlarini safarbar etadilar.

2. Mazkur Bitim doirasida amalga oshiriladigan hamkorlik quyidagi
maqsadlarga yo‘naltiriladi:

ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida
iqtisodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish;

savdo aylanmasini oshirish, shuningdek, investitsiyalar, innovatsiyalar va
iqtisodiy tadbirlarni tashkil etish sohalarida ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni
faollashtirish;

transport infratuzilmasini rivojlantirish; va

hududlararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish.

2-modda

Ahdlashuvchi Tomonlar iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash uchun, xususan
quyidagilar orqali qulay shart-sharoitlar yaratishga intiladilar:

Ahdlashuvchi Tomonlar davlatlarida joylashgan biznes subyektlari o'rtasida, shu jumladan, yengil sanoat, kimyo sanoati, farmatsevtika sanoati, tibbiyot va raqamli sog'liqni saqlash, energetika, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari (IT) sektori va startaplar hamda boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish;

biznes va iqtisodiy axborot almashinuvini, shuningdek, iqtisodiy hamkorlik masalalari bo'yicha vakolatli organlar o'rtasidagi aloqalarni osonlashtirish va qo'llab-quvvatlash;

o'zaro manfaatli sohalarda qo'shma ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirish;

sertifikatlashtirish va standartlashtirish sohasida o'zaro asosiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

yarmarkalar, ko'rgazmalar, simpoziumlar va shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etishda bir-birlariga ko'maklashish;

kichik va o'rta korxonalarning ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarda ishtirokini rag'batlantirish;

tovarlar va xizmatlar savdosini, shuningdek, sanoat, infratuzilma, telekommunikatsiya, transport va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish; va

turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirish.

3-modda

Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitim (GATT)ga muvofiq, Ahdlashuvchi Tomonlar bir-birlariga eng qulay rejimni taqdim etadilar.

4-modda

1. Ahdlashuvchi Tomonlar mazkur Bitim doirasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbek-Serb Qo'shma komissiyasini (keyingi o'rinlarda "Qo'shma komissiya" deb ataluvchi) ta'sis etadilar.

2. Qo'shma komissiyaaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:
mazkur Bitim doirasidagi hamkorlikni monitoring qilish;

Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasidagi hamkorlik sohalarini aniqlash va bu borada tavsiyalar ishlab chiqish;

o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini kengaytirish bo'yicha kelishilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

ikki mamlakat biznes hamjamiyatlari o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;

qonunchilik va iqtisodiy dasturlar to'g'risida, shu jumladan, o'zaro manfaatli axborot almashish;

transport va tranzit sohasida muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish, xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish;

Ahdlashuvchi Tomonlarning tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish;

ikki tomonlama savdo va iqtisodiy hamkorlikka to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni taklif etish;

mazkur Bitim qoidalarini amalga oshirish yoki talqin etish bilan bog'liq bahsli masalalarni muhokama qilish.

5-modda

Qo'shma komissiya Ahdlashuvchi Tomonlar vakillaridan iborat bo'ladi, zarur hollarda, biznes doiralari vakillari ham uning ishida ishtirok etishga taklif qilinishi mumkin.

6-modda

1. Qo'shma komissiya yilida bir marta yoki Ahdlashuvchi Tomonlardan birining so'roviga ko'ra, zarur hollarda, navbatma-navbat O'zbekiston Respublikasi va Serbiya Respublikasida yig'iladi.

2. Ahdlashuvchi Tomonlardan birining tashabbusiga ko'ra, Qo'shma komissiyaning favqulodda yig'ilishi yoki hamraisllari uchrashuvi tashkillashtirilishi mumkin.

3. Qo'shma komissiya yig'ilishining sanasi va kun tartibi Ahdlashuvchi Tomonlar tarafidan o'zaro kelishilgan holda belgilanadi.

4. Qabul qiluvchi Ahdlashuvchi Tomon Qo'shma komissiya yig'ilishi bo'yicha yig'ilish yakunida har ikki delegatsiya rahbarlari tarafidan imzolanadigan bayonnoma tayyorlaydi.

7-modda

Mazkur Bitim qoidalari Ahdlashuvchi Tomonlarning davlatlari ishtirok etadigan boshqa xalqaro shartnomalar doirasida ularning huquq va majburiyatlariga daxl qilmagan holda qo'llaniladi.

8-modda

Mazkur Bitim qoidalarini amalga oshirish yoki talqin etish bilan bog'liq yuzaga keladigan har qanday nizolar va masalalar Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida maslahatlashuvlar va muzokaralar orqali hal qilinadi.

9-modda

Har bir Ahdlashuvchi Tomon milliy xavfsizlik, jamoat tartibi yoki sog'liqni saqlash sabablari bilan mazkur Bitimning amal qilishini to'liq yoki qisman to'xtatib turishi mumkin. Boshqa Ahdlashuvchi Tomon bunday chorani joriy etilishidan kamida 72 soat oldin diplomatik kanallar orqali Bitimning to'xtatib turilishi haqida xabardor qilinadi.

10-modda

1. Mazkur Bitim Ahdlashuvchi Tomonlar tarafidan Bitimning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan ichki huquqiy tartib-taomillar bajarilgani to'g'risidagi so'nggi yozma bildirishnoma diplomatik kanallar orqali olingan sanadan so'ng 30 (o'ttizinchi) kunda kuchga kiradi.

2. Mazkur Bitim 5 (besh) yil muddatga tuziladi va basharti Ahdlashuvchi Tomonlardan biri Bitimni tugatish niyati haqida navbatdagi muddat tugashidan 6 (olti) oy oldin yozma ravishda boshqa Tomonni xabardor qilmasa, u o'z-o'zidan navbatdagi bir xil muddatlarga uzayaveradi.

3. Mazkur Bitim Ahdlashuvchi Tomonlarning o'zaro roziligi asosida mazkur Bitimning ajralmas qismi hisoblanadigan va ushbu Bitim qoidalariga muvofiq kuchga kiradigan alohida bayonnomalar bilan o'zgartirilishi mumkin.

Toshkent shahrida, 2025-yil 28-oktabrda, ikki asl nusxada, o'zbek, serb va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir. Talqin qilishda tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Serbiya Respublikasi
Hukumati o'rtasida turizm sohasida hamkorlik to'g'risida
BITIM**

Toshkent, 2025-yil 28-oktabr

*[O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari davlat reyestrda
2025-yil 4-noyabrda ro'yxatga olingan, ro'yxat raqami 4608-RS-2025-H]*

*Mazkur Bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-martdagi
"Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-115-son qarori bilan
tasdiqlangan*

(O'zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 6-iyundan kuchga kiradi)

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Serbiya Respublikasi Hukumati, keyingi o'rinlarda "Tomonlar" deb ataluvchilar,

Tomonlar davlatlari xalqlari o'rtasida do'stona aloqalarni kengaytirish, har ikki mamlakat hayoti, tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishishga ko'maklashish istagini bildirib,

Turizm xalqlar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlash, do'stona munosabatlarni rivojlantirish va yaxshi niyatni ifodalashning muhim vositasi ekanini anglagan holda,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

Tomonlar tenglik, o'zaro manfaat va foyda tamoyillari asosida har ikki davlat xalqlarini ilm-fan, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish va madaniyat sohalaridagi yutuqlar, tabiat va diqqatga sazovor joylar, shuningdek, har ikki xalqning tarixiy yodgorliklari hamda madaniy an'analari bilan tanishtirish maqsadida turizm sohasida hamkorlikni rivojlantiradilar va mustahkamlaydilar.

2-modda

Tomonlar xalqaro turizmni rivojlantirish va turizm sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shma tadbirlarni tashkil etish bilan shug'ullanadigan o'zbek va serb tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirishni rag'batlantiradilar.

3-modda

Tomonlar jamoaviy va yakka tartibdagi turizmni rivojlantirish sohasidagi hamkorlikni rag'batlantiradilar.

4-modda

Mazkur Bitimning 1-moddasida belgilangan maqsadlarga erishish

uchun Tomonlar quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni amalga oshirishga ko'maklashadilar:

turizm sohasidagi davlat idoralari, turizm operatorlari hamda turizm tarmog'ining rivojlanishidan manfaatdor boshqa tashkilotlar va muassasalar o'rtasida yaqin sheriklik va texnik hamkorlikni o'rnatish hamda rivojlantirish;

xalqaro va ichki turizm sohasidagi tajriba almashish, shuningdek, xizmatlar (xizmat) sifatini oshirishni kafolatlovchi turizm biznesi sohasida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;

gastronomik, sog'lomlashtirish, ekologik, sport va boshqa turizm turlarini rag'batlantirish;

Tomonlar davlatlarining turizm resurslari hamda ushbu sohani tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikka oid statistik ma'lumotlar va axborot materiallarini almashish;

sayyohlar oqimini jalb etish maqsadida reklama materiallari, bosma nashrlar, audio va video mahsulotlar tayyorlash, shuningdek, OAV orqali reklama kampaniyalarini o'tkazish, turli ko'rgazmalar, seminarlar, treninglar hamda B2B formatidagi tadbirlarni tashkil etish orqali turizmga oid ma'lumotlarni keng targ'ib etish;

turizm sohasi kadrlarini tayyorlash va Tomonlar davlatlarining turizm korxonalarining kadrlarini o'qitish, shuningdek, malaka oshirish maqsadida o'quv safarlari va qisqa muddatli xizmat safarlarini tashkil etish orqali tegishli turizm muassasalari mutaxassislarini almashish;

turizm infratuzilmani rivojlantirish, turizm zonalar tashkil etish, katta va kichik mehmonxona hamda hordiq chiqarish majmualarini qurish sohasida tajriba almashish;

turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish, Tomonlar davlatlarining qonunchiligiga muvofiq turizm sohasida investitsiyalar uchun taqdim etilgan imtiyozlar to'g'risida axborot almashish;

ikki davlat hududida tashkillashtiriladigan xalqaro turizm ko'rgazmalari va boshqa tadbirlarda Tomonlar sayohat kompaniyalari va tashkilotlarining ishtirok etishi;

turizm sohasidagi xalqaro standartlarni Tomonlar davlatlarining milliy qonunchiligiga joriy etish.

5-modda

Har bir Tomon boshqa Tomon davlatiga turizm safarlari uchun chiqib ketayotgan o'z davlati fuqarolariga xorijiy fuqarolar uchun chiqish, bo'lish va chiqib ketish tartibini belgilovchi ushbu davlatda amal qilayotgan qonunchilik to'g'risida zarur ma'lumotlarni taqdim etish uchun tegishli choralarni ko'radi.

Tomonlar o'z davlatlarining qonunchiligiga muvofiq, boshqa Tomon davlati hududida bo'lib turgan sayyohlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan, favqulodda holatlar yuz bergan taqdirda ularni evakuatsiya qilish choralari ko'radilar.

6-modda

Tomonlar turizm masalalarida ixtisoslashgan olimlar, ekspertlar, jurnalistlarning o'zaro almashinuviga, shuningdek, turizm faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashadilar.

7-modda

Tomonlar Butunjahon turizm tashkiloti hamda boshqa xalqaro turizm tashkilotlari doirasida hamkorlikni rivojlantiradilar.

8-modda

Har bir Tomon o'z davlati hududida boshqa Tomonning turizm axborot markazlarini tashkil etishni rag'batlantiradi.

9-modda

Tomonlar O'zbek-Serb Hukumatlararo iqtisodiy hamkorlik komissiyasi doirasida faoliyat yuritadigan va vazifasi mazkur Bitim qoidalarining bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilish, shuningdek, turizm sohasidagi ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadigan ishchi guruh tuzadilar.

10-modda

Mazkur Bitim qoidalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar har bir Tomon tarafidan o'z davlatining qonunchiligiga hamda tegishli soha uchun ajratilgan mavjud moliyaviy resurslar doirasida qoplanadi.

11-modda

Mazkur Bitim Tomonlarning yoki ularning davlatlarining ishtirokchisi bo'lgan boshqa xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

12-modda

Tomonlarning o'zaro roziligi asosida mazkur Bitimga ushbu Bitimning ajralmas qismi hisoblanadigan hamda alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

13-modda

Mazkur Bitim qoidalarini talqin qilish bilan bog'liq har qanday nizo Tomonlar o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

14-modda

1. Mazkur Bitim Tomonlar Bitimning kuchga kirishi uchun zarur barcha ichki huquqiy tartib-taomillar bajarilganligi to'g'risida bir-birlarini xabardor qiladigan bildirishnomalarning oxirgisi qabul qilingan sanadan so'ng o'ttizinchi (30) kunda kuchga kiradi.

2. Mazkur Bitim besh (5) yil muddat davomida amal qiladi. Basharti Tomonlardan biri ushbu Bitimning amal qilishini tugatish niyati haqida joriy muddat tugashidan kamida uch oy oldin diplomatik kanallar orqali yozma ravishda bildirmasa, mazkur Bitimning amal qilish muddati navbatdagi besh yillik muddatlarga o'z-o'zidan uzayaveradi.

3. Mazkur Bitimning amal qilishining tugatilishi ushbu Bitim doirasida vakolatli organlar va (yoki) vakolatli tashkilotlar tarafidan tuzilgan shartnomalar va (yoki) bitimlarning amalga oshirilishiga daxl qilmaydi.

Toshkent shahrida, 2025-yil 28-oktabrda, ikki nusxada, o'zbek, serb va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir.

Talqin qilishda tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Serbiya Respublikasi
Hukumati o'rtasida investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro
himoya qilish to'g'risida
BITIM**

Toshkent, 2025-yil 28-oktabr

*[O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari davlat reyestrda
2025-yil 4-noyabrda ro'yxatga olingan, ro'yxat raqami 4605-RS-2025-H]*

*Mazkur Bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-martdagi
“Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-113-son qarori bilan
tasdiqlangan*

(O'zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 7-iyundan kuchga kiradi)

Muqaddima

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Serbiya Respublikasi Hukumati, keyingi o'rinlarda alohida hollarda “Tomon” yoki birgalikda “Tomonlar” deb ataluvchilar,

Tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va hamkorlikni kengaytirish va faollashtirish, Tomonlarning hududlariga iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhit yo'nalishlarida barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan investitsiyalarni jalb qilish va rag'batlantirish istagida;

investitsiyalarning Tomonlarning barqaror rivojlanishiga, jumladan, kambag'allikni qisqartirish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiy o'sish, texnologiyalar transferi, inson huquqlari va inson taraqqiyotini ta'minlashga qo'shadigan muhim hissasini tan olgan holda;

Tomonlarning o'z hududlarida davlat siyosatining milliy maqsadlariga erishish, barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surish va jamoat salomatligi, milliy xavfsizlik, atrof-muhit, jonli va jonsiz tiklanmaydigan tabiiy resurslarni saqlash, mehnat standartlari, moliyaviy tizimning yaxlitligi va barqarorligi va jamoat farovonligi kabi qonuniy jamoat farovonligi maqsadlarini* himoya qilish uchun tartibga solish va choralar ko'rish bo'yicha ajralmas huquqlarini tasdiqlagan holda;

Tomonlar, investorlar va investitsiyalar o'rtasida mazkur Bitim bo'yicha huquq va majburiyatlarning umumiy muvozanatini izlagan holda;

mas'uliyatli biznes yuritish, shaffoflikni rag'batlantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish muhimligini ta'kidlagan holda;

barcha investitsiyalar amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishiga ishongan holda;

mazkur Bitim qoidalariga muvofiq investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va

* Tomonlar investitsiyaning barqaror rivojlanishga hissasi quyidagilar orqali tasniflash borasida anglashuvga erishganliklarini tasdiqlaydilar: (i) ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, (ii) iqtisodiy o'sish, (iii) yaratilayotgan ish o'rinlari sifati, (iv) kiritilayotgan investitsiya muddati, (v) texnologiya transferi, (vi) kambag'allikni qisqartirish, (vii) atrof-muhitni muhofaza qilish, (viii) issiqxona gazlarini kamaytirish.

himoya qilish o‘zaro investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishga va Tomonlarning xususiy sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini anglagan holda;

quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

1-modda Ta’riflar

Mazkur Bitim maqsadlari uchun:

1. “Investor”

a. Bir Tomonning milliy qonunchiligiga muvofiq uning fuqarosi bo‘lgan, boshqa Tomon hududida investitsiya kiritgan har qanday jismoniy shaxs; yoki

b. Har qanday yuridik shaxs, shu jumladan, kompaniyalar, korporatsiyalar, tijorat birlashmalari, basharti bunday yuridik shaxs:

i. Bir Tomon qonunchiligiga muvofiq ta’sis etilgan yoki boshqacha tarzda lozim darajada tashkil etilgan bo‘lsa;

ii. ushbu Tomon hududida o‘zining shtab-kvartirasi va iqtisodiy faoliyati yoki muhim ishbilarmonlik faoliyati markaziga ega bo‘lsa; yoki

iii. boshqa Tomon hududida ushbu Tomon qonunchiligiga muvofiq investitsiya kiritgan bo‘lsa.

c. Mazkur Bitim quyidagilar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

i. ikkala Tomonning fuqarolari bo‘lgan yoki qabul qiluvchi davlatning doimiy rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar;

ii. qabul qiluvchi davlat yoki uchinchi davlat fuqarosi tomonidan bevosita yoki bilvosita egalik qilinadigan yoki nazorat qilinadigan yuridik shaxslar; yoki

iii. qabul qiluvchi davlat yoki uchinchi davlat qonunlari asosida tuzilgan, tashkil etilgan yoki boshqariladigan yuridik shaxs tomonidan bevosita yoki bilvosita egalik qilinadigan yoki nazorat qilinadigan yuridik shaxslar.

d. Mazkur Bitim himoyasi bilan qamrab olinishi uchun jismoniy yoki yuridik shaxs Investitsiya amalga oshirilgan paytda Investor sifatida tavsiflanishi mumkin.

2. “Investitsiya”:

a. Bir Tomon investori tomonidan boshqa Tomon hududida uning qonunchiligiga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilinadigan, investitsiya xususiyatlariga ega bo‘lgan, shu jumladan muayyan davomiylik, kapital va boshqa resurslarni jalb qilish, tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olish yoki foyda yoki foydani kutish xususiyatlariga ega bo‘lgan har qanday aktivlarni anglatadi. Investitsiyalar quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

a) korxona;

b) aksiyalar, obligatsiyalar, qarz qog‘ozlari va korxonada ishtirok etishning boshqa vositalari;

c) Ko‘char yoki ko‘chmas mulk yoki ipoteka, garov yoki shu kabi boshqa mulkiy huquqlar;

d) mualliflik huquqi, shu jumladan, turdosh huquqlar, patentlar, sanoat namunalari yoki modellari, savdo belgilari, shuningdek, gudvill, texnik jarayonlar va nou-xau kabi intellektual mulk huquqlari;

e) qabul qiluvchi davlat qonunchiligiga muvofiq tuzilgan konsessiya shartnomalari bo'yicha huquqlar, shu jumladan tabiiy resurslarni yetishtirish, qazib olish yoki ulardan foydalanish uchun litsenziyalar.

b. Investitsiyaning huquqiy shaklidagi o'zgarishlar, basharti bunday o'zgarish qabul qiluvchi davlat qonunlariga muvofiq bo'lsa, uning ushbu Bitim bo'yicha investitsiya sifatida tasniflanishiga ta'sir qilmaydi.

c. Aniqroq bo'lishi uchun, "Investitsiya" quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

i. qarz qabul qiluvchi davlat hukumati tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari yoki qabul qiluvchi davlat hukumatiga berilgan kreditlar;

ii. portfel investitsiyalar;

iii. faqat tovarlar yoki xizmatlarni sotish bo'yicha tijorat shartnomalaridan yoki tijorat bitimi bilan bog'liq kreditni uzaytirishdan kelib chiqadigan da'volari;

iv. qabul qiluvchi davlatda joylashgan banklar, suveren fondlar va boshqa moliya institutlaridan olingan kreditlar, qarzlar yoki boshqa pul-kredit resurslari; yoki

v. qabul qiluvchi davlat hukumatining kafolati ostida xorijiy moliya institutlaridan olingan kreditlar, qarzlar yoki boshqa pul-kredit resurslari.

vi. Sud, ma'muriy yoki arbitraj tartib-taomiliga kiritilgan qaror yoki ajrim;

vii. Iqtisodiy yoki boshqa tijorat foydasini olishga yo'naltirilmagan investitsiyalarning har qanday boshqa shakli.

3. "Ro'yxatdan o'tgan davlat":

a. jismoniy shaxsga nisbatan, ushbu Tomon qonunchiligiga muvofiq, Investorning fuqaroligi bo'lgan Tomonni;

b. yuridik shaxsga nisbatan, ushbu Tomon qonunchiligiga muvofiq Investorni tashkil etuvchi yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi Tomonni anglatadi.

4. "Qabul qiluvchi davlat" hududida Investitsiya joylashgan Tomonni anglatadi.

5. "Qonunchilik" har bir Tomon hududida majburiy kuchga ega bo'lgan qonunlar, nizomlar, qoidalar, farmonlar va boshqa chora-tadbirlarni anglatadi.

6. "Hudud" Tomonlar o'z milliy qonunlari va qoidalari hamda xalqaro huquqqa muvofiq o'z suveren huquqlari va yurisdiksiyasini amalga oshiradigan hudud.

a. quruqlik hududi, ichki suvlar va hududiy dengiz, shu jumladan, Tomonlar hududlari ustidagi havo bo'shlig'i.

b. [Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasining V qismiga muvofiq Tomonning erkin iqtisodiy zonasi;]

c. [Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasining VI qismiga muvofiq, Tomonning kontinental shelfi].

2-modda

Bitimning qo'llanilishi

1. Mazkur Bitim bir Tomon Investorlarining boshqa Tomon hududida amalga oshirilgan, qabul qiluvchi Tomonning qonunlari va qoidalariga muvofiq qabul qilingan yoki tan olingan, mazkur Bitim kuchga kirgunga qadar yoki kuchga kirgandan keyin amalga oshirilgan barcha investitsiyalarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Aniqroq bo'lishi uchun mazkur Bitim investitsiyalar va investorlarga faqat ta'sis etishdan keyingi himoyani taqdim etadi va ta'sis etishdan oldingi bosqichni yoki bozorga kirish masalalarini qamrab olmaydi.

3-modda

Boshqa xalqaro shartnomalarga aloqadorligi

1. Mazkur Bitimdagi hech bir qoida Tomonning xalqaro huquq bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan tarzda talqin qilinmasligi lozim.

2. Mazkur Bitim va Tomonlardan istalgan biri ishtirokchi bo'lgan boshqa xalqaro shartnoma o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha har qanday nomuvofiqlik yoki savollar Shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasiga muvofiq hal qilinadi.

4-modda

Institutsional boshqaruv

Har bir Tomon mazkur Bitimni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organini belgilaydi. Tomonlar mazkur Bitimning 5-moddasiga muvofiq belgilangan idoralar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradilar.

5-modda

Investitsiyalarni rag'batlantirish va ularga ko'maklashish

1. Tomonlar qabul qiluvchi davlatning barqaror rivojlanish strategiyalarini qo'llab-quvvatlovchi investitsiyalarga alohida e'tibor qaratgan holda, o'z millatiga mansub investorlarning boshqa Tomon hududiga investitsiyalarini rag'batlantirishda hamkorlik qiladilar.

2. Tomonlar o'zlarining tegishli hududlarida xorijiy investorlar uchun investitsiya imkoniyatlari, qonunlar va me'yoriy hujjatlar to'g'risida axborot almashadilar.

3. Tomonlar mazkur Bitim bilan qamrab olinadigan Investorlar uchun investitsiyalarni moliyalashtirish va investitsiyalarni kafolatlash imkoniyatini taqdim etishlari mumkin. Bunday imkoniyatlar, basharti ulardan foydalanilganda, Investorlarning mazkur Bitimda belgilangan majburiyatlariga rioya etilishiga ko'maklashishi lozim.

4. Har bir Tomon investitsiyalarga ta'sir ko'rsatadigan barcha chora-tadbirlar o'z huquqiy tizimiga muvofiq xolis va beg'araz amalga oshirilishini ta'minlaydi.

5. Har bir Tomon, iloji boricha, ushbu Bitim bilan qamrab olinadigan masalalarga taalluqli bo'lgan o'z qonunlari, qoidalari va umumiy qo'llaniladigan ma'muriy qarorlarining Investorlar uchun erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

6-modda

Milliy rejim va eng maqbul rejim

1. Har bir Tomon boshqa Tomon investorlarining investitsiyalariga o'z

investorlarining investitsiyalariga yoki istalgan uchinchi davlat investorlarining investitsiyalariga, qaysi biri qulayroq bo'lishiga qarab, ayni holatlarda beriladiganidan kam bo'lmagan qulaylik rejimini taqdim etadi.

2. Har bir Tomon o'z hududida boshqa Tomon investorlariga ularning investitsiyalarini boshqarish, qo'llab-quvvatlash, ulardan foydalanish, ulardan daromad olish yoki ularni tasarruf etishga nisbatan o'z investorlariga yoki istalgan uchinchi davlat investorlariga, qaysi biri qulayroq bo'lsa, xuddi shunday qulay rejimni taqdim etadi.

3. Aniqroq bo'lishi uchun, 1-banddagi "ayni holatlar"ga havolalar investitsiyalarning barcha holatlarini har bir holat bo'yicha, shu jumladan, quyidagilarni umumiy ko'rib chiqishni talab qiladi, lekin bular bilan cheklanmagan holda:

- a. Investitsiyaning uchinchi shaxslar va mahalliy hamjamiyatga ta'siri;
- b. Investitsiyaning mahalliy, mintaqaviy yoki milliy atrof-muhitga ta'siri, shu jumladan yurisdiksiya doirasidagi barcha investitsiyalarning umumiy ta'siri;
- c. Investitsiya amalga oshirilgan tarmoq;
- d. tegishli davlat hujjati yoki chora-tadbirining maqsadi; va
- e. tegishli davlat hujjati yoki chorasiga nisbatan qo'llaniladigan tartibga solish jarayoni.

4. 1 va 2-bandlarga muvofiq taqdim etiladigan rejim milliy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi yoki jamoat tartibini istisno etmaydigan yoki bir Tomonni boshqa Tomon investorlariga va ularning investitsiyalariga quyidagilar natijasida yuzaga keladigan har qanday rejim, afzallik yoki imtiyozlardan foydalanish huquqini berishga majbur qilmaydigan tarzda talqin etilmasligi lozim:

- a. uning har qanday mavjud yoki kelajakdagi erkin savdo hududlari, bojxona ittifoqi, iqtisodiy ittifoq, umumiy bozor yoki valyuta ittifoqiga a'zoligi yoki u bilan bog'liqligi;
- b. mavjud yoki bo'lajak erkin savdo shartnomasi;
- c. to'liq yoki asosan soliqqa tortish bilan bog'liq har qanday xalqaro shartnoma yoki har qanday ichki qonunchilik; yoki
- d. ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha boshqa bitim yoki bojxona ittifoqi va erkin savdo hududlaridagi ishtiroki tufayli yoki uchinchi davlat bilan o'zaro kelishuv asosida.

5. Mazkur Bitimning milliy va eng maqbul rejimga taalluqli qoidalari quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:

- a. bir Ahdlashuvchi Tomon va boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati investorlari o'rtasidagi nizolarni hal etish;
- b. yer uchastkalarini xususiylashtirish va xususiylashtirilgan yer uchastkalariga egalik huquqini olish to'g'risida.

7-modda

Rejimlarning minimal standartlari

1. Har bir Tomon investitsiyalarga odatdagi xalqaro huquqqa muvofiq chet elliklarga nisbatan munosabatning minimal standartlarini, shu jumladan, adolatli va xolis munosabatni, to'liq himoya va xavfsizlikni taqdim etadi.

2. Aniqroq bo'lishi uchun, 1-band xalqaro odat huquqining chet elliklarga muomala qilishning minimal standartini qoplanadigan investitsiyalarga taqdim etilishi kerak bo'lgan munosabatning minimal standarti sifatida belgilaydi. "Adolatli va xolis rejim" va "to'liq himoya va xavfsizlik" tushunchalari ushbu standartdan ortiq yoki qo'shimcha rejimni talab qilmaydi va qo'shimcha moddiy huquqlarni keltirib chiqarmaydi. 1-banddagi quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

a. "adolatli va xolis rejim" jahonning asosiy huquqiy tizimlarida mujassamlangan tegishli jarayon tamoyiliga muvofiq jinoiy, fuqarolik yoki ma'muriy sud jarayonida faqat bir Tomonning har qanday Investorga nisbatan adolatni rad etmaslik majburiyatini anglatadi.

b. "To'liq himoya va xavfsizlik" faqat Tomonning Investorlar va Investitsiyalarning jismoniy xavfsizligi bilan bog'liq majburiyatini anglatadi va boshqa hech qanday majburiyatni nazarda tutmaydi.

3. Mazkur Bitimning yoki alohida xalqaro shartnomaning boshqa qoidasi buzilganligi aniqlanishi ushbu moddaning buzilganligini anglatmaydi.

4. Tushunarliroq bo'lishi uchun Tomonlar mazkur Bitimda "xalqaro odat huquqi" umuman va maxsus havola etilgan davlatlarning huquqiy majburiyat nuqtayi nazaridan amal qiladigan umumiy va izchil amaliyoti natijasi ekanligi to'g'risida o'zaro anglashuvga ega ekanliklarini tasdiqlaydilar.

5. Aniqroq bo'lishi uchun, bir Tomonning Investorning kutilmalariga mos kelmasligi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirishi yoki amalga oshira olmasligining o'zi ushbu moddaning buzilishini anglatmaydi.

6. 24-moddaga muvofiq tashkil etilgan tribunal ushbu moddaning ehtimoliy buzilishini ko'rib chiqishda mazkur Bitim bo'yicha da'vo qo'zg'atilgunga qadar Investor tomonidan ichki sudlar yoki tribunallar oldida huquqiy himoya choralari bo'yicha da'vo qo'zg'atilganligini hisobga oladi.

8-modda

Ekspropriatsiya va kompensatsiya

1. Bir Tomon quyidagi holatlarni istisno qilgan holda, investitsiyalarni to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita natsionalizatsiya yoki ekspropriatsiyaga teng ta'sirga ega choralar orqali milliyalashtirmaydi yoki ekspropriatsiya qilmaydi,:

- a. jamoat maqsadlarida;
- b. kamsitmaydigan tarzda;
- c. tezkor, yetarli va samarali kompensatsiya to'lash; va
- d. tegishli protsessual qonunchilikka muvofiq.

2. Bilvosita ekspropriatsiya, basharti bir Tomonning tadbiri yoki chora-tadbirlari to'g'ridan to'g'ri ekspropriatsiyaga teng bo'lgan ta'sirga ega bo'lsa, hech qanday rasmiy topshirish yoki to'g'ridan to'g'ri tortib olish bilan Investorni uning Investitsiyasidagi mulkning asosiy xususiyatlaridan, shu jumladan, uning Investitsiyasidan foydalanish, foyda olish va uni tasarruf etish huquqidan sezilarli darajada va doimiy ravishda mahrum qilish orqali sodir bo'ladi.

3. Muayyan vaziyatda bir Tomonning biror-bir tadbiri yoki chora-tadbirlari bilvosita ekspropriatsiya hisoblanishini aniqlash har bir holat bo'yicha quyidagilarni hisobga olgan faktlarga asoslangan tekshiruvni talab qiladi:

a. chora-tadbirning yoki chora-tadbirlarning iqtisodiy ta'siri, garchi chora yoki choralar ketma-ketligining Investitsiyaning iqtisodiy qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatishining o'zi bilvosita ekspropriatsiya sodir bo'lganligini belgilamasa ham;

b. chora-tadbirning yoki chora-tadbirlar turkumining davomiyligi;

c. chora-tadbirning yoki chora-tadbirlarning xususiyati, ya'ni ularning obyekti, konteksti va maqsadi; va

d. chora-tadbirning yoki chora-tadbirlarning Tomonning Investor oldidagi oldingi majburiy yozma majburiyatini shartnoma, litsenziya yoki boshqa qonuniy hujjat orqali buzishi.

4. Bir Tomonning Jamoat farovonligi, jamoat salomatligi, xavfsizlik va atrof-muhit kabi qonuniy jamoat farovonligi maqsadlarini himoya qilish uchun ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan kamsitmaydigan tartibga solish choralari bilvosita ekspropriatsiyalarni keltirib chiqarmaydi.

5. 1-bandda ko'rsatilgan kompensatsiya ekspropriatsiya qilingan investitsiyaning bevosita ekspropriatsiya amalga oshirilishidan oldingi haqqoniy bozor qiymatiga teng bo'lishi va ekspropriatsiya natijasida qiymatning o'zgarishini aks ettirmasligi kerak.

6. Kompensatsiya kechiktirmasdan to'lanadi hamda to'liq amalga oshiriladigan va erkin o'tkaziladigan kerak.

7. Basharti haqqoniy bozor qiymati erkin foydalaniladigan valyutada ifodalangan bo'lsa, 1-bandda ko'rsatilgan kompensatsiya ekspropriatsiya sanasidagi haqqoniy bozor qiymatidan kam, shuningdek, ekspropriatsiya sanasidan boshlab to'lov sanasigacha ushbu valyuta bo'yicha tijorat nuqtayi nazaridan maqbul kurs bo'yicha hisoblangan foizlar bo'lmasligi lozim.

8. Tegishli Investor ekspropriator Tomonning qonunchiligiga ko'ra, o'z ishi va investitsiyaning qiymatini qayta ko'rib chiqish va ushbu Tomonning sud yoki boshqa mustaqil organi tarafidan mazkur moddada belgilangan tamoyillarga muvofiq qayta ko'rib chiqish huquqiga ega.

9. Ko'rib chiqishda 24-moddaga muvofiq tashkil etilgan Tribunal mazkur moddaning ehtimoliy buzilishini ushbu Bitim bo'yicha da'vo qo'zg'atilgunga qadar Investor milliy sudlar yoki tribunallar oldida huquqiy himoya vositalarini qo'llash uchun da'vo qo'zg'atganligini hisobga oladi.

10. Ushbu modda 1994-yil 15-apreldagi Jahon savdo tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi Bitimga muvofiq bo'lgan intellektual mulk huquqlariga nisbatan berilgan majburiy litsenziyani berishga yoki intellektual mulk huquqini bekor qilish, cheklash yoki yaratishga nisbatan qo'llanilmaydi.

9-modda

Yo'qotishlar uchun kompensatsiya

1. Investitsiyalari urush, qurolli mojaro, inqilob, milliy favqulodda holat, qo'zg'olon yoki fuqarolik nizosi tufayli zarar ko'rgan investorlarga qabul qiluvchi davlat o'z investorlariga yoki uchinchi davlat investorlariga restitutsiya, tovon to'lash, kompensatsiya yoki boshqa kelishuvlar borasida taqdim etadigan rejimdan kam bo'lmagan qulay rejim taqdim etiladi.

2. 1-bandga zarar yetkazmagan holda, basharti ushbu bandda ko'rsatilgan har qanday holatda Investor quyidagilar natijasida zarar ko'rsa, Investorga yetarli darajada kompensatsiya to'lanadi:

a. Qabul qiluvchi Tomon kuchlari yoki organlari tomonidan Investorning mol-mulkini rekvizitsiya qilish; yoki

b. Qabul qiluvchi Tomon kuchlari yoki hokimiyat organlarining jangovar harakatlar natijasida yuzaga kelmagan yoki vaziyat taqozosi bilan talab qilinmagan Investorning mol-mulkini yo'q qilish.

10-modda **Pul o'tkazmalari**

1. Har bir Tomon o'z qonunchiligiga muvofiq Investitsiya bilan bog'liq mablag'larning erkin o'tkazilishiga yo'l qo'yadi, xususan:

a. investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash va ko'paytirish uchun ishlatiladigan kapital va qo'shimcha kapital miqdorlari;

b. foyda, dividendlar, foizlar, kapital, royalti to'lovlari, boshqaruvga haq to'lash, texnik yordam ko'rsatish va boshqa yig'imlar, natura holiday daromadlar;

c. Investitsiyaga bevosita aloqador har qanday kreditni, shu jumladan uning foizlarini to'lash;

d. o'z aksiyalarini sotishdan tushgan mablag'lar;

e. sotish yoki qisman sotish yoxud tugatish chog'ida investorlar tomonidan olingan tushum;

f. investitsiyaviy nizo bo'yicha hal qiluv qaroridan kelib chiqadigan to'lovlar;

g. ekspropriatsiya qilingan taqdirda kompensatsiya miqdori; yoki

h. Investitsiya munosabati bilan boshqa Tomon hududida ishlashga ruxsat berilgan bir Tomon fuqarolariga ish haqi va boshqa mukofotlar.

2. Har bir Tomon quyidagilarga taalluqli o'z qonunlari va qoidalarini adolatli, kamsitmaydigan va halol qo'llash orqali o'tkazishga to'sqinlik qilishi yoki kechiktirishi mumkin:

a. soliq majburiyatlari;

b. bankrotlik, to'lovga qobiliyatsizlik yoki kreditorlarning huquqlarini himoya qilish;

c. qimmatli qog'ozlar, fyucherslar, opsiyonlar yoki derivativlar bilan savdo qilish yoki muomala qilish;

d. jinoyat yoki jinoiy qilmishlar;

e. huquqni muhofaza qilish organlari yoki moliyaviy nazorat organlariga yordam berish uchun zarur bo'lganda moliyaviy hisobot yoki ish yuritish yoki o'tkazmalar; yoki

f. sud yoki ma'muriy ish yuritishdagi buyruqlar yoki hukmlar.

3. To'lovlarni o'tkazish qabul qiluvchi davlat milliy qonunchiligiga muvofiq o'tkazish sanasida amalda bo'lgan kurs bo'yicha erkin foydalaniladigan valyutada kechiktirmasdan amalga oshiriladi.

11-modda

Vaqtinchalik xavfsizlik choralari

1. Jiddiy to'lov balansi va tashqi moliyaviy qiyinchiliklar yoki ularning tahdidi yuzaga kelgan taqdirda, bir Tomon ushbu Bitim bo'yicha o'z majburiyatlariga zid bo'lgan boshqa choralarni, shu jumladan, 10-moddaga muvofiq to'lovlar yoki o'tkazmalarga cheklovlarni qabul qilishi yoki saqlab qolishi mumkin. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida bir Tomonning to'lov balansiga alohida bosim o'tkazilishi, jumladan, uning iqtisodiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan moliyaviy zaxiralar darajasini saqlashni ta'minlash uchun cheklovlardan foydalanishni talab qilishi mumkinligi e'tirof etiladi.

2. 1-bandda ko'rsatilgan cheklov:

a. Xalqaro valyuta jamg'armasiga a'zolik to'g'risidagi Bitim qoidalariga muvofiq bo'lishi;

b. 1-bandda tavsiflangan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan miqdordan oshmasligi;

c. Vaqtinchalik bo'lishi va 1-bandda ko'rsatilgan vaziyat yaxshilanishiga qarab bosqichma-bosqich to'xtatilishi;

d. Boshqa Tomon investorlari mazkur Bitim ishtirokchisi bo'lmagan Tomonning investorlaridan kam bo'lmagan darajada qulay munosabatda bo'ladigan kamsitilmaydigan asosda qo'llanilishi; va

e. Boshqa Tomonga zudlik bilan xabar berilishi lozim.

12-modda

Qonunlar va xalqaro majburiyatlarga rioya qilish

1. Investorlar va ularning investitsiyalari qabul qiluvchi davlatning investitsiyalarni tashkil etish, sotib olish, boshqarish, ishlatish va tasarruf etish bilan bog'liq barcha qonunlari, qoidalari, ma'muriy ko'rsatmalari va siyosatiga rioya qilishlari lozim.

2. Investorlar va ularning investitsiyalari qabul qiluvchi davlat qonunchiligining soliqqa tortish, shu jumladan, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida to'lash to'g'risidagi qoidalariga rioya qilishlari lozim.

3. Investorlar va ularning Investitsiyalari inson huquqlari, mehnat, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga oid xalqaro shartnomalar bo'yicha Tomonlarning majburiyatlariga muvofiq ravishda Investitsiyalarni boshqaradilar va amalga oshiradilar.

4. Har bir Tomon xalqaro huquqqa, shu jumladan inson huquqlari, mehnat, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xalqaro shartnomalar doirasidagi majburiyatlarga rioya qilishga intiladi va o'z qonunlari, siyosati va harakatlari ushbu majburiyatlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

13-modda

Investitsiya va atrof-muhitni muhofaza qilish

1. Tomonlar ichki qonunchilikda nazarda tutilgan atrof-muhitni muhofaza

qilishni zaiflashtirish yoki kamaytirish yo'li bilan investitsiyalarni rag'batlantirish nomaqbul ekanligini tan oladilar. Har bir Tomon o'z ichki qonunchiligi yoki xalqaro atrof-muhit bitimlarida belgilangan himoya choralari zaiflashtiradigan yoki kamaytiradigan tarzda bunday qonunlardan voz kechmasligi yoki ulardan chekinmasligi yoxud shunday qilishga urinmasligi hamda o'z atrof-muhit qonunchiligini tizimli yoki takroriy harakat yoki harakatsizlik orqali samarador tarzda amalga oshirilishining oldini olishini ta'minlashi lozim. Basharti Tomon boshqa Tomon bunday rag'batlantirishni taklif qilgan deb hisoblasa, u boshqa Tomon bilan maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin va ikkala Tomon bunday rag'batlantirishning oldini olish maqsadida maslahatlashadilar.

2. Mazkur Bitimdagi hech bir qoida bir Tomonning o'z hududida investitsiya faoliyati atrof-muhit muammolariga ta'sirchan tarzda amalga oshirilishini ta'minlash uchun u maqbul deb hisoblagan har qanday chora-tadbirlarni kamsitmaydigan tarzda qabul qilishi, qo'llab-quvvatlashi yoki amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan tarzda tuzilmasligi lozim.

14-modda

Investitsiya va mehnat muhofazasi

1. Tomonlar ichki mehnat qonunchiligida berilgan mehnat huquqlarini zaiflashtirish yoki qisqartirish yo'li bilan investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq emasligini tan oladilar. Har bir Tomon o'z mehnat qonunchiligidan voz kechmasligi yoki ulardan chekinmasligi yoxud ulardan voz kechish yoki boshqa tarzda voz kechishga urinmasligi lozim, basharti voz kechish yoki chekinish uning ichki qonunchiligi hamda xalqaro mehnat huquqlariga zid tarzda yoki o'z ichki qonunchiligi tizimli yoki takroriy harakat yoki harakatsizlik orqali samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilinmasligini ta'minlashi lozim. Basharti Tomon boshqa Tomon bunday rag'batlantirishni taklif qilgan deb hisoblasa, u boshqa Tomon bilan maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin va ikkala Tomon bunday rag'batlantirishning oldini olish maqsadida maslahatlashadilar.

2. Mazkur Bitimdagi hech bir qoida Tomonning o'z hududida investitsiya faoliyati asosiy mehnat standartlariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash uchun u deb hisoblagan har qanday chora-tadbirni kamsitmaydigan tarzda qabul qilishi, qo'llab-quvvatlashi yoki amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan tarzda tuzilishi mumkin emas.

15-modda

Ta'sirni baholash

1. Investorlar har bir taklif etilayotgan investitsiya yoki mavjud investitsiyalarni kengaytirishning atrof-muhitga va ijtimoiy ta'sirini baholashni amalga oshiradilar. Baholashlar qabul qiluvchi davlat qonunchiligi, ro'yxatdan o'tgan davlat qonunchiligi va amaldagi xalqaro huquq talablariga javob berishi lozim.

2. 1-bandga muvofiq talab qilinadigan ta'sirni baholash investitsiyalar ta'sir

qilishi mumkin bo'lgan sohalardagi shaxslarning inson huquqlariga ta'sirini baholashni o'z ichiga oladi.

3. Investorlar yoki ularning investitsiyalari atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholashni samarali va yetarlicha o'z vaqtida, qabul qiluvchi davlatda investitsiyalarni tashkil etish jarayonlari tugashidan oldin investor, investitsiya yoki hukumatga sharhlar berish imkoniyatini ta'minlash uchun mahalliy jamoalar yoki potensial ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hududlar uchun ochiq va foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

4. Investor yoki Investitsiya tomonidan ushbu moddaning buzilishi qabul qiluvchi davlatning Investitsiyani tashkil etish va amalga oshirish to'g'risidagi qonunchiligini buzish deb hisoblanadi.

16-modda **Subrogatsiya**

1. Basharti bir Tomon yoki uning vakolatli organi boshqa Tomon hududidagi Investorlar tomonidan Investitsiyalarga nisbatan notijorat tavakkalchiliklardan har qanday zararni qoplashni kafolatlasa va bunday Investorlarga mazkur Bitim bo'yicha ularning talablariga nisbatan to'lovni amalga oshirsa, boshqa Tomon birinchi Tomon yoki uning vakolatli organi subrogatsiya tufayli ushbu Investorlarning huquqlarini amalga oshirish va talablarini qondirish huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi. Subrogatsiya qilingan huquqlar yoki talablar bunday Investorlarning dastlabki huquqlari yoki talablaridan oshib ketmasligi kerak.

2. Mazkur moddaning 1-bandida belgilangan subrogatsiya holatida, basharti Tomon yoki uning vakolatli organi tomonidan bunga ruxsat berilmagan bo'lsa, Investor da'vo qo'zg'atishga haqli emas.

17-modda **Korrupsiyaga qarshi kurashish**

1. Har bir Tomon mazkur Bitimda qamrab olingan masalalar bo'yicha korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar va sa'y-harakatlar ko'rilishini ta'minlaydi.

2. Investorlar va ularning investitsiyalari investitsiyalar ta'sis etilgunga qadar yoki undan keyin qabul qiluvchi davlatning mansabdor shaxsiga yoki mansabdor shaxsga bevosita yoki vositachilar orqali yaqin bo'lgan har qanday shaxsga, ushbu mansabdor shaxs yoki uchinchi shaxs uchun taklif qilingan investitsiyaga yoki har qanday litsenziyalar, ruxsatnomalar, shartnomalar yoki investitsiyaga nisbatan boshqa huquqlarga nisbatan har qanday imtiyozga erishish uchun mansabdor shaxs yoki uchinchi shaxs o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan harakat qilishi yoki harakat qilishdan o'zini tiyishi uchun hech qanday ortiqcha pul yoki boshqa imtiyozlarni taklif qilmaydi, va'da bermaydi yoki taqdim qilmaydi.

3. Investorlar va ularning investitsiyalari 2-bandda tavsiflangan har qanday xatti-harakatlarda, shu jumladan bunday xatti-harakatlarni sodir etishga yoki ruxsat berishga undashda, ko'maklashishda va til biriktirishda ishtirok etmaydi.

4. Investor yoki Investitsiya tomonidan ushbu moddaning buzilishi qabul qiluvchi davlatning Investitsiyani tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi qonunchiligini buzish deb hisoblanadi.

5. Tomonlar o'zlarining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, ushbu majburiyatlarni bajarishda amaldagi qonunchilikni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortadilar va sudlangan taqdirda ularni jazolaydilar.

18-modda

Ro'yxatga olingan davlatda investorning javobgarligi

1. Investorlar qabul qiluvchi davlatda jiddiy zarar, shaxsiy jarohatlar yoki o'limga olib keladigan investitsiyalarga nisbatan qabul qilingan harakatlar yoki qarorlar uchun ular ro'yxatga olingan davlatining sud jarayonida javobgarlik uchun fuqarolik da'volariga tortiladilar.

2. Ro'yxatga oluvchi davlat o'z huquqiy tizimlari va qoidalari qabul qiluvchi Tomon hududida Investorlar tomonidan ularning Investitsiyalariga nisbatan sodir etilgan da'vo qilingan harakatlar, qarorlar yoki harakatsizliklar natijasida yetkazilgan zarar uchun Investorlar va Investitsiyalarning fuqarolik javobgarligi bilan bog'liq bo'lgan sud harakatlarini o'zlarining ichki sudlariga mazmunan yetkazishga imkon berishini yoki bunga to'sqinlik qilmasligini yoki asossiz ravishda cheklamasligini ta'minlashi lozim.

19-modda

Investorlar haqidagi ma'lumotlardan foydalanish

1. Qabul qiluvchi davlatlar Investordan, investitsiya kiritish salohiyatiga ega Investordan yoki ro'yxatga olingan davlatidan Investorning korporativ boshqaruv tarixi va uning Investor sifatidagi, shu jumladan u ro'yxatdan o'tgan davlatdagi amaliyoti to'g'risida ma'lumot olish huquqiga ega.

2. Qabul qiluvchi davlatlar bu borada o'zlari oladigan maxfiy ishbilarmonlik himoya qilishi lozim.

3. Qabul qiluvchi davlatlar maxfiy biznes ma'lumotlarini himoya qilish va boshqa amaldagi ichki qonunchiligiga rioya qilish sharti bilan taqdim etilgan ma'lumotlarni investitsiyalar joylashgan yoki investitsiya kiritilishi kutilayotgan hamjamiyatda jamoatchilik e'tiboriga taqdim etishlari mumkin.

20-modda

Afzalliklarni rad etish

Qabul qiluvchi davlat istalgan vaqtda, shu jumladan ushbu Bitimning 24-moddasiga muvofiq arbitraj muhokamasi instituti joriy etilgandan so'ng, quyidagilarga nisbatan ushbu Bitimning afzalliklarini rad etishi mumkin:

1. Qabul qiluvchi davlatning shaxslari yoki muassasalari tomonidan bevosita yoki bilvosita egalik qilinadigan yoki nazorat qilinadigan investitsiya yoki investor; yoki

2. Qabul qiluvchi davlat Bitim ishtirokchisi bo'lmagan tomonga nisbatan

qabul qilgan yoki qo'llab-quvvatlagan choralar, basharti mazkur Bitim doirasida Investor yoki uning Investitsiyalariga nisbatan qo'llanilgan imtiyozlarni buzishi yoki chetlab o'tishga xizmat qilsa, Bitim ishtirokchisi bo'lmagan tomonning shaxslari yoki muassasalari tarafidan bevosita yoki bilvosita egalik qilinadigan yoki nazorat qilinadigan investitsiya yoki Investorga nisbatan;

3. Ushbu Bitimda nazarda tutilgan nizolarni hal qilish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishning asosiy maqsadi bilan tashkil etilgan yoki qayta tuzilgan Investitsiya yoki Investor; yoki

4. Qabul qiluvchi davlat hududida yetarli darajada hech qanday ishbilarmonlik olib bormaydigan investitsiyaga nisbatan.

21-modda

Davlatning tartibga solish huquqi

1. Xalqaro odat huquqi va xalqaro huquqning boshqa umumiy tamoyillariga muvofiq, qabul qiluvchi davlat o'z hududidagi rivojlanish barqaror rivojlanish maqsadlari va tamoyillariga hamda boshqa qonuniy ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy siyosat maqsadlariga mos kelishini ta'minlash uchun tartibga solish yoki boshqa choralarni ko'rish huquqiga ega.

2. Aniqroq bo'lishi uchun Tomonning boshqa shartnomalar bo'yicha o'z xalqaro majburiyatlarini bajarish uchun ko'rgan kamsitmaydigan chora-tadbirlari ushbu Bitimning buzilishini anglatmaydi.

22-modda

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat

Har bir Tomon o'z hududida yoki uning yurisdiksiyasi doirasida faoliyat yurituvchi korxonalarni o'z amaliyoti va ichki siyosatida korporativ ijtimoiy mas'uliyatning xalqaro tan olingan standartlarini, masalan, Tomonlar tomonidan ma'qullagan yoki qo'llab-quvvatlagan tamoyillar bayonotlarini ixtiyoriy ravishda qo'llashni rag'batlantirishi kerak. Ushbu tamoyillar mehnat, atrof-muhit, inson huquqlari, jamoatchilik munosabatlari va korrupsiyaga qarshi kurash kabi masalalarni qamrab oladi.

23-modda

Nizolarning oldini olish va tinch yo'l bilan hal qilish

1. Tomonlar o'rtasidagi yoki Investor va bir Tomon o'rtasidagi har qanday nizo iloji boricha sulh va vositachilik kabi majburiy bo'lmagan uchinchi tomonning protseduralaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan maslahatlashuvlar va muzokaralar orqali do'stona hal qilinishi lozim.

2. Basharti Tomon yoki Investor 1-bandga muvofiq maslahatlashuv va muzokaralar o'tkazish to'g'risida so'rov yuborganidan keyin olti (6) oy o'tgach ham kelishuvga erishilmagan bo'lsa, Tomon yoki Investor nizoni ushbu Bitimning 24- yoki 25-moddalariga muvofiq arbitrajga taqdim etishi mumkin.

24-modda**Bir Tomon va boshqa Tomon investori o'rtasidagi nizolarni hal etish**

1. Mazkur modda Investor va qabul qiluvchi davlat o'rtasida investitsiya natijasida yuzaga keladigan va qabul qiluvchi davlatning ushbu Bitim bo'yicha majburiyatlarining investorga yoki uning investitsiyalariga zarar yoki shikast yetkazilishiga olib kelgan ehtimoliy buzilishiga taalluqli nizolarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Mazkur modda Investor va qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi quyidagi nizolarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

a. biror-bir Tomon tarafidan qazib olinadigan energiya manbalari yoki qazib olinadigan mahsulotlar yoki xizmatlarga nisbatan qabul qilingan yoki qo'llab-quvvatlanadigan har qanday chora yoki Investorlar yoki Investitsiyalarga beriladigan har qanday rejim;

b. soxta noto'g'ri ma'lumot berish, yashirish, korrupsiya yoki jarayonni suiiste'mol qilishdan iborat xatti-harakatlar orqali amalga oshirilgan investitsiya; yoki

c. ushbu Bitim kuchga kirgunga qadar yuz bergan hodisalar.

3. Basharti nizoni 23-moddaga muvofiq maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal etish mumkin bo'lmasa, Investor nizoni arbitrajga quyidagi tartibda taqdim etishi mumkin:

a. Davlatlar va boshqa davlatlar fuqarolari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risidagi Konvensiya ("ICSID Konvensiyasi"), basharti ushbu Konvensiya Tomonlarga nisbatan qo'llanilsa;

b. Xalqaro savdo palatasining Arbitraj qoidalari;

c. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasining (UNCITRAL) Arbitraj qoidalari; yoki

d. har qanday boshqa arbitraj qoidalari, basharti barcha nizolashuvchi tomonlar rozi bo'lsa.

4. Nizo 1-bandda nazarda tutilgan arbitraj mexanizmlaridan biriga taqdim etilgandan so'ng, tartib-taomilni tanlash yakuniy hisoblanadi.

5. Investor ushbu Bitimga muvofiq arbitrajga quyidagi shartlarda da'vo taqdim etishi mumkin:

a. 23-moddaga muvofiq maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish to'g'risidagi so'rov yuborilgan sanadan boshlab olti (6) oy o'tgan bo'lsa;

b. Investor qabul qiluvchi davlatning ichki sudlari orqali mahalliy himoya vositalaridan foydalanadigan bo'lsa;

c. Investorga yoki uning Investitsiyasiga yo'qotish yoki zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan taxmin qilingan qoidabuzarlik to'g'risida xabardor bo'lgan yoki bo'lishi kerak bo'lgan sanadan boshlab uch (3) yildan ko'p bo'lmagan muddat o'tgan bo'lsa.

6. Nizo Tomonlari arbitraj muhokamasida uning vakili bo'lish xarajatlarini to'laydi. Hakamlik sudylarining xarajatlari va qolgan xarajatlar nizoda taraflari tomonidan teng ulushlarda qoplanadi. Tribunal basharti ishning natijasiga fakt

yoki huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan da'vo ochiqdan-ochiq asossiz deb topilgan bo'lsa yoki tomon hakamlilik muhokamasining samaradorligi va tezkorligiga to'sqinlik qilgan bo'lsa, barcha xarajatlar, shu jumladan yuridik vakillik xarajatlari yoki xarajatlarning ko'proq qismi nizoda yutqazuvchi tomon qoplashi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

7. Yakuniy qaror qabul qilinguniga qadar yoki undan so'ng, qabul qiluvchi davlat mulkiga nisbatan musodara, ushlab qolish yoki majburiy ijroga qaratish hech qanday majburiy choralar qo'llanilmasligi lozim.

25-modda

Tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish

1. Mazkur modda Tomonlar o'rtasida mazkur Bitimni talqin qilish yoki ijro etish bilan bog'liq nizolarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Tomonlar ushbu Bitimning 24-moddasiga muvofiq maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan har qanday nizoni adolatli va tez hal etishga vijdonan harakat qilishi lozim.

3. Basharti nizo maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, Tomonlardan biri nizoni hal etish uchun quyidagilarga topshirishi mumkin:

- a. ushbu moddaning qoidalariga muvofiq ad hoc arbitraj sudi;
- b. ushbu muassasa qoidalariga muvofiq doimiy arbitraj muassasasi; yoki
- c. Xalqaro Adolat sudi.

4. Basharti Tomon nizoni hal etish uchun vaqtinchalik arbitraj sudiga taqdim etgan bo'lsa:

a. Arbitraj sudi uchta hakamdan iborat bo'ladi. Har bir Tomon bittadan arbitraj tayinlaydi, shu tariqa tayinlangan ikki arbitraj esa Tomonlar roziligi bilan uchinchi mamlakat fuqarosini Arbitraj Raisi etib tayinlaydi.

b. Basharti Tomonlardan biri arbitraj o'tkazish to'g'risida iltimos qilgan kundan boshlab olti oy ichida tribunal tuzilmagan bo'lsa, Tomonlardan biri, boshqa biror-bir kelishuv bo'lmagan taqdirda, Xalqaro Adolat Sudi Prezidentidan har qanday zarur tayinlovlarni amalga oshirishni so'rashi mumkin. Basharti Prezident biror-bir Tomonning fuqarosi bo'lsa yoki tayinlashlarni amalga oshirishga boshqa yo'l bilan to'sqinlik qilinsa, Xalqaro Adolat Sudining Tomonlar fuqarosi bo'lmagan navbatdagi a'zosidan zaruriy tayinlovini amalga oshirish so'raladi.

c. Arbitraj sudi o'z tartib-qoidalarini o'zi belgilaydi.

d. Barcha da'volar, basharti boshqacha kelishilmagan bo'lsa, uchinchi hakam tayinlangan kundan boshlab olti oy ichida taqdim etiladi va barcha sud majlislari tugallanadi.

e. Arbitraj sudi o'z qarorlarini ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi. Bunday qarorlar qat'iy va ikkala Tomon uchun majburiy hisoblanadi.

f. Arbitraj sudi Tomonlarning yakuniy taqdimnomalari sanasidan boshlab ikki oy ichida qaror chiqarishga harakat qiladi.

5. Nizoning har bir tarafi arbitraj muhokamasida uning vakili bo'lish qiymatini to'laydi. Arbitraj sudining xarajatlari va qolgan xarajatlar nizodagi taraflar tomonidan teng ulushlarda qoplanadi. Alohida hollarda, sud barcha xarajatlarni,

shu jumladan advokatlik xarajatlarini yoki xarajatlarning yuqori qismini ikkala Tomondan biri o'z zimmasiga olishi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

6. Arbitraj sudining qarori ikkala Tomon uchun ham majburiy hisoblanadi.

26-modda

Uchinchi tomon mablag'larini jalb qilish

1. Mazkur Bitimning 25-moddasiga muvofiq hakamlik muhokamasida uchinchi tomon mablag'laridan foydalanishga va ularni jalb etishga yo'l qo'yilmaydi, basharti:

a. nizo tomonlari ushbu ishtirokka aniq tarzda rozilik bermasa; yoki

b. nizo tomoni:

i. arbitraj sudi va boshqa nizolashuvchi Tomonlarni har qanday uchinchi tomon moliyalashtiruvchisining ishdagi ishtiroki va shaxsi to'g'risida xabardor qilmasa, va

ii. xarajatlarning ta'minotini sud tomonidan belgilangan miqdorda va shaklda joylashtirilmasa.

2. Mazkur modda maqsadlarida uchinchi tomon moliyalashtiruvchi deb o'lingan, unga ko'ra nizodagi tomon bo'lmagan shaxs hakamlik muhokamasi natijasidan iqtisodiy manfaatdor bo'lgan holda, da'volarni yoki himoyani moliyalashtirish bo'yicha kelishuvni anglatadi.

3. Quyidagilar ushbu modda maqsadlari uchun uchinchi tomondan moliyalashtirishni nazarda tutmaydi:

a. kompaniyalar guruhi doirasida kompaniyalararo moliyalashtirish;

b. bir tomon va uning advokati o'rtasidagi to'lov kelishuvlari; yoki

c. bilvosita foizlar, masalan, bank tarafga arbitraj muhokamasini moliyalashtirish uchun emas, balki uning doimiy faoliyati davomida kredit bergan bo'lsa.

4. Mazkur moddaning buzilishi nizoning tugatilishiga olib keladi.

27-modda

Bitimga o'zgartirishlar kiritish

Mazkur Bitim Tomonlarning o'zaro roziligi bilan notalar almashish yoki o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi bitimni imzolash yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. O'zgartirish ushbu Bitimning 28-moddasida nazarda tutilgan kuchga kirish tartibi bajarilgandan so'ng kuchga kiradi.

28-modda

Kuchga kirishi

Tomonlar mazkur Bitimning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan o'z ichki huquqiy tartib-taomillarini bajarilganligi to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar. Mazkur Bitim so'nggi xabarnoma olingan sanadan o'ttiz (30) kun o'tgach kuchga kiradi.

29-modda

Amal qilish muddati va tugatilishi

1. Mazkur Bitim o'n (10) yil muddatga amal qiladi. Tomonlardan biri ushbu Bitimning amal qilish muddati tugashidan kamida 6 (olti) oy oldin uning amal qilishini tugatish haqida xabar berishi mumkin. Basharti bunday ogohlantirish bo'lmasa, ushbu Bitim Tomonlardan biri boshqa Tomonni ushbu Bitimning amal qilishini tugatish niyati to'g'risida yozma ravishda xabardor qilmaguncha noma'lum muddat davomida amal qilishda davom etadi.

2. Bir Tomon mazkur Bitimning amal qilishini tugatish to'g'risida boshqa Tomonga diplomatik kanallar orqali yozma xabarnoma yuborish yo'li bilan tugatishi mumkin. Tugatish Tomonlar kelishib olgan kundan boshlab, basharti Tomonlar kelishuvga erisha olmasalar, tugatishi to'g'risidagi xabarnoma topshirilgan sanadan olti (6) oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Mazkur Bitimning amal qilishini tugatish sanasiga qadar amalga oshirilgan va uning ta'sir doirasiga kiradigan investitsiyalarga nisbatan ushbu Bitimning boshqa barcha bandlari qoidalarini uning amal qilishini tugatish sanasidan keyin uch (3) yil davomida o'z kuchini saqlab qoladi.

30-modda

Bitimni davriy ko'rib chiqish

1. Tomonlar mazkur Bitim kuchga kirgandan so'ng, har besh (5) yilda uning bajarilishi va samaradorligini, shu jumladan Tomonlar o'rtasidagi investitsiyalar darajasini ko'rib chiqish uchun maslahatlashuvlar chaqiradilar yoki o'tkazadilar.

2. Tomonlar mazkur Bitimning samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar ko'rishlari mumkin.

Toshkent shahrida, 2025-yil 28-oktabrda, ikki asl nusxada, har biri o'zbek, serb va ingliz tillarida tuzildi, bunda har ikkala matn bir xil kuchga ega. Mazkur Bitim qoidalarini talqin qilishda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Italiya Respublikasi
Hukumati o'rtasida ichki ishlar sohasida hamkorlik to'g'risida
BITIM**

Rim, 2023-yil 8-iyun

*[O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari davlat reyestrda
2023-yil 21-iyunda ro'yxatga olindi, ro'yxat raqami 4515-IT-2023-H]*

*Mazkur Bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-oktabrdagi
"Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-320-son qarori bilan
tasdiqlangan*

(O'zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 9-iyundan kuchga kirgan)

Muqaddima

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Italiya Respublikasi Hukumati, keyingi o'rinlarda Tomonlar deb ataluvchilar,

jinoyatchilikning turli shakllarining jamoat tartibi va xavfsizligi, shuningdek, fuqarolarning farovonligiga salbiy oqibatlaridan ogoh bo'lib,

jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, inson huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlashda ichki ishlar organlari o'rtasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib,

tenglik va o'zaro manfaatli hamkorlik prinsiplari asosida mavjud do'stona aloqalarni mustahkamlash niyatida,

Giyohvand vositalari to'g'risidagi Yagona konvensiya (Nyu-York, 1961-yil 30-mart), uning o'zgartirishlar to'g'risidagi qo'shimcha Protokoli (Jeneva, 1972-yil 25-mart), Psixotrop moddalar to'g'risidagi Konvensiya (Vena, 1971-yil 21-fevral), Giyohvand vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish to'g'risida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Konvensiyasi (Vena, 1988-yil 20-dekabr), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi (Nyu-York, 2000-yil 15-noyabr) va uning quruqlik, dengiz yoki havo orqali migrantlarning kontrabandasiga qarshi qo'shimcha Protokoli (Nyu-York, 2000-yil, 15-noyabr), Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, unga chek qo'yish va jazolash Protokoli (Nyu-York, 2000-yil 15-noyabr), Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) hamda O'zbekiston Respublikasi va Italiya Respublikasi ishtirokchi bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida qabul qilingan terrorizmga qarshi Konvensiyalar, shuningdek, Global harakatlar rejasi (Nyu-York, 1990-yil 23-fevral) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 45/123-sonli Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik to'g'risidagi rezolyutsiyasini (Nyu-York, 1990-yil 14-dekabr) inobatga olib,

O'zbekiston Respublikasi, bir tomondan, va Yevropa Hamjamiyatlari hamda ularga A'zo-Davlatlar, ikkinchi tomondan, o'rtasida sherikchilik ta'sis etuvchi

sherikchilik va hamkorlik to'g'risida Bitimning 72-moddasi qoidalarni inobatga olib,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda
Maqsadlar

1. Mazkur Bitimning maqsadi barcha ko'rinishlardagi og'ir va yangi paydo bo'layotgan jinoyatchilik shakllari va terrorizmning oldini olish hamda unga chek qo'yish bo'yicha hamkorlikni rag'batlantirish, rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat.

2. Mazkur Bitim amaldagi xalqaro huquqqa hamda Italiya tomoniga nisbatan uning Yevropa Ittifoqiga a'zolidan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

2-modda
Vakolatli organlar

1. Quyidagilar mazkur Bitimni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organlar hisoblanadi:

- a. O'zbek tomoni uchun — Ichki ishlar vazirligi;
- b. Italiya tomoni uchun — Ichki ishlar vazirligi.

3-modda
Hamkorlik sohalari

1. Tomonlar jiddiy va yuzaga kelayotgan jinoiy hodisalar hamda uning barcha shakllaridagi transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va ularga qarshi kurashishda, quyidagi sohalarga alohida e'tibor qaratib, biroq ular bilan cheklanmagan holda, hamkorlik qiladilar:

- a. Transmilliy uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya;
- b. Ikkala Tomonning milliy qonunchiligi yoki ular uchun majburiy bo'lgan tegishli xalqaro konvensiyalarga muvofiq jinoyatlar deb topiladigan terroristik guruhlar faoliyati, shu jumladan, ushbu terroristik guruhlarini moliyalashtirishga qaratilgan faoliyatlar;
- c. Shaxslarga qarshi jinoyatlar, xususan, odam o'g'irlash va fohishabozlikdan foydalanish;
- d. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni hamda ularning kimyoviy prekursorlarini, shuningdek, ularni ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy kimyoviy moddalarni, psixofaol prinsiplarni o'z ichiga olgan va doping qo'llashda foydalaniladigan dori vositalarini, yangi psixoaktiv moddalarning (YaPM) qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi va muomalasi;
- e. Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar, shuningdek, inson a'zolari va to'qimalari savdosi hamda migrantlar kontrabandasi va ular bilan bog'liq jinoyatlar;
- f. Qurollar, o'q-dorilar, portlovchi moddalarning noqonuniy muomalasi;
- g. Kiberjinoyat va onlayn bolalar pornografiyasi;

h. Iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar, shu jumladan, jinoiy daromadlarni legallashtirish;

i. Jinoiy daromadlarni legallashtirish;

j. Mulkiy jinoyatlar, shu jumladan, tarixiy va madaniy meroslarga qarshi jinoyatlar;

k. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar;

l. Pul, to'lov kartalari va boshqa to'lov hujjatlarini qalbakilashtirish va umuman qalbakilashtirish bilan bog'liq jinoyatlar;

m. Transport jinoyatlari;

n. Boshqa og'ir jinoyatlar.

2. Vakolatli organlar jinoiy qilmishlar sodir etilishining oldini olish maqsadida quyidagilarni kafolatlash uchun ham hamkorlik qiladilar:

a. Ayniqsa, yirik tadbirlar va ijtimoiy inqirozlar munosabati bilan jamoat tartibi va xavfsizligi;

b. jamoatchilik politsiyasini (ichki ishlar jamoatchilik tartibini) rivojlantirish;

c. yo'l harakati xavfsizligi, aeroportlar, temir yo'llar, metrolar, shuningdek, turistik joylarda xavfsizlik;

d. sud ekspertizasi sohasida hamkorlik;

e. kinologiya sohasida hamkorlik;

f. sog'lig'i yoki yoshiga ko'ra o'zi to'g'risida ma'lumot bera olmaydigan shaxslarni, shuningdek, shaxsi noma'lum jasadlarni aniqlash;

g. politsiya (ichki ishlar) kuchlari tomonidan qo'llaniladigan material, jihoz va texnologiyalar haqida ma'lumot almashish;

h. axborot va telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishda hamkorlik qilish;

i. asosiy, malaka oshirish va ixtisoslashtirilgan tayyorlov sohasida, shuningdek, bir Tomon xodimlarining boshqa Tomon mamlakatida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan mavzularda tashkil etiladigan o'quv kurslari va tadbirlarida ishtirok etishi orqali hamkorlik qilish.

3. Mazkur Bitim ekstraditsiya masalalariga va jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishga ta'sir qilmaydi.

4. Vakolatli organlar qoidalari jinoyatchilikka qarshi kurashning muayyan sohalarida Tomonlarning hamkorligini belgilaydigan texnik kelishuvlar tuzishlari mumkin.

4-modda

Hamkorlik shakllari

1. Mazkur Bitimda nazarda tutilgan hamkorlik shakllari quyidagilardan iborat:

A) Quyidagilar bo'yicha axborot almashinuvi olib boriladi:

a. jinoyatlar, uyushgan jinoiy guruhlar, tuzilgan guruhlar va ularga aloqador shaxslar, shuningdek, ularning tuzilishi, boshqaruvi va ishlash uslubi to'g'risida;

b. qidiruvdagilarni izlash;

c. tegishli hududlarda faoliyat yuritayotgan terroristik guruhlar va ularga aloqador shaxslar, shuningdek, ularning ishlash usullari to'g'risida;

d. giyohvandlik vositalari, ularning prekursorlari va kimyoviy moddalarning muomalasi bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risida;

e. noqonuniy qo'lga kiritilgan aktivlarni aniqlash va topish bo'yicha;

f. tartibsiz immigratsiya bo'yicha;

g. buzib ko'rsatilgan va qalbakilashtirilgan hujjatlarni aniqlash maqsadida pasportlar va boshqa sayohat hujjatlari, viza hamda kirish-chiqish shtamplari namunalari to'g'risida;

h. kiberjinoyatga, xususan, bolalar jinsiy ekspluatatsiyasiga va onlayn bolalar pornografiyasiga qarshi kurashish;

i. vakolatli organlar uchun o'zaro qiziqish uyg'otadigan boshqa ma'lumot almashinuvi.

B) umumiy qiziqish uyg'otadigan jinoiy hodisalarni tahlil qilish va tezkor vositalar va ilg'or tajribalarni, xususan, quyidagilarni almashish:

a. olib qo'yilgan va musodara qilingan mol-mulkni boshqarish;

b. tegishli mamlakatlarda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning yangi turlari, kimyoviy prekursorlar va ular bilan bog'liq jinoyatlar, shuningdek, bunday moddalarning kompyuter tarmoqlari orqali xalqaro aylanmasi to'g'risida hamda olib qo'yilgan giyohvandlik vositalari namunalarning tahlillari natijalari to'g'risida;

c. jinoyatchilikka qarshi kurashning qonunchilik va ilmiy vositalari, shu jumladan, tergov va ilmiy tahlil usullari to'g'risida;

d. jamoat ishlari bo'yicha tenderlarda ishtirok etuvchi kompaniyalarning jinoiy kirib kelishining oldini olish va chek qo'yish usullari va tezkor amaliyotlari to'g'risida;

e. odam savdosi va muhojirlarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashish usullari to'g'risida;

f. boshqa Tomonning hududida immigratsiya qonunchiligiga ko'ra, tartibsiz bo'lib turgan o'zlarining fuqarolarini aniqlash va qayta qabul qilish to'g'risida, bunday hamkorlikni yaxshiroq amalga oshirish uchun tezkor tadbirlarni o'z ichiga olgan ijro etish bayonnomasini tuzish imkoniyati bilan.

C) nazorat ostida yetkazib berish, elektron kuzatuv yoki kuzatuvning boshqa shakllari va maxfiy operatsiyalar kabi maxsus tergov usullarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish uchun zarur choralar ko'rish;

D) 5-moddada nazarda tutilgan yordam so'rovlarini ijro etish;

E) Quyidagilarda strategik hamkorlikni amalga oshirish:

a) xodimlarni tayyorlash bo'yicha treninglar va ilg'or amaliyotlar;

b) tajriba va ekspertlar almashinuvi;

c) kurslar, o'quv tadbirlari va qo'shma tadbirlarni tashkil etish;

d) salohiyatni oshirish;

e) tashriflar, seminarlar tashkil etish, ilg'or tajriba almashish;

f) qonunchilik, ilmiy va texnologik vositalar, tashkillashtirish va boshqarish, ilmiy-tadqiqot va texnologik innovatsiyalar, yuzaga kelayotgan xavfsizlik

tahdidlarini tahlil qilish va ularni cheklashga qaratilgan siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha axborot almashinuvi.

2. Tomonlarning vakolatli organlari mazkur Bitim kuchga kirgandan so'ng (30) o'ttiz kalendar kun ichida uning qoidalarini amalga oshirish uchun o'zlarining aloqa shaxslari ro'yxatini almashadilar.

5-modda

Yordam ko'rsatish to'g'risida so'rov

1. Mazkur Bitim doirasidagi hamkorlik manfaatdor Tomonning yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rovi (keyingi o'rinlarda — so'rov) asosida amalga oshiriladi. Har bir Tomon boshqa Tomonga o'zida mavjud bo'lgan ma'lumotni, basharti bunday ma'lumotlar boshqa Tomon uchun qiziqish uyg'otishiga asoslar mavjud bo'lsa, so'rovsiz ham yuborishi mumkin.

2. So'rov yozma shaklda, shu jumladan, matn uzatishning texnik vositalaridan foydalangan holda yuboriladi. Zarur hollarda, so'rovlar va ma'lumot og'zaki ravishda yuborilishi mumkin, biroq ular keyingi (3) uch kun ichida yozma ravishda tasdiqlanishi lozim.

3. So'rovning haqiqiyliigi yoki mazmuni yuzasidan shubha uyg'ongan taqdirda, uning qo'shimcha tasdiqlanishi talab qilinishi mumkin.

4. So'rov quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

a. ma'lum bo'lsa, yordam ko'rsatishni so'rayotgan va so'ralayotgan organning nomi;

b. so'rov, uning maqsadi va asosini aks ettiruvchi bayonot;

c. so'rovni lozim darajada bajarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan har qanday boshqa ma'lumot.

5. So'rov rasmiy idoraviy blankda rasmiylashtiriladi hamda so'rayotgan Tomon davlati vakolatli organining mutasaddi mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi.

6. Tomonlar o'z davlatlari vakolatli organlarining so'rovlarni imzolash vakolatiga ega mansabdor shaxslarining ro'yxatlarini va idoraviy blanklar namunalari almashishlari lozim. Tomonlar so'rovlarni imzolash vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarning ro'yxatlari yoki rasmiy idoraviy blanklarda har qanday o'zgarish bo'lgan taqdirda, bu haqda bir-birlarini darhol xabardor qiladilar.

6-modda

Yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rovni ijro etish

1. So'ralayotgan Tomon (30) o'ttiz kalendar kun ichida so'rovning tez va to'liq ijrosini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi. So'ralayotgan Tomon so'rovning bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi yoki uning bajarilishini sezilarli darajada kechiktiradigan holatlar to'g'risida so'rayotgan Tomonni darhol xabardor qiladi.

2. Agar so'rovni bajarish so'ralayotgan Tomon organining vakolatiga kirmasa, mazkur organ darhol bu to'g'risida so'rayotgan Tomonni xabardor qiladi va uning so'roviga ko'ra uni tegishli vakolatli organga yetkazadi.

3. So'ralayotgan Tomon so'rovni lozim darajada bajarish uchun zarur deb hisoblangan qo'shimcha ma'lumotni talab qilishga haqli.

4. So'rovnomanı bajarish so'ralayotgan Tomon davlatining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Agar so'ralayotgan Tomon so'rovni bajarish o'z davlatida amalga oshirilayotgan jinoiy ta'qib yoki jinoiy ish yurituviga aralashishi mumkin deb hisoblasa, u so'rov ijrosini keyinga qoldirishi yoki uning bajarilishini so'rayotgan Tomon bilan maslahatlashuvdan so'ng zarur deb topilgan shartlarga rioya qilish orqali olib borishi mumkin. Agar so'rayotgan Tomon so'rovning bunday shartlarda bajarilishiga rozi bo'lsa, so'ralayotgan Tomon ularga rioya qilishi lozim.

6. So'ralayotgan Tomon so'rovni bajarish natijalari to'g'risida so'rayotgan Tomonni darhol xabardor qiladi.

7-modda

Yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rovni bajarishni rad etish

1. So'ralayotgan Tomon so'rovnomaning bajarilishi o'z davlatining suvereniteti, xavfsizligi, jamoat tartibiga yoki boshqa muhim manfaatlariga zarar yetkazishi, inson huquqlari va erkinliklarining buzilishiga olib kelishi mumkin yoki o'z davlatining qonunchiligiga yoxud xalqaro majburiyatlariga zid deb hisoblasa, so'rovning bajarilishini to'liq yoki qisman rad etishi mumkin.

2. Agar so'rov yuborilishiga sabab bo'lgan qilmish so'ralayotgan Tomon davlatining qonunchiligiga muvofiq jinoyat hisoblanmasa, yordam ko'rsatish rad etilishi mumkin.

3. Imkon bo'lsa, so'ralayotgan Tomon mazkur moddaning 1- va 2-bandlari asosida yordam ko'rsatishni rad etish to'g'risida qaror chiqarishdan oldin so'rayotgan Tomon zarur deb hisoblangan shartlarga amal qilgan holda yordam ko'rsatish mumkinligini ko'rib chiqish uchun so'rayotgan Tomon bilan maslahatlashadi. So'rayotgan Tomon unga yordam ko'rsatilishi uchun asos bo'ladigan shartlarga rioya qilishi lozim.

4. So'rayotgan Tomon so'rov bajarilishining to'liq yoki qisman rad etilishi to'g'risida rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma ravishda xabardor qilinadi.

8-modda

Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash

1. Mazkur Bitimning 4-moddasi 1-bandining A — D bandlarida va 3-moddaning 4-bandida ko'rsatilgan Texnik kelishuvlarga muvofiq, uzatilgan shaxsga doir ma'lumotlar faqatgina 1-moddada nazarda tutilgan maqsadlar uchun va ushbu Bitimning ajralmas qismi bo'lgan 1-ildovada keltirilgan ularni taqdim etishga doir bandlarga muvofiq qayta ishlanadi.

2. Mazkur Bitim va tegishli Texnik kelishuvlarni amalga oshirish uchun olingan boshqa Tomon xodimlari va hamkorlarining shaxsga doir ma'lumotlarining himoyasini ta'minlash uchun Tomonlar bunday ma'lumotni uchinchi tomonlarga

taqdim etmaydilar va har qanday holatda ham boshqa Tomonning yozma roziligisiz ularni kelishilgan maqsadlarga mos kelmaydigan tarzda qayta ishlamaydi.

9-modda **Qo'shma guruhlar**

1. Tomonlar mazkur Bitimni amalga oshirish hamda hamkorlikni baholash va takomillashtirish maqsadida teng miqdordagi vakillardan iborat bo'lgan, yiliga kamida bir marta, xususan, videoanjuman shaklida yig'ilishlar o'tkazadigan, jinoyatchilikka qarshi kurashda ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha amalga oshiriladigan qo'shma harakatlar rejasini va boshqa foydali tashabbuslar ishlab chiqadigan strategik hamkorlik bo'yicha qo'shma guruh tuzadilar.

2. Vakolatli organlar yuzaga kelgan tezkor ehtiyojlarga ko'ra va cheklangan muddatlarda maslahat, yordam ko'rsatish va tahlil qilish vazifalari doirasida faoliyat yurituvchi qo'shma tezkor va tergov ishchi guruhlarini ham tuzishlari mumkin.

10-modda **Maslahatlashuvlar va uchrashuvlar**

Vakolatli organlar vakillari videoanjuman shaklida ham uchrashuvlar va maslahatlashuvlar o'tkazishlari mumkin.

11-modda **Xarajatlar**

1. Basharti, ikkala vakolatli organlar yozma ravishda boshqacha tarzda kelishmagan bo'lsalar, yordam so'rovlarini bajarish bilan bog'liq joriy xarajatlarni qabul qiluvchi vakolatli organ qoplaydi. Agar yordam so'rovi katta yoki nazarda tutilmagan xarajatlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, vakolatli organlar so'rovni ko'rib chiqish muddatlari va shartlarini va xarajatlarni taqsimlash usulini ishlab chiqish uchun maslahatlashadilar.

2. Vakolatli organlar tomonidan boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, uchrashuvlar xarajatlarini qabul qiluvchi vakolatli organ, yo'l va turar joy xarajatlarini esa yuboruvchi vakolatli organ qoplaydi.

3. Tomonlar bir-birlariga jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va materiallarni o'z ichiga oluvchi beg'araz ko'mak ko'rsatadilar.

12-modda **Foydalaniladigan ishchi tillar**

1. Tomonlar mazkur Bitim doirasidagi hamkorlikni amalga oshirishda o'zbek, italyan va ingliz tillaridan foydalanadilar.

2. So'rovlar so'ralayotgan Tomonning rasmiy tiliga yoki ingliz tiliga tarjima qilish sharti bilan so'rayotgan Tomonning rasmiy tilida yuboriladi.

13-modda **Nizolarni hal etish**

Mazkur Bitimni talqin qilish yoki qo'llash bilan bog'liq har qanday nizolar Tomonlar o'rtasida bevosita maslahatlashuvlar va muzokaralar orqali hal etiladi.

14-modda **Mutanosiblik sharti**

Mazkur Bitimning qoidalari Tomonlarning ular ishtirokchi bo'lgan boshqa xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

15-modda **Yakuniy qoidalar**

1. Mazkur Bitim uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan Tomonlarning davlat ichki protseduralari bajarilganligini tasdiqlovchi ikkita yozma xabarnomalarning so'nggisi olingan sanadan boshlab kuchga kiradi. Basharti Tomonlardan biri boshqa Tomonni mazkur Bitimni tugatish niyati to'g'risida tugatilish sanasidan kamida 6 (olti) oy oldin yozma ravishda xabardor qilmasa, mazkur Bitim nomuayyan muddat davomida amal qiladi.

2. Mazkur Bitim kuchga kirishi bilan Rim shahrida 2000-yil 21-noyabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Italiya Respublikasi Hukumati o'rtasida uyushgan jinoyatchilik, terrorizm hamda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risidagi Bitim o'z kuchini yo'qotadi.

3. Tomonlarning o'zaro yozma kelishuviga muvofiq, mazkur Bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Ushbu kelishilgan o'zgartirish va qo'shimchalar mazkur Bitimning ajralmas qismi hisoblanadi va ushbu moddaning 1-bandi qoidalariga muvofiq, kuchga kiradi.

4. Mazkur Bitim tugatilgan taqdirda, uning qoidalari mazkur Bitimga muvofiq amalga oshirilayotgan barcha tugatilmagan tadbirlarga nisbatan qo'llanishda davom etadi.

Tegishli tartibda vakolatlangan quyida imzo chekuvchilar shunga guvohlik berib, mazkur Bitimni imzoladilar.

Rim shahrida 2023-yil 8-iyunda ikki asl nusxada, har biri o'zbek, italyan va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir.

Talqin qilishda tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

Shaxsga doir ma'lumotlarni topshirish to'g'risidagi QOIDALAR

O'zbekiston va Italiya qonunchiligi, shuningdek, Italiya tomoniga nisbatan uning Yevropa Ittifoqiga a'zoligidan kelib chiqadigan majburiyatlarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Italiya Respublikasi Hukumati o'rtasida ichki ishlar sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitimning (keyingi o'rinlarda — Bitim) 2-moddasiga muvofiq, har bir Tomonning “vakolatli organi” boshqa Tomonni mazkur Ilovaning bandlarida ko'rsatilgan kafolatlar asosida shaxsga doir ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Bunday kafolatlar Tomonlar uchun majburiydir va ularning tegishli qonunchiligidagi har qanday ziddiyatli majburiyatlardan ustun hisoblanadi.

I. Ta'riflar

Ushbu bandlar maqsadlarida quyidagilar qo'llaniladi:

(a) **“Markaziy vakolatli organ”** — bu mazkur Bitimda ma'lumot almashish uchun aloqa nuqtasi sifatida ko'rsatilgan organ (organlar) yoki uni amalga oshirish uchun vakolatli hisoblangan organ (organlar)dir;

(b) **“boshqa organ”** — milliy qoidalariga muvofiq, davlat vakolatlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan davlat organi yoki organ yohud tashkilot va jinoyatlarning oldini olish, tergov qilish, aniqlash va bartaraf etish yoki jinoiy jazo choralari qo'llash, shu jumladan, undan himoya qiluvchi organdir;

(c) **“shaxsga doir ma'lumotlar”** — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotni anglatadi;

(d) **“shaxsga doir ma'lumotlar subyekti”** — shaxsga doir ma'lumotlar taalluqli bo'lgan jismoniy shaxsni anglatadi;

(e) **“maxsus ma'lumotlar”** — bu irqiy yoki etnik kelib chiqishi, jamoat fikri, diniy yoki falsafiy e'tiqodlari, kasaba uyushmasiga mansubligini, jismoniy shaxsni yagona aniqlash uchun mo'ljallangan genetik yoki biometrik ma'lumotlar, shu jumladan, har qanday shaxsning sog'lig'i va jinsiy hayotiga doir ma'lumotlarni aks ettiruvchi har qanday shaxsga doir ma'lumotlardir;

(f) **“sudga oid ma'lumotlar”** — bu jinoiy hukmlar va jinoyatlar yoki tegishli xavfsizlik choralari bilan bog'liq har qanday shaxsga doir ma'lumotlardir;

(g) **“umumiy ma'lumotlar”** — bu maxsus yoki sudga oid bo'lmagan har qanday shaxsga doir ma'lumotlardir;

(h) **“qayta ishlov berish”** — bu yig'ish, ro'yxatdan o'tkazish, tashkillashtirish, tuzilish, saqlash, moslashtirish yoki o'zgartirish, qazib olish, maslahatlashuv, foydalanish yoki uzatish, aylanish yoki o'zaro bog'lanish yoki taqqoslash, cheklash, yo'q qilish yoki buzish kabi har qanday boshqa shakldagi avtomatlashtirilgan jarayonlar yordami bilan yoki ularsiz shaxsga doir ma'lumotlar ustida har qanday operatsiya yoki ko'proq operatsiyalarni amalga oshirishdir;

(i) **“ma'lumotlar uzatish”** — bu huquqni muhofaza qilish maqsadida bir

Tomonning organidan boshqa Tomonning organiga shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish, masalan, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini va xavfsizlikni himoya qilish hamda sud polisiyasi maqsadlari uchun milliy qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi;

(j) **“keyingi muloqot”** — qabul qiluvchi organdan shaxsga doir ma'lumotlarni Tomonlarning ayni shu davlatidagi boshqa organga taqdim etish;

(k) **“keyingi uzatish”** — bu qabul qiluvchi organdan shaxsga doir ma'lumotlarni Tomonlar davlatidan boshqa davlatdagi vakolatli organga yoki xalqaro tashkilotga taqdim etishdir;

(l) **“profilash”** — bu jismoniy shaxsga tegishli maxsus shaxsiy xususiyatlarni baholash uchun shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishdan iborat bo'lgan har qanday shaxsga doir ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash;

(m) **“shaxsga doir ma'lumotlarning buzilishi”** — tasodifiy yoki noqonuniy ravishda yo'q qilish, yo'qotish, o'zgartirish, ruxsatsiz tarqatish yoki uzatilgan, saqlangan yoki har qanday tarzda qayta ishlangan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishga olib keladigan xavfsizlikning buzilishi;

(n) **“amaldagi qonunchilik talablari”** — bu har bir organga, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarga doir qoidalarga nisbatan qo'llaniladigan qonuniy asos;

(o) **“Nazorat organi”** — har bir Tomonda (yoki Tomonlardan birida) jinoiy ishlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilikning ijrosini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan mustaqil davlat organi (ma'lumot subyektlari uchun har bir alohida holatga nisbatan himoyaning muqobil darajasini ta'minlashga qodir bo'lgan, boshqa Tomonda tashkil etilgan muqobil ma'muriy mexanizm);

(p) **“ma'lumotlar subyektlarining huquqlari”**:

“axborot olish huquqi” — bu ma'lumot subyektining o'ziga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayonini qisqa, shaffof, tushunarli va foydalanish oson shaklda olish huquqidir;

“kirish huquqi” — bu ma'lumot subyektining o'ziga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayoni olib borilayotganligi yoki amalga oshirilmayotganligi to'g'risida tasdiqlov olish va ushbu holatda o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga hamda davom etayotgan jarayon xususiyatlariga kirish huquqini olish;

“tuzatish huquqi” — bu ma'lumot subyektining o'ziga tegishli noto'g'ri bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni asossiz ravishda kechiktirmasdan tuzatish yoki integratsiya qilish huquqidir;

“o'chirish huquqi” — to'plagan yoki boshqacha tarzda qayta ishlangan ma'lumotlar endilikda qo'yilgan maqsadlar uchun zarur bo'lmasa yoki ma'lumotlar ushbu bandlar va amaldagi qonunchilik talablariga zid ravishda to'plagan yoki qayta ishlangan holatlarda ma'lumot subyektning shaxsga doir o'zining ma'lumotlarini yo'q qilish huquqi;

“qayta ishlashni cheklash huquqi” — bu ma'lumotlar noto'g'ri bo'lsa, qayta ishlash qonunga xilof ravishda amalga oshirilgan bo'lsa yoki ma'lumotlar vakolatli organ uchun endilikda ular to'plagan maqsadlarda zarur bo'lmagan

hollarda, ma'lumot subyektining shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishashni cheklash huquqi;

“avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilinmaslik huquqi, shu jumladan, profillash” — bu ma'lumot subyektining avtomatlashtirilgan ishlov berishga asoslangan qarorlarga, jumladan, profillashga jalb qilinmaslik huquqidir, agar mazkur holat unga huquqiy ta'sir o'tkazsa yoki ayni shunday sezilarli ta'sirga ega bo'lsa;

q) “ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini cheklash”: (p) bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar subyektlarining huquqlari tegishli jismoniy shaxsning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda quyidagi maqsadlarda kechiktirilishi, cheklanishi yoki vaqt davomida zarur va mutanosib chora hisoblansa rad etilishi mumkin:

profilaktika, tergov, jinoyatni aniqlash, jinoyatlarni ta'qib qilish yoki jinoiy jazo choralari qo'llash, shuningdek, shaxsiy va mulkiy profilaktika choralari va xavfsizlik choralari amalga oshirish muvaffaqiyatiga xavf tug'dirmaslik;

jamoat xavfsizligini himoya qilish uchun;

milliy xavfsizlikni himoya qilish;

boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish.

r) “Vakolatli organlar majburiyatlarini cheklash” Vakolat organing umumiy hisobotni taqdim etish majburiyati (q) bandida ko'rsatilgan cheklovlariga muvofiq bajarilishidir.

II. Qo'llanish sohasi

Ushbu qoidalar mazkur Bitimning 1-moddasi maqsadlari uchun zarur bo'lgan, Bitimning 4-moddasi 1-bandining A — D qoidalarida ko'rsatilgan jinoiy faoliyatlarga aloqadorlikda gumonlanuvchi jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini topshirishga nisbatan qo'llaniladi.

III. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish kafolatlari

1. Cheklovlar

Shaxsga doir ma'lumotlar vakolatli organlar o'rtasida faqatgina ushbu Qoidalarining II paragrafida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun uzatiladi. Organlar shaxsga doir ma'lumotlarni yuqorida ko'rsatilganidan boshqa maqsadlarda bermasligi yoki navbatdagi uzatmani amalga oshirmasligi lozim hamda Qoidalarining III paragrafi 6 bandini hisobga olgan holda keyingi qayta ishlash ko'rsatilgan maqsadlar bilan cheklanligi bo'yicha tegishli kafolat olishi lozim.

2. Ma'lumotning mutanosibli va sifati

Ma'lumotni yetkazuvchi Vakolatli organ faqatgina to'g'ri, maqbul hamda uzatilayotgan va keyinchalik qayta ishlash maqsadi bilan cheklangan shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

Ma'lumotni yetkazuvchi Vakolatli organ, imkon qadar, o'zi uzatayotgan shaxsga doir ma'lumotlar to'g'riligini va, lozim deb topsa, yangilanib turishini ta'minlashi lozim. Agar vakolatli organ boshqa organga yuborgan shaxsga doir ma'lumotlar noto'g'ri ekanligini bilsa, u zarur tuzatishlar kiritadigan qabul qiluvchi vakolatli organni xabardor qilishi lozim.

3. Shaffoflik

Har bir vakolatli organ ma'lumotlar subyektlarini quyidagilar to'g'risidagi umumiy hisobot bilan ta'minlaydi:

a) ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mas'ul shaxsning va agar mavjud bo'lsa, ma'lumotlarni himoya qilish uchun mas'ulning shaxsi va aloqa ma'lumotlari;

(b) shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashning maqsadlari va huquqiy asoslari, shuningdek, ma'lumotlarni saqlash muddati yoki uni shakllantirish mezonlari to'g'risida;

(c) xabar yoki keyingi uzatish shaklida yuborilishi mumkin bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni oluvchilarning toifalari;

(d) ushbu bandlar bo'yicha va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, shu jumladan, ushbu huquqlardan qanday foydalanish mumkinligi;

(e) tegishli aloqa ma'lumotlarini ko'rsatgan holda nazorat organiga shikoyat qilish huquqi, shuningdek, sud organiga murojaat qilish huquqi;

(f) yuqorida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish uchun foydali deb hisoblangan qo'shimcha ma'lumotlar, xususan, ma'lumotlar subyektiga to'plangan ma'lumotlar noma'lum bo'lsa;

(g) ushbu huquqlardan foydalanish bo'yicha amaldagi huquqiy talablarda nazarda tutilgan kechiktirishlar, cheklovlar yoki istisnalar to'g'risida ma'lumot.

Har bir organ yuqorida qayd etilgan hisobotni ushbu Bitim bilan birga o'z veb-sayti orqali tarqatadi. Hisobot nusxasi, shuningdek, yuqoridagi saytga havola bilan bir qatorda, ma'lumotlar subyektlariga individual xabarlariga ham kiritilishi kerak.

Vakolatli organ tomonidan umumiy hisobotni taqdim etish majburiyatiga amal qilish Qoidalarining III paragrafi (q) bandidagi cheklovlar bilan tartibga solinadi.

4. Xavfsizlik va maxfiylik

Har bir organ tasodifiy yoki noqonuniy kirish, yo'q qilish, yo'qotish, o'zgartirish yoki ruxsatsiz tarqatishdan olingan shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish uchun tegishli texnikaviy va tashkiliy choralarni ko'rishi lozim.

Ushbu choralar yetarli ma'muriy, texnikaviy va jismoniy xavfsizlik choralarini o'z ichiga oladi.

Ushbu chora-tadbirlar shaxsga doir ma'lumotlarni umumiy, xususiy va sud ma'lumotlariga tasniflash, shaxsga doir ma'lumotlarga kirishga ruxsat berilgan subyektlar uchun cheklovlar, shaxsga doir ma'lumotlarni uning turiga ko'ra, xavfsiz saqlash va shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashga

qaratilgan siyosatni qabul qilish, shuningdek, taxallusni yoki shifrlash usullarini qo'llash orqali amalga oshirilishi lozim.

Muayyan va jinoiy ma'lumotlarni boshqarishda eng qat'iy xavfsizlik choralari, xususan, ko'proq tanlovga asoslangan kirish jarayoni va ushbu ma'lumotlar bilan shug'ullanuvchilar uchun maxsus tayyorgarlikni ta'minlash orqali qo'llanilishi lozim.

Agar qabul qiluvchi vakolatli organ shaxsga doir ma'lumotlarning buzilishi haqida xabardor bo'lsa, u 48 soat ichida yetkazib beruvchi Vakolatli organi xabardor qilishi va ma'lumotlar subyektlariga mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar uchun kamaytirish uchun oqilona va tegishli choralarni ko'rishi lozim, shu jumladan, agar bu ularning huquqlari va erkinliklariga sezilarli tavakkalchilik keltirib chiqaradigan bo'lsa, shaxsga doir ma'lumotlarning buzilganligi haqida asossiz ravishda kechirtirishsiz bevosita xabar berish huquqiga ega.

5. Huquqlardan foydalanish jarayonlari

Har bir organ ma'lumot subyektlari so'roviga asosan quyida keltirilganlarni amalga oshirish uchun tegishli choralarni ko'radi:

(1) ushbu ma'lumotlar subyektiga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlayotganligini tasdiqlash va agar shunday bo'lsa, ma'lumotlarga kirish huquqini berish, shuningdek, qayta ishlash to'g'risida ma'lumot berish, qayd etilgan ma'lumot toifasi, ma'lumotlarning kelib chiqishi va qabul qiluvchilar, kutilayotgan saqlash muddati va shikoyat qilish yoki apellatsiya berish imkoniyati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

(2) ushbu bandlarga muvofiq so'rovchi subyekt boshqa organga topshirgan barcha shaxsga doir ma'lumotlarni aniqlash;

(3) boshqa organga o'tkazmalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan kafolatlar to'g'risida o'z sayti orqali ham umumiy ma'lumotlarni taqdim etish.

Har bir vakolatli organ ma'lumotlar subyektining ma'lumotlarga kirish, ularni tuzatish va o'chirish, qayta ishlash cheklovlari yoki avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilishga jalb qilinmaslik huquqidan foydalanish to'g'risidagi so'rovini oqilona va o'z vaqtida bajarishi lozim.

Yuqoridagi so'rovni yuboriladigan oddiy manzil yoki elektron manzillari Shaffoflik qoidalari to'g'risidagi III paragrafning 3 bandiga muvofiq ma'lumotlar subyektlariga taqdim etiladigan umumiy hisobotda ko'rsatilishi lozim.

Vakolatli organ, basharti ko'rsatilgan so'rov ochiqdan-ochiq asossiz yoki o'ta yuqori xarajatlarni nazarda tutganligi isbotlansa, so'rov bo'yicha ma'muriy xarajatlarni to'lash uchun oqilona yig'im undirish yoki uni bajarishni rad etish bo'yicha tegishli chora qo'llashi mumkin.

Har bir vakolatli organ o'z maqsadlariga yanada samaraliroq erishish uchun avtomatlashtirilgan tartib-qoidalaridan foydalanishi mumkin, agar u sabablarni ko'rsatsa va foydalanilgan mantiqiy tushuntirishlar bergan bo'lsa.

Bunday holda, ma'lumotlar subyektlarining oldindan aniq roziligi olinadi yoki ular avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilishga jalb qilinmaslik huquqiga egaligi e'tirof etiladi.

Har qanday holatda ham, ma'lumotlar subyektlari o'ziga taalluqli noto'g'ri

yoki to'liqsiz ma'lumotlarni tuzatishga va avtomatlashtirilgan qarorni inson aralashuvi orqali ko'rib chiqishni so'rashga haqli.

Xalqaro hamkorlikka xos bo'lgan o'zaro munosabatlar ruhida Tomonlar e'tirof etgan muhim davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida ma'lumotlar subyektlarining huquqlari zaruriy va mutanosib darajada cheklanishi mumkin.

Ushbu soha boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, milliy xavfsizlik, mudofaa, jinoyatlarning oldini olish, tergov qilish, aniqlash va jinoiy javobgarlikka tortish yoki jinoiy jazolarni ijro etish, shuningdek, nazorat, tekshirish yoki tartibga solish funksiyalarini bajarishni, hattoki ba'zan, ularga berilgan davlat vakolatlarini amalga oshiruvchi hokimiyat organlarining ijro va nazorat faoliyatini o'z ichiga oladi.

Qonun bilan tartibga solinadigan yuqoridagi cheklovlar, toki ularni yuzaga keltiruvchi sabab mavjud ekan, o'z kuchida qolishi mumkin.

6. Shaxsga doir ma'lumotlarni keyingi uzatish va taqdim etish

6.1. Shaxsga doir ma'lumotlarni keyingi uzatish

Qabul qiluvchi shaxsga doir ma'lumotlarni organ ayni bir davlatning boshqa organiga ma'lumot uzatayotgan organning oldindan yozma ruxsati bilan va boshqa organ ushbu bandlarda nazarda tutilgan ayni kafolatlarni ta'minlagan taqdirda keyingi uzatishni amalga oshirishi mumkin.

Qabul qiluvchi organ ruxsat berish to'g'risidagi so'rovida o'zi yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumotlar turi, boshqa organ, shuningdek, huquqiy asoslar, sabablar va xabarlarining maqsadi to'g'risida ma'lumot beradi.

Qabul qiluvchi organ, istisno tariqasida, shaxsga doir ma'lumotlarni ayni bir davlatning boshqa organiga ma'lumot uzatayotgan organning oldindan yozma ruxsatisiz, basharti bu quyidagi sabablardan kamida bittasi uchun zarur bo'lsa, keyingi ma'lumotlarni uzatishga kirishishi mumkin:

ma'lumotlar subyektining yoki boshqa jismoniy shaxsning muhim manfaatlarini himoya qilish;

ma'muriy yoki sud protsesslarida huquqni belgilash, undan foydalanish yoki himoya qilish;

ma'lumotlar uzatilgan faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tergov olib borish yoki jinoiy ish yurituvchi.

Yuqoridagi hollarda, qabul qiluvchi organ so'ralgan ma'lumotlarning elementlarini, boshqa organi va tegishli huquqiy asoslarni taqdim etgan holda ma'lumotlarni keyingi uzatuvchi organi oldindan xabardor qiladi.

Agar oldingi ma'lumotlar, davom etayotgan tergovda bo'lgani kabi, maxfiylikni saqlash majburiyatiga zid bo'lsa, qabul qiluvchi organ imkon qadar tezroq ma'lumotlarni keyingi uzatuvchi organi xabardor qiladi.

Bunday hollarda, uzatuvchi organ ko'rsatilgan bildirishnomalarning bayonini saqlashi va ularni nazorat organining so'roviga binoan yuboradi.

Qabul qiluvchi organ ushbu bandlarga muvofiq olingan shaxsga doir ma'lumotlarni oldindan ruxsatsiz keyingi uzatish barcha tegishli istisnolar va cheklovlarni qo'llangan holda cheklanishini ta'minlaydi.

6.2. Shaxsga doir ma'lumotlarni keyingi uzatish.

Qabul qiluvchi organ shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi davlatning boshqa organiga yoki xalqaro tashkilotga faqatgina uning so'rovini barcha tegishli omillar, shu jumladan, qilmishning jiddiyligi, ma'lumotlar uzatishning maqsadi va ushbu uchinchi davlatda yoki xalqaro tashkilotda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish darajasini hisobga olgan holda baholaydigan uzatuvchi organning yozma ruxsati bilan keyingi uzatishni amalga oshirishi mumkin.

Qabul qiluvchi organ o'zining ruxsat berish to'g'risidagi yozma so'rovida yuqorida ko'rsatilgan boshqa organga yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumotlar turi, shuningdek, keyingi o'tkazishning huquqiy asoslari, sabablari va maqsadlari to'g'risida yetarli ma'lumot taqdim etishi lozim.

7. Ma'lumotlarni saqlash muddati

Vakolatli organlar shaxsga doir ma'lumotlarni amaldagi qonunchilik talablarida nazarda tutilgan muddatda saqlashi lozim, bu demokratik jamiyatda ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlariga ko'ra zarur va mutanosib muddatdan oshmasligi lozim.

8. Ma'muriy va yuridik himoya

Agar ma'lumotlar subyekti davlat organi ushbu bandlarda belgilangan kafolatlarga rioya qilmagan yoki unga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy ravishda qayta ishlagan deb hisoblasa, u nazorat qiluvchi organga shikoyat qilishi va huquqbuzarlik sodir etilganligi taxmin qilinayotgan yurisdiksiyada qo'llaniladigan qonunchilik qoidalarga muvofiq, sud organidan huquqiy himoya olish huquqiga ega.

Bundan tashqari, ma'lumotlar subyekti yetkazilgan har qanday zarar uchun kompensatsiya olish huquqiga ega.

Ma'lumotlar subyekti uning shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish yuzasidan har qanday nizo yuzaga kelsa yoki u ma'lumotni uzatuvchi organga, qabul qiluvchi organga yoki ikkala organga nisbatan da'vo kiritisa, organlar ushbu nizo yoki da'vo to'g'risida bir-birlarini darhol va do'stona ravishda xabardor qiladilar.

Agar ma'lumotlar subyekti da'vo qo'zg'atsa va topshiruvchi organ qabul qiluvchi organni ushbu bandlarda ko'zda tutilgan kafolatlarga muvofiq harakat qilmagan deb hisoblasa, u shaxsga doir ma'lumotlarni, qiluvchi organ muammoni qoniqarli tarzda hal qilmagunga qadar, uzatishni to'xtatadi.

Ma'lumotni uzatuvchi organ o'zining nazorat organini hamda ma'lumotlar subyekтини masala bo'yicha keyingi o'zgarishlar to'g'risida xabardor qiladi.

IV. Nazorat

1. Ushbu bandlarning lozim darajada bajarilishini ta'minlash uchun nazorat qiluvchi organ tomonidan tashqi nazorat kafolatlanadi.

2. Har bir vakolatli organ ushbu bandlarning bajarilishi va samaradorligini

ta'minlash uchun o'z siyosati va tartiblarini davriy ravishda qayta ko'rib chiqishi lozim.

Agar vakolatli organ asosli so'rov kiritgan bo'lsa, so'ralayotgan vakolatli organ ushbu bandlar bo'yicha kafolatlar samarali amalga oshirilganligini tekshirish va tasdiqlash maqsadida shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga doir o'z siyosati va tartiblarini qayta ko'rib chiqishi lozim.

Ko'rib chiqish natijalari uni so'ragan vakolatli organga taqdim qilinadi.

3. Qabul qiluvchi organ biror-bir sababga ko'ra, ushbu bandlarga muvofiq, kafolatlarni samarali amalga oshirishga qodir bo'lmasa, u uzatuvchi organni kechiktirmasdan xabardor qiladi, bunda uzatuvchi tomon qabul qiluvchi organ belgilangan kafolatlarga muvofiq harakat qilish imkoniyatini tasdiqlamagunga qadar unga shaxsga doir ma'lumotlarni uzatishni vaqtincha to'xtatib turadi.

Qabul qiluvchi vakolatli organ va uzatuvchi vakolatli organ o'zlarining tegishli nazorat organlarini bu borada xabardor qiladilar.

4. Agar yetkazuvchi vakolatli organ qabul qiluvchi organ ushbu bandlarda nazarda tutilgan kafolatlarga rioya qilmagan deb hisoblasa, yetkazuvchi vakolatli organ shaxsga doir ma'lumotlarni uzatishni, qabul qiluvchi organ muammoni ijobiy hal qilgan deb hisoblamaguniga qadar, to'xtatib turadi.

Yetkazuvchi vakolatli organ bu borada o'z nazorat organini xabardor qiladi.

V. Bandlarni qayta ko'rib chiqish

1. Tomonlar amaldagi qonunchilik talablarida jiddiy o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, ushbu bandlar muddatlari va shartlarini qayta ko'rib chiqish uchun bir-birlari bilan maslahatlashadilar.

2. Ushbu bandlarga muvofiq allaqachon uzatilgan barcha shaxsga doir ma'lumotlar ularda nazarda tutilgan kafolatlarga muvofiq qayta ishlashda davom etadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Xorvatiya
Respublikasi Hukumati o‘rtasida diplomatik pasport egalari
viza talablaridan ozod etish to‘g‘risida
BITIM**

Nyu-york, 2025-yil 24-sentabr

*[O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari davlat reyestrda
2025-yil 10-oktabrda ro‘yxatga olindi, ro‘yxat raqami 4602-HR-2025-H]*

*Mazkur Bitim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-martdagi
“Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-92-sonli qarori bilan
tasdiqlangan*

(O‘zbekiston Respublikasi uchun 2026-yil 24-iyundan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Xorvatiya Respublikasi Hukumati, keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb ataluvchilar,

O‘zbekiston Respublikasi va Xorvatiya Respublikasi o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar va hamkorlikni mustahkamlash istagidan kelib chiqib,

Amaldagi diplomatik pasport egalari bo‘lgan Xorvatiya Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sayohatini osonlashtirish istagida,

quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

1-modda

Bir Tomon davlatining amaldagi diplomatik pasport egalari bo‘lgan fuqarolari 180 (bir yuz sakson) kunlik har qanday davrda to‘qson (90) kundan oshmagan muddat davomida boshqa Tomon davlatining hududiga kirish, undan chiqish, tranzit o‘tish va unda bo‘lishda viza talablaridan ozod etiladilar.

2-modda

Bir Tomon davlatining amaldagi diplomatik pasport egalari bo‘lgan fuqarolari, boshqa Tomon davlatining hududida joylashgan diplomatik vakolatxona, konsullik muassasasi yoki xalqaro tashkilot vakillari sifatida tayinlangan shaxslar, shuningdek, ular bilan birga yashovchi va amaldagi diplomatik pasportga ega bo‘lgan oila a‘zolari, basharti ular boshqa Tomon davlatining hududiga kelganidan so‘ng o‘ttiz (30) kun ichida akkreditatsiya talablarini bajargan bo‘lsalar, butun tayinlov muddati davomida vizasiz kirish, bo‘lish va chiqish huquqiga ega bo‘ladilar.

3-modda

1. Har bir Tomon davlatining amaldagi diplomatik pasport egalari bo‘lgan fuqarolari boshqa Tomon davlatining hududida bo‘lishlari davomida pasportlari yo‘qolgan yoki shikastlangan taqdirda, bu haqda qabul qiluvchi davlatning vakolatli organlarini xabardor qiladilar.

2. Tegishli Tomon davlatining diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi o'z fuqarolariga yangi yo'l hujjatini rasmiylashtiradi.

4-modda

Mazkur Bitimning 1 va 2-moddalarida nazarda tutilgan har bir Tomon davlatining fuqarolari boshqa Tomon davlatining hududiga xalqaro yo'lovchi tashish uchun ochiq bo'lgan har qanday chegara o'tkazish punktlari orqali kirishlari va chiqishlari mumkin.

5-modda

Har bir Tomon boshqa Tomon davlatining istalmagan shaxs deb hisoblangan fuqarosini o'z davlatining hududiga kiritmaslik yoki unda bo'lish muddatini qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6-modda

Mazkur Bitim har bir Tomon davlatining fuqarolarini boshqa Tomon davlatining hududida amalda bo'lgan qonunlar va qoidalarga rioya qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

7-modda

1. Har bir Tomon milliy xavfsizlik, jamoat tartibi yoki jamoat salomatligini muhofaza qilish sabablariga ko'ra mazkur Bitim qo'llanilishini vaqtincha, to'liq yoki qisman, to'xtatib turish huquqini o'zida saqlab qoladi.

2. Mazkur Bitim qo'llanilishini to'xtatib turish yoki to'xtatib turishni bekor qilish to'g'risidagi qaror boshqa Tomonga diplomatik kanallar orqali yozma ravishda, kuchga kirishidan kamida 72 (yetmish ikki) soat oldin xabar qilinadi.

3. Har qanday Tomon tarafidan mazkur Bitim qo'llanilishini to'xtatib turish mazkur Bitimning 1 va 2-moddalarida nazarda tutilgan boshqa Tomon davlatining hududida bo'lib turgan fuqarolarning huquqlariga daxl qilmaydi.

8-modda

1. Mazkur Bitim maqsadlarida Tomonlar o'zlarining amalda qo'llanilayotgan diplomatik pasportlari namunalarini hamda bunday hujjatlarning batafsil tavsifini ushbu Bitim imzolangandan so'ng 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay diplomatik kanallar orqali almashadilar.

2. Har bir Tomon yangi diplomatik pasportlarni joriy etganda yoki amaldagilariga o'zgartirish kiritganda, ularning namunalarini va batafsil tavsifini boshqa Tomonga diplomatik kanallar orqali, joriy etilishidan kamida 30 (o'ttiz) kun oldin taqdim etadi.

9-modda

Mazkur Bitimni talqin qilish yoki qo'llashdan kelib chiqadigan har qanday nizolar Tomonlar o'rtasida maslahatlashuv va muzokaralar yo'li bilan do'stona hal etiladi.

10-modda

Mazkur Bitim Tomonlarning o'zaro yozma roziligi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi mumkin. Har qanday bunday o'zgartirish ushbu Bitimning ajralmas qismi hisoblanadi va mazkur Bitimning 11-moddasida nazarda tutilgan tartibda kuchga kiradi.

11-modda

1. Mazkur Bitim Tomonlar uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan ichki protseduralar bajarilgani haqida bir-birlarini diplomatik kanallar orqali xabardor qilgan oxirgi yozma bildirishnoma qabul qilingan kundan boshlab 30 (o'ttizinchi) kunda kuchga kiradi.

2. Mazkur Bitim nomuayyan muddatga tuziladi.

3. Har bir Tomon istalgan vaqtda boshqa Tomonga diplomatik kanallar orqali yozma xabarnoma yuborish orqali mazkur Bitimni tugatishi mumkin. Bunday holda, mazkur Bitim boshqa Tomon ushbu bildirishnomani olgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kundan keyin o'z kuchini yo'qotadi.

Nyu-York shahrida, 2025-yil 24-sentabrda ikki asl nusxada, har biri o'zbek, xorvat va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir. Mazkur Bitimni talqin qilishda kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

(imzolar)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ХАЛҚАРО ШАРТНОМАЛАРИ
ТЎПЛАМИ
СБОРНИК
МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРОВ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

*Расмий нашр
Официальное издание*

**Ўзбекистон Республикаси Халқаро шартномалари тўплами / Сборник
международных договоров Республики Узбекистан. 1-2 (89-90)-сон, 2026 й.
— 110 б.**

© Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, 2026 й.

Таҳрир ҳайъати:

*Абдуллаев Шерзод Комилович
Ахмедов Музаффар Муроджонович*

Компьютерда саҳифаловчи:

Қурбонбоев Шерзод Шамуратович

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги қошидаги
«Адолат» миллий ҳуқуқий ахборот маркази.
100060, Тошкент ш., Миробод тумани, Амир Темур шоҳкўчаси, 19-уй.
тел.: (71) 233-38-08, (71) 233-28-18.

Бичими 70x108 1/16.,
Ҳажми 6,8 б.т. Индекс: 949.
